

MASHG'ULOTLAR BILAN

Dinimni o'rganaman





Din ishlari vazirligi nashriyoti:

Bolalar uchun kitoblar:

Nashriyot direktori Doç. Dr. Fotih Kurt

Nashriyot koordinatori Bunyamin Qahramon

Maslahatchi Prof.Dr.Huriya Marti

Loyiha Ta'lim xizmatlari bosh boshqarmasi

Loyiha boshqaruvchisi Qodir Dinch

Loyiha koordinatori Usmon Alparslon

Muharrir Zaynab Ulviya O'zkan

Komissiya Odil Alzaroy, Oyshagul Go'zari,
Dr. Sh. Nihol Zaybak, Amina Yoldiz,
Fotima Qo'ton, Fotima Songur, Hadicha Erdo'g'on,
Muammar Shohin, Sulaymon Shon

Hissa qo'shganlar Yasin İMEL, Ayşe KAYA, Ömer Faruk YÜCEER
Dr. M. Shukru Qilich, Z. Do'ndu Sevgan,
Esma Guner, Firdavs Qism, M. Fotih O'zer,
Yosin Imel, Oysha Qoya, Umar Farrux Yujaer.

Nashr kuzatuvchisi Ismoil Derin

Nashrga tayyorlovchi Ali Chinqi, Umar Farrux Yujaer

Nashr

.....

.....

.....

.....

1-nashr,, 2021-yil

**Badiiy asarlarni ko'rib chiqish
bo'yicha komissiya qarori**

.....

ISBN:

.....

Sertifikat No:

© Din ishlari vazirligi

İletişim

Diniy nashrlar bosh boshqarmasi

Matbaa nashrlari bo'limi

Universitetlar mahallasi, Dumluipinar bulvari

No: 147/A 06800 Chanqaya/Anqara

Tel: 0312 295 72 93-94 Faks: 0312 284 72 88

e-manzil: diniyayinlar diyanet.gov.tr

Aziz bolalar!

Din ishlari vazirligi tomonidan tashkil etilgan
Qur'on kursida muqaddas kitobimiz Qur'oni karimni
o'qishni o'rghanasiz va hayotingiz uchun foydali diniy
bilimlarni o'rghanasiz. Sizni va oilangizni tabriklaymiz. Siz
uchun maxsus tayyorlagan ushbu kitobni taqdim etar ekanmiz,
kelajak hayotingizni jamiyatning namunali vakili sifatida
davom ettirishingizga ishonch bildiramiz va sizga
muvaffaqiyat, tinchlik va baxtga to'la hayot tilaymiz.

Din ishlari vazirligi

elapunz

Din 7

Ibodat 51

Sunnat 125

Axloq 169

Din

Iymonning asoslarini o'rganaman

- 8 Tavhid kalimasini va shahodat kalimasini o'rganaman
- 14 Islom va iymonning asoslarini o'rganaman
- 20 Allohga iymon keltiraman
- 26 Farishtalarga iymon keltiraman
- 29 Muqaddas Kitoblarga iymon keltiraman
- 38 Payg'ambarlarga iymon keltiraman
- 44 Oxirat hayotiga iymon keltiraman
- 46 Qadar va qazoga iymon keltiraman

Tavhid va shahodat kalimasini o'rganaman



Tavhid va shahodat kalimasi

“La ilaha illaloh”, “Ashhadu an la ilaha illaloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh” – bu so‘zlarni har birimiz azonni tingleyotganda yoki masjidda namoz o‘qiyotganda eshitganmiz.

“La ilaha illaloh Muhammadun rasululloh” ifodasi

‘Tavhid kalimasi’ deyiladi. Bu ibora “Allohdan o‘zga iloh yo‘qdir, Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Allohning elchisidir” ma’nosini bildiradi.

Tavhid kalimasi

Islomning mag‘zidir bu,
Eng chiroysi so‘zidir bu,
La ilaha illaloh,
Muhammad Rasululloh.

Birdir va yolg‘izdir Alloh,
Undan boshqa yo‘qdir iloh,
La ilaha illaloh,
Muhammad Rasululloh



“Ashhadu an la ilaha illaloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh”

iborasidir. Bu ifoda “Allohdan o‘zga iloh yo‘q, deb guvohlik beraman! Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Allohning bandasi va elchisidir, deb guvohlik beraman!” – demakdir.

Tavhid va shahodat kalimasini aytgan inson “musulmon” yoki “mo‘min” deyiladi. Bu iboralarni aytib, Allohning birligini va o‘xshashi yo‘qligini, Payg‘ambarimiz Muhammad Mustafo esa Uning bandasi va rasuli ekanligini tasdiqlagan bo‘lamiz.

Islom dinini qabul qilishning birinchi sharti tavhid kalimasi va shahodat kalimasini aytishdir.

Bir oyat o'rganaman

"Alloh – Undan boshqa
ibodatga sazovor iloh
yo'q Zotdir".

(Toha surasi, 8-oyat)

Robbimni taniyman

Robbimiz Allohdır. U o'xshashi
bo'lмаган Buyuk Yaratuvchidır.

Undan boshqa iloh yo'qdir. Undan
boshqa rizq beradigan yo'qdir.

Undan boshqa shifo beradigan
yo'qdir. Undan boshqa koinotni
boshqaruvchi kuch yo'qdir.

Yaxshiliklarni Undan tilaymiz va yomonliklardan Unga
sig'inamiz.

Bizni va butun borliqni yaratgan Allohdır. Osmonlarning,
yerning va ikkalasi orasidagi narsalarning Robbi Allohdır. Son-
sanoqsiz ne'matlarni yaratgan, har bir ishimizni ko'radigan va
eshitadigan Allohdır. Bizni sevadigan, taniydigan va bizga nima
kerakligini eng yaxshi biladigan Allohdır.

"La ilaha illalloh", deganimizda Robbimizning ismini ham aytgan
bo'lamiz. Tavhid kalimasi va shahodat kalimasidan boshqa
Allohnı zikr qiladigan boshqa ifodalar ham bor. "Bismillahir
rohmanir rohiym", "Alhamdulillah", "Allohu Akbar" shulardan
ba'zilaridir.

Bir ishni boshlashdan oldin: "Bismillahir rohmanir rohiym",
– deymiz. Bu bilan biz Allohga bo'lgan sevgimizni va
bog'liqligimizni ifoda qilamiz.

"Bismillah", deyish Allohnинг yordamini har doim his qilishimizni
ta'minlaydi.



- » Allah birdir va hamma narsaning yaratuvchisidir.
- » Allah O'zi yaratgan hech narsaga o'xshamaydi.
- » Biz yeyayotgan, ichayotgan, qo'llanayotgan
barcha ne'matlarni bergen Allohdır.




Bismillahir rohmanir rohiym

“Bismillah” ovqat yeganda, maktabga ketayotganda, dars tayyorlayotganda, yotganda tilimizdan hech tushmaydi. Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam), “Bismillah” bilan boshlangan ishlar omadli bo‘lishini, “Bismillah” bilan yeyilgan taomning barakasi bo‘lishini aytganlar.

Alhamdulillah

Bir ishni qilgandan keyin,
oxirida “Alhamdulillah” deymiz,
bergan ne’matlari uchun
Robbimizga shukr aytamiz.



Allahu Akbar

Ba’zan esa “Allahu Akbar”
deymiz va Allohnинг eng
buyuk ekanligini tasdiqlaymiz.

Bismillah

“Bismillah”dir ilk qadam,
“Bismillah”-la boshladim,
Seni bilmoq istagim,
Yordam bergin Allohim.

“Bismillah” bir kalitdir,
Ko‘p eshiklar ochadir,
Haq bizlarga yordir,
Desak agar “Bismillah”!

“Bismillah” der butun olam,
“Bismillah” de, ey odam!
Qolmas ko‘ngilda g‘am,
Desak agar “Bismillah”!



O‘ylaylik! O‘rganaylik! O‘rgataylik!



- Musulmon, deb kimga aytildi?
- Musulmonning aytishi kerak bo‘lgan eng birinchi so‘z qaysi?
- Tavhid va shahodat kalimasining ahamiyatini kattalardan so‘rab, o‘rgananlarimizni do’stlarimizga o‘rgataylik.
- Bismillah, tavhid, shahodat kalimalari, “Alhamdulillah”, “Allahu akbar” so‘zlari kabi kundalik hayotda ko‘p ishlata digan va Allohnini eslatadigan yana qanday iboralar bor? Izlaylik.

Bir oyat. Bir hadis

Bizlarni judayam yaxshi ko‘radigan Robbimiz shunday marhamat qiladi:

“Iymon keltirgan va solih amallar qilganlarga ular uchun ostidan anhorlar oqib turgan jannatlar borligining bashoratini ber!”

(Baqara surasi, 25-oyat)

- Oyatda Robbimiz kimlarga jannah bashoratini bermoqda?

Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) shunday deydilar:

“Bismillah” bilan boshlanmagan har bir ish barakasizdir.

(Hadisi sharif)

- Ishning barakasiz bo‘lishi nima degani?



• • Solih amallardan uchtasini yozing!

1.

2.

3.

Aka-singil Solih va Sanobarga yordam ber!



Do'stlar,

aka-singil Solih va Sanobar tavhid va shahodat kalimalari bilan bog'liq jumlalardagi bo'shlqlarni to'ldirmoqchi. Ularga yordam berishga nima deysiz?



LA _____ ILLALLOH
MUHAMMADUN _____

ASHHADU _____ ILLALLOH
VA ASHHADU _____
ABDUHU VA RASULUH

- Shahodat kalimasi va tavhid kalimasini qachon va nima uchun aytamiz?

.....
.....

- Atrofingda tavhid kalimasi yozilgan biror bir joy ko'rdingmi, qanday edi?

.....
.....

- Shahodat kalimasi va tavhid kalimasining ma'nosi nima?

.....
.....

Islomning va iymonning asoslarini o'rganaman



Dinim Islom

Biz musulmonmiz. Dinimiz Islom dinidir. Chunki biz Allohga va suykli Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Allohning bandasi va elchisi ekanligiga chin ko'ngildan iymon keltiramiz. Allohga, farishtalariga, Kitoblariga, payg'ambarlariga, oxirat kuniga, qazo va qadarga iymon keltiramiz. Bu olti iymon asosiga qisqacha "ishondim" ma'nosidagi "amantu" deymiz.

Iymonning asoslari

1. Allohga iymon keltirish.
2. Farishtalarga iymon keltirish.
3. Kitoblarga iymon keltirish.
4. Payg'ambarlarga iymon keltirish.
5. Oxirat kuniga iymon keltirish.
6. Qazo va qadarga iymon keltirish.

BIZ BILAMIZKI:

- » Alloh yakka va yolg'izdir. Bizni va butun borliqlarni yaratgan Udir.
- » Allohning farishtalari bor. Ular Alloh bergan vazifalarni bajaruvchi va yomonlik nimaligini bilmaydigan borliqlardir.
- » Alloh hayotda to'g'ri va chiroyli yashashning qoidalarini o'rgatadigan muqaddas kitoblar nozil qilgan.
- » Alloh insonlarga o'rnak bo'lgan payg'ambarlarni yuborgan. Payg'ambarlar insonlarni faqat yaxshilikka chaqirganlar.
- » Alloh insonlarni o'lgandan keyin qayta tiriltiradi. Oxirat – insonlarga bu dunyoda qilganlarining javobi beriladigan abadiy hayot.

Bilasanmi?

Suyukli Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) aytgan gaplari "hadis" deyiladi.

Bir hadis o'rganaman!

"Musulmon - qo'li va tili bilan hech kimga zarar bermagan kishidir".

Biz mo'minmiz. Iymon keltirgan va iymoni bilan dunyoni go'zallashtirgan insonlarmiz. Yolg'iz Allohga qullik qilib, faqatgina Unga yolvoramiz. Payg'ambarimizning o'rgatganlarini hayotimizda amalga oshiramiz. Yer yuzida yaxshiliklar ko'payishi uchun va yomonliklarga qarshi kurashish uchun harakat qilamiz.

Dinimizda har bir musulmonning qilishi kerak bo'lgan asosiy ibodatlar bor. Bularga "Islomning asoslari" deyiladi. Albatta, ibodatlar bular bilan chegaralanib qolmagan. Lekin bu besh ibodat juda ham muhimdir.

Islomning asoslari

1. Kalimai shahodatni aytish.
2. Namoz o'qish.
3. Ro'za tutish.
4. Zakot berish.
5. Hajga borish.

Bir hadis o'rganaman!

"Islomning besh asosi bor: Allohdan boshqa iloh yo'qligi va Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Uning bandasi va elchisi ekanligiga ishonish, namoz o'qish, zakot berish, Ramazon ro'zasini tutish va imkoniyati borlar uchun Ka'bani ziyorat qilish, ya'ni haj ibodatini amalga oshirish".

Islom halovat dini, musulmon ishonchli insondir. Chunki, “musulmon” so‘zi “qo‘li va tili bilan hech kimga zarar bermaydigan, ishonchli inson” ma’nosini anglatadi. Musulmonlar halovatning, tinchlikning vaadolatning kafolatidir. Islomning qonunlariga rioya qilgan insonlar har doim huzur va halovatda, birodar bo‘lib yashaganlar.

BİZ MUSULMONMİZ!

- » Allohni sevamiz va Alloh bizni ham sevishiga ishonamiz.
- » Alloh hamma narsani ko‘rishini, hamma narsani eshitishini bilamiz, to‘g‘ri so‘zli va rostgo‘y bo‘lamiz.
- » Alloh odil ekanligini, adolatlilik insonlarni sevishini bilamiz, hech kimga nohaqlik qilmaymiz.
- » Dunyodagi hamma narsa Alloh tomonidan yaratilganligiga ishonamiz, barcha borliqlarga sevgi va mehr bilan munosabatda bo‘lamiz.

AMANTU

“Amantu billahi va malaikatihi va kutubihi va rusulihi val yavmil axiri val qodari xoyrihi va sharrihi minallohi ta‘ala val ba’si ba’dal mavti haqqun. Ashhadu an la ilaha illalloh va ashhadu anna Muhammadan abduhu va rasuluh”.

MA’NOSI:

“Men, Allohga, farishtalariga, kitoblariga, payg‘ambarlariga, oxirat kuniga, qadarga, yaxshilik va yomonlik Allohnинг xohishi bilan bo‘lishiga ishondim.

O‘lgandan keyin qayta tirilish haqiqatdir. Guvohlik beramanki, Allohdan boshqa iloh yo‘q. Yana guvohlik beramanki, Muhammad (sav) Uning quli va elchisidir”.



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) musulmonni “qo‘lidan va tilidan zarar kelmaydigan inson” deb ta’riflaganlarida nimalarni nazarda tutganlar? O‘ylaylik va do’stlarimiz bilan fikr almashaylik.

Qani, to'ldir-chi!



Do'stlar!

Iymonning shartlarini to'ldirishga yordam bering.

**lymonning
shartlari**

**Allohga
iymon keltirish**



Qani, to'ldir-chi!



Do'stlar!

Islomning shartlarini to'ldirishda yordam bering.



Islomning
shartlari

Shahodat
kalimasini
aytish

1. Ibodat – Allohg'a yaxshi bir qul bo'lish va bergen ne'matlari uchun Unga shukr qilishdir. Allohning eng sevgan ibodatlari qaysilar?
2. Savob va gunoh bo'lgan amallarga misol berchi?

To'g'ri joylashtiramiz



Aziz do'stlar!

Quyidagi qutichalarda Islomning va iymonning shartlari aralash qilib berilgan. Ularni to'g'ri nom ostida joylashtiring-chi!

Farishtalarga
iymon
keltirish

Zakot
berish

Namoz
o'qish

Shahodat
kalimasini
aytish

Allohgaga
iymon
keltirish

Ro'za
tutish

Payg'ambarlarga
iymon
keltirish

Hajga
borish

Oxirat
kuniga
iymon
keltirish

Qazo
va qadarga
iymon
keltirish

Kitoblarga
iymon
keltirish

Islomning shartlari

1

2

3

4

5

6

Iymonning shartlari

1

2

3

4

5

6



Allohga iymon keltiraman (ishonaman)



Koinotni Allah yaratdi

Biz ko'rgan va bilgan barcha narsalarning yaratuvchisi Allahdir. Allah, eng avvalo, koinotni yaratdi. Osmonlarni, yulduzlarni, oyni, quyoshni yaratdi, hammasiga orbita (yuradigan aylana shakldagi "yo'l") belgilab qo'ygan Allahdir. Shunday qilib, Robbimiz kechaning va kunduzning paydo bo'lishini, mavsumlarning o'zgarishini ta'minladi, biz yashashimiz uchun eng munosib shart-sharoitni yaratdi.

Dunyoning quyoshdan uzoqligi ham bir o'lchovga ko'ra yaratilgandir. Agar quyosh yerga juda yaqin bo'lganida, dunyomiz yonib kul bo'lgan bo'lardi. Juda uzoq bo'lganida esa jonzotlar muzlab qolgan bo'lardi.

Yer yuzini yaratgan ham Allahdir. Robbimiz tuproqni, suvni, olovni, daraxtlarni, hayvonlarni, irmoqlarni, o'rmonlarni, tog'larni, qisqasi insonning ehtiyojlarini ta'minlaydigan barcha borliqlarni mukammal bir mutanosiblik bilan yaratdi.

Bir oyat o'rganaman

"U O'z rahmati oldidan shamollarni xushxabar qilib yuborgan Zotdir.
Va osmondan pok suv tushirdik.
U ila o'lik yurtni tiriltirishimiz va o'zimiz yaratgan ko'plab chorva hayvonlari hamda insonlarni sug'orishimiz uchun".

(Furqon surasi, 48 – 49-oyatlar)



Alloh insonni yo‘qdan bor qildi

So‘ngra Allah dunyoda yashashi uchun eng aziz borliq bo‘lgan insonni yaratdi. Inson o‘ziga xos yaratilgandir. Boshqa jonzotlardan farqli ravishda aqli va irodasi mavjud. Tuyg‘ulari bor. Tafakkur qila oladi va gapira oladi.

Allohning bu koinotdagi eng sevgan va eng ko‘p qadrlagan borlig‘i insondir. Yerdagi va osmondagи barcha go‘zalliklar insonning amriga berilgan. Jonli va jonsiz barcha borliqlar insonga omonat berilgan. O‘simliklar va hayvonlar uning xizmatiga shaydir. Yetarki, hayotini chiroli shaklda yashasin va doimo yaxshiliklar qilsin.



Payg‘ambarlarni Allah yubordi

Inson tug‘iladi, qadam-baqadam ulg‘ayadi, rivojlanadi va vaqt(soati kelib qariyi). Bir kun kelib o‘ladi va shu tarzda dunyo hayotiga yakun yasaydi. Boshqa jonlilardan farqli o‘laroq Allohning unga bergen aql bilan o‘z hayotida o‘z yo‘lini tanlaydi. Ammo faqatgina aqlini va kuchini ishga solish insonni har doim baxtga olib bormaydi. Insonning yaxshi va yomonni, chiroyli va xunukni, to‘g‘ri va noto‘g‘rini bir biridan ajrata olishi uchun yo‘l ko‘rsatuvchiga ehtiyoji bor. Bu yo‘l ko‘rsatuvchilar payg‘ambarlardir.

Allah insonlarni judayam yaxshi ko‘rganligi, ularning yaxshi va solih ishlar qilishini xohlagani uchun payg‘ambarlar yuborgan. Payg‘ambarlar bizlarga qanday yashash kerakligini o‘rgatganlar. Bizlar ham payg‘ambarlardan ibrat olib, ulardek yashab dunyoda va oxiratda baxtiyorlikka erishamiz.





Eng go‘zal ismlar Allohnikidir

Robbimiz shunchalik qudratliki... U bir narsaning bo‘lishini xohlagan paytda “Bo‘l!” deydi va o‘sha zahoti bo‘ladi. Chunki Uning har qanday narsani yaratishga kuchi yetadi.

Katta-kichik, ko‘ringan-ko‘rinmagan, jonli-jonsiz hamma narsa Allohning asaridir. Hech narsa o‘z o‘zidan paydo bo‘lmagan. Ajoyib bir tartib va tizimga ega koinotning bir yaratgani bordir. U – yakka va yolg‘iz Allohdir.

Allohni tanigan sari Unga bo‘lgan sevgimiz oshib boradi. Allohni tanish esa Uning ismlarini o‘rganish bilan boshlanadi. Eng go‘zal ismlar Allohnikidir. Bu ismlar Allohning xususiyatlari haqida bizga ma’lumot beradi. Masalan, ar-Rohman va ar-Rohim ismlari Allohning o‘ta mehribon ekanligini bildiradi. Al-Vadud – “bandalarini o‘ta sevadigan va sevilishga eng loyiq bo‘lgan” deganidir. Bizni judayam sevadigan Robbimizni biz ham juda sevamiz. Chunki bor ekanligimizda Unga qarzdormiz. Uni sevganimiz sari hayotga mehrimiz oshadi va baxtli bo‘lamiz.

Al-Karim – “Bandalariga cheksiz lutf va yaxshilik in’om etuvchi”, ar-Razzoq esa “barcha borliqlarning rizqini beruvchi zot Allah” ekanligini ifoda etadi. Tuproqdag‘i chumolidan dengizning eng tubidagi baliqlargacha – butun jonlilarning qornini to‘ydiradigan Allohdir. Al-Musavvir – “borliqlarga bir biridan farqli shakllar bergan” demakdir. Al-Musavvir ismi borliqlarni turli rang, shakl va go‘zallikda yaratganning Allah ekanligini bizga o‘rgatadi.

Allohning 99 ismi bordir. Allohning ismlarini Qur’oni karimdan va suyukli Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) hadislaridan o‘rganamiz. Kelinglar, ana shu ismlardan ba’zilarini birgalikda o‘rganamiz:

Allohning go'zal ismlaridan

Al-Ahad

Alloh yakka va tengi yo'qdir.

Ar-Rohman

Alloh kechiruvchi va asraguvchidir.

Ar-Rohim

Alloh mehribonlik va rahmdillik Sohibidir.

Al-Qodir

Alloh hamma narsaga kuchi yetadigan Zotdir.

Al-Basir

Alloh hamma narsani ko'rurvchidir.

Al-Xoliq

Alloh barcha narsaning yaratuvchisidir.

Al-Aliym

Alloh har narsani biluvchidir.

Al-Barr

Alloh barcha yaxshilik va go'zalliklarning sohibidir.

Al-Hofiz

Alloh asraguvchidir.

Al-G'offar

Alloh xato va gunohlarni kechiruvchidir.

Al-Vadud

Alloh sevgini yaratgan va bandalarini sevuvchidir.

As-Sami'

Alloh har narsani eshituvchidir.

Ar-Razzoq

Alloh barcha jonlilarning rizqini beruvchidir.

Al-Karim

Alloh o'ta marddir.

Al-Adl

Alloh o'ta adolatlidir.



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!

- Endi bu ismlar bilan Allohga duo qilaylik. Ilk duomiz bizdan: "Ey qullarini o'ta sevuvchi Robbim! Meni va oilamni jannating bilan sevintir! Omin".

Bir oyat o'rganaman

"Allohnинг go'zal ismlari
bordir. Bas, Unga o'sha
go'zal ismlar ila duo
qiling".

(A'ruf surasi, 180-oyat)

Bir oyat o'rganaman

"Ayt: "U Alloh yagonadir. Alloh
– Somaddir. (Hech kimga hojati
tushmaydi, barchaning hojati
Unga tushadi.) U tug'magan va
tug'ilмаган. Va Unga hech kim
teng bo'lмаган".

(Ixlos surasi, 1 – 4-oyatlar)



Sensan, Allohim

Bizni yaratgan – Sensan
Allohim,

Ne'matlar-la siylagan,
Hayotga huzur qo'shgan,
Sensan O'zing, Allohim!

Yomg'irlarni yog'dirgan,
Yer sharin aylantirgan,
Yulduzlarni so'ndirgan,
Sensan O'zing, Allohim!

Har borliqda bir ohang,
San'atda yer ko'kka teng,
Chechaklarga bergen rang,
Sensan O'zing, Allohim!

Yoz-u qishni keltirgan,
Boshqolgarga don bergan,
Har nega kuchi yetgan,
Sensan O'zing, Allohim!

Bulutlarni kezdirgan,
Kemalarni suzdirgan,
Qalamim-la yozdirgan,
Sensan O'zing, Allohim!

Har borliq Senga muhtoj,
Iymondir qalblarga toj,
Mudom bizning ehtiyoj –
Sensan O'zing, Allohim!



O'yaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- Bu she'r bizga Allohning qaysi xususiyatlarini aytmoqda, o'ylab ko'raylik.

- Dasturxonimizdagi ne'matlarning bizga yetib kelishigacha qaysi bosqichlardan o'tganini o'rganib ko'raylik va do'stlarimizga ham o'rgataylik.

Farishtalarga iymon keltiraman

Farishtalarga iymon

Biz mo'minmiz. Farishtalarning borligiga ishonamiz. Farishtalar nurdan yaratilgan va ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan borliqlardir. Insonlardan boshqacha yaratilganliklari uchun farqli xususiyatlarga ega. Erkak yoki ayol kabi jinsi yo'q. Yeyish, ichish va uslash kabi ehtiyojlari yo'q.

Farishtalar aslo yomonlik ham, gunoh ham qilmaydi. Har doim yaxshi va solih amallar qiladi. Kecha-kunduz Allohga ibodat va duo qilishadi. Allohning ularga bergen vazifalarini bajaradi, insonlarga yordam berishadi. Shuning uchun, yaxshi insonni ta'riflar ekan "farishtadek inson", deymiz.

Farishtalar bizning do'stimizdir. Bizning muvaffaqiyatimiz, jannatga kirishimiz, qazo va balolardan saqlanishimiz uchun duo qilishadi. Insonlarning yaxshilik qilishlari ularni baxtli qiladi. Shuning uchun, farishtalar yaxshi ishlar qilgan insonlar uchun yaxshilik daftariga savob yozishadi. Yomonlik qilganimizda esa xafa bo'lishadi. Xatomizni tushunib yetishimizni, pushaymon bo'lib Allohdan kechirim so'rashimizni kutishadi.

Farishtalar hamma joyda bo'lishi mumkin. Allohning son-sanoqsiz farishtalari bor. Bulardan to'rt nafar katta farishtalarning ismi: Jabroil, Mikoil, Isrofil va Azroildir (alayhimussalom).

Jabroil – Allohdan olgan "vahiy" nomli oyat va ma'lumotlarni payg'ambarlarga yetkazgan farishta. Robbimiz, buyruq va ta'qiqlarini Jabroil (alayhissalom) vositasida payg'ambarlarga yuborgan. Payg'ambarlar esa hayotimizni tartibga soladigan bu qoidalarni bizga o'rgatgan. Mikoil (alayhissalom) – yomg'ir, qor, shamol kabi tabiat hodisalarini tartibga soladigan farishta. Azroil (alayhissalom) – umri bitgan va navbati kelgan jonlilarning o'limi bilan vazifalidir. Isrofil (alayhissalom) ismli farishta esa, dunyo hayoti oxiriga yetadigan paytda surga puflash orqali buni insonlarga bildiradi.

Bir oyat o'rganaman

"Osmonlar-u yerdagi barcha
jonzotlar va farishtalar faqat
Allohgaga sajda qilurlar. Ular
mutakabbirlik qilmaslar".

(Nahl surasi, 49-oyat)

Duo qiladigan farishtalar

Nurdan-da nurli borliqlar,
Son-sanoqsiz malak bor.
Yer hamda osmondalar,
Bizga duo qilarlar.



O'yaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!




- "Farishtadek inson" so'zi qaysi xususiyatlarga ega bo'lgan insonlar uchun qo'llaniladi? O'rganaylik.

To'rt ulug' farishta



Do'stlar,

quyidagi katakchalarda to'rt nafar katta farishtalarning ismlari yashiringan. Ko'rsatkichlar ortidan borib, bir xil xarflarga duch kelasiz. To'ldirilmagan joylarni tugallab to'rt ulug' farishtaning ismlarini yozing.



- To'rtta katta farishtaning vazifalarini bilasizmi?

1

2

3

4

Kitoblarga iymon keltiraman



Kitoblarga iymon

Bizni juda sevadigan Robbimiz, dunyoda ham, oxiratda ham baxtli bo'lishimizni xohlaydi. Bizga baxtli bo'lish yo'llarini o'rgatadigan kitoblarni ham shu maqsadda yuborgan. Allohning buyruq va ta'qiqlaridan iborat, bizga o'tmishimizni va o'lgandan keyin ko'radiganlarimizni anglatadigan bu kitoblarga "ilohiy kitoblar" deyiladi.

Alloh tomonidan insonlarga payg'ambarlar vositasi bilan to'rtta katta kitob yuborilgan. Bular: Tavrot, Zabur, Injil va Qur'oni karimdir. Tavrot Muso alayhissalomga, Zabur Dovud alayhissalomga, Injil Iso alayhissalomga yuborilgan. Kitobimiz Qur'oni karim esa suyukli Payg'ambarimiz Muhammadga (sollallohu alayhi va sallam) yuborilgan.

Muqaddas kitobimiz Qur'oni karimning birorta harfi ham o'zgarmasdan bizgacha yetib kelgan. U dunyoning oxirgi kuniga qadar butun insoniyatning hayot rahbaridir. Allah Qur'oni karimdan keyin boshqa bir kitob yubormaydi.

Allohdan bizga xitob –
Yubordi to'rtta kitob!
Tavrot, Injil va Zabur,
Qur'onidir bizlarga nur.



Qur'oni karim

- » Allohning insonlarga yuborgan oxirgi kitobidir.
- » Ichidagi ma'lumotlar barcha insonlarga tegishlidir.
- » O'qilishi va yod olinishi ibodatdir.
- » Tili arabchadir.

“Yaratgan Robbingning ismi bilan o‘qi”

Qur’oni karim birdaniga bir kitob holida Payg‘ambarimizga tushirilmagan. Vahiy farishtasi Jabroil (alayhissalom) uni bo‘limlar holida Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va salla) olib keldi. Vahiy 23 yil davom etdi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) vafot etishlaridan 80 kun oldin oxirgi vahiy tushgan.

Qur’oni karim 610-yilda Ramazon oyida tushirila boshlandi. Qur’oni karim tushishni boshlagan kecha “Qadr kechasi” deyiladi. Jabroilning (alayhissalom) Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) keltirgan ilk oyatlari esa “O‘qi!” amri bilan boshlanadi.



Bilasizmi?

Islomning ilk buyrug‘i: “O‘qi!”
(Alaq surasi, 1-oyat)

Qur’oni karim bilan tanishaylik

- » Qur’oni karimning har bir jumlasiga “oyat” deyiladi.
- » Oyatlardan iborat bo‘limlarga “sura” deyiladi.
- » Qur’oni karimda 6236 ta oyat bor.
- » Qur’oni karimda 114 ta sura bor.
- » Qur’oni karimning birinchi surasi Fotiha (Ochuvchi), oxirgi surasi Nas (Insonlar) surasidir.
- » Qur’oni karimning eng uzun surasi Baqara, eng qisqa surasi esa Kavsar surasidir.

QUR'ONI KARIM BIZDAN NIMANI XOHLAYDI?

- » Qur'on o'qishni, o'rganishimizni
- » Qur'on o'qilganda hurmat bilan tinglashimizni;
- » Qur'onnéni tushunishimizni va u o'rgatgandek yashashimizni xohlaydi.



Bir oyat o'rganaman

"Qur'onnéni tartil bilan
tilovat qil!"

(Muzzammil surasi, 4-oyat)

Qur'onnéni tartil bilan tilovat qilish deb uni dona-dona qilib, har bir harfini o'z o'rnidan chiqarib, oyatlarini alohida-alohida qilib, tajvid qoidalari asosida o'qishga aytildi.

Qur'oni karim bizga nimalarni tushuntiradi?

Qur'oni karim bizga Allohni tanitadi. Insonni va koinotdagi boshqa borliqlarni tushuntiradi. Ilyonimizni va ibodatlarimizni o'rgatadi. Ota-onamizga, atrofimizdag'i insonlarga, jonli va jonsiz barcha borliqlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lismiz kerakligini aytadi. Qur'oni karim bizga har masalada to'g'ri yo'lni ko'rsatadi. Allohning buyruq va ta'qiqlariga mos tarzda yashagan insonlar dunyo va oxiratda baxtli va huzurli bo'ladilar.

Bir oyat o'rganaman

"Robbimiz bizga bu dunyoda ham yaxshilikni, oxiratda ham yaxshilikni bergin".

(Baqara surasi, 201-oyat)



Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) xuddi tirik Qur'onideklar. Ul zot Qur'oni qanday tushunishimiz va Qur'onga muvofiq qanday yashashimiz kerakligini ko'rsatadigan eng chiroyli o'rnakdirlar. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) yashab o'tgan davrga baxtiyorlik davri ma'nosini beruvchi "Saodat asri" deyiladi. Chunki Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va o'sha davrda yashagan musulmonlar Qur'onga ko'ra yashagan baxtiyor jamiyatni qurbanlar.

Qur'oni karim bizga duo qilishni o'rgatadi

Bizni yaratgan Robbimizga duo qilib, Unga bo'lган sevgimizni va ehtiyojimizni tilga olamiz. Duo qilganda, bergen ne'matlari uchun Allohga shukr aytgan va qiyinchiliklarimiz uchun Undan yordam istagan bo'lamiz. Alloh samimiyl qilgan chiroyli duolarimizni qabul qiladi. Qur'oni karimda ham juda go'zal duolar bor. Shu tarzda, Alloh bizga O'ziga qanday quo qilishimiz kerakligini o'rgatadi.

Bilasizmi?

Qur'oni karimni boshidan oxirigacha o'qish "xatm" deyiladi.
Qur'oni karimni boshidan oxirigacha yod olgan kishi esa "hofiz" deyiladi.

Bir hadis o'rganaman

"Sizlarning yaxshilaringiz Qur'oni o'rganganlaringiz va o'rgatganlaringizdir".



Qur'oni karim bizga ibodatlarimizni o'rgatadi

Qur'oni karimda ibodat qilishning, ya'ni yaxshi banda bo'lishning qanchalik muhim ekanligiga urg'u berilgan. Allohning sevgan bandasi bo'lish uchun qanday ibodatlarni qilishimiz kerakligi aytildi. Namoz, ro'za, zakot, haj kabi ibodatlar bularning eng avvalidan joy oladi.

Ibodatlarimizni qanday va qachon qilishimizni esa Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) o'rganamiz. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ibodatlarni o'zлari bajarib ko'rsatganlar. Misol uchun, "Men namozni qanday o'qisam, siz ham xuddi shunday o'qing", deganlar.



Qur'oni karim bizga go'zal xulq-atvorni o'rgatadi

Insonlarning tinchlik, omonlikda baxtli saodatlari yashashi ularning xulq-atvorlarining go'zal bo'lishiga bog'liqdir. Muqaddas Kitobimiz Qur'on bizga go'zal tabiatli insonning xususiyatlarini ta'riflaydi va yomon xulqlardan uzoq turishimizni xohlaydi.

Ota-onamizga yaxshi munosabatda bo'lishimiz, bergan va'dalarimizni bajarishimiz, yordamsevar va rahmdil bo'lish, g'iybat, yolg'on, tuhmat kabi yomon gaplardan uzoq bo'lish – Qur'on axloqining shartlaridan ba'zilaridir.

Qur'oni karimda ajoyib qissalar ham bor. Qissa – nasihat beruvchi hikoya demakdir. Bu qissalar bizdan oldin yashab o'tgan jamiyatlarni, o'tgan payg'ambarlarning hayotlarini so'zlab beradi. Qissalardan o'rnak olish va ibratli xulq-atvorlarni hayotimizga tatbiq qilish esa bizning vazifamizdir!



Bir hadis o'rganaman

"Qur'oni mahorat bilan tilovat qiluvchi qori elchi, yozuvchi va o'ta yaxshi farishtalar bilan (bir maqomda)dir. Tili qiynalib tilovat qiluvchiga ikki barobar ko'p ajr bo'ladi".

Nuh alayhissalomning kemasi

Insonlar, ilk inson va ilk payg‘ambar bo‘lgan Odam alayhissalomdan keyin Allohgaga ibodat qilishni tark qilishdi va o‘zlarining qo‘llari bilan yasagan butlarga sig‘ina boshladilar. Kuchlilar va boylar kuchsiz va bechoralarni ezar edi. Rahmdillikni va yaxshilik qilishni unutishgan edi. Shuning uchun, jamiyatda tinchlik va halovat qolmagan edi.

Alloh bu insonlarning ichida yashab kelayotgan hazrati Nuh (alayhissalom)ni payg‘ambar etib tanladi va vazifalar berdi. Nuh (alayhissalom) hech kimga nohaqlik qilmagan, hamma ishonadigan va sevgan inson edi. Muhtojlarga qo‘lidan kelganicha yordam berar, to‘g‘ri deb bilganini tap tortmasdan aytardi. Hazrati Nuh (alayhissalom) payg‘ambar bo‘lganidan keyin atrofidagi insonlarni Allohgaga iymon keltirishga va faqatgina Unga ibodat qilishga chaqirdi. Ular hazrati Nuhning bu chaqiriqlariga rad javobi bergenlari yetmagandek, uning ustidan kulishdi. Unga,



“Sen ham bizga o‘xshagan insonsan, senga nega ishonaylik?” dedilar. Nuh (alayhissalom)ning barcha harakatlariga qaramasdan juda oz kishi Allohga iymon keltirdi. Qolganlari butlarga sig“inishda, yomonlik va zolimlik qilishda davom etdilar.

Nuh (alayhissalom) shunday bo‘lsa ham, sabr qilib xalqiga yaxshi nasihatlar berishda davom etdi. Bir kun qo‘llarini ochib Allohga shunday duo qildi: “Yo Robbim, mening so‘zlarimni yolg‘onga chiqarmoqdalar, menga yordam ber!” Buni ko‘rgan inkor qilgan odamlar Nuh (alayhissalom) ga, “Sen yordam istagan Robbingdan so‘ra, bizga jazo bersin, qani, ko‘raylik!” deb katta ketishdi.

Hazrati Nuhga (alayhissalom) va unga ishonganlarga qilinayotgan aziyatlar chidab bo‘lmas holga kelgan edi. Shunda payg‘ambar, “Robbim, meni va iymon keltirganlarni qutqar!” deb duo qildi. Alloh Nuhga (alayhissalom) bir kema yasashini buyurdi. U kungacha hech kim kema yasamaganligi uchun bu ishni biladigan kishi yo‘q edi. Alloh Nuhga (alayhissalom) bu ish qanday qilinishini o‘rgatdi. O‘rmondan daraxtlar olib keldi va ulardan buyuk bir kema yasadi. Kema bitganidan keyin, Alloh Nuhga (alayhissalom) iymon keltirganlarni kemaga mindirishini buyurdi. Yana kemaga har bir hayvondan bir juft olishini amr qildi.

Ertasi kuni osmon qop-qora bulutlar bilan qoplandi. Insonlarning yuragiga qo‘rquv solgan chaqmoqlar chaqdi. Ko‘p o‘tmasdan xuddi chelakdan suv quygandek jala yog‘di. Yomg‘ir hech tinay demasdi, yog‘averdi, yog‘averdi. Hamma joy suv bilan qoplandi. Hazrati Nuh (alauhissalom) qutulib qolishlari uchun barchani kemaga minishga chaqirdi. Inkor qilganlar esa, “Tog‘larga qochib qutulamiz!” deyishdi va kemaga minmadilar. Lekin bu ularni asrab qololmadi. Yomg‘ir shunchalik ko‘p yog‘diki, hatto, bir qarich tuproq ham ko‘rinmay ketgunicha hamma joyni suv qopladi.

Allohnинг borligini va birligini qabul qilmagan, yomon ishlar qilgan hamma to‘fonda cho‘kib ketdi. Faqatgina Nuh (alayhissalom) va Allohga iymon keltirganlargina qutulib qoldi. Suv asta-sekin kamaydi. Tog‘lar, ovullar qaytadan ko‘rina boshladi. Yer yuzida yangi bir hayot va insoniyat uchun yangi bir davr boshlandi.


“Kitobimni örganyapman” (Osman Özbahçe),
DjB Yayımları, s.62dan soddalashtirib olingan.

Xatm marosimi

Malika tasmalar va gullar bilan bezatilgan pushti ko'ylagini sevinch bilan kiyar ekan onasining ovozini eshitdi.

Onasi:

- Tezroq bo'l qizim, bo'lmasa o'z xatm marosimingga kech qolasan, - dedi.



Onasining gapi Malikaning quvonchini va hayajonini yanada orttirdi.

Ha, bugun Malikaning necha oydan beri kutayotgan xatm marosimi kuni edi. Onasi bilan birga Qur'on kursiga borganlarida butun qarindoshlari, qo'shnilar va sevimli Zaynab ustozи eshikda uni kutib turishardi. Sinf rangli pufak va gullar bilan bezatilgan. Malika bu manzaraga hayratlanib, "Bularning barchasi men uchunmi?" deb so'radi.

Zaynab ustoz:

- Ha Malika, bularning bari sen uchun. Chunki bugun sening xatm kuning. Xatm – Qur'oni karimni boshidan oxirigacha o'qish, demakdir. Sen ham Qur'onnini boshidan oxirigacha o'qib xatm qilding, - deb javob berdi.

Zaynab ustoz Malikaning qo'lidan ushlab, stolning yonidagi oq gullar bilan bezatilgan stulga o'tirg'izdi. Malika Zaynab ustozning "Boshla!" so'zi bilan Qur'on o'qishni boshladи. Qur'on o'qir ekan, ustozи bu maxsus kun uchun tayyorgarlik paytidagi oralarida bo'lib o'tgan suhabatni eslab tabassum qildi.

Bir necha kun oldin Zaynab ustoz Malikaga, "Xatm marosimiga oz qoldi. Mehmonlar sendan Qur'on tilovat qilishingni istashadi. Birgalikda ashr ustida ishlaylik", degandi. Malika esa hayron bo'lib, "Ashr nima, ustoz?" – deya so'ragandi. Zaynab ustoz ashрning nima ekanligini tushuntirib berdi. Ashr – ma'lum bir mavzuni ochiqlagan oyatlar majmuasidir. Shundan keyin xatm marosimida o'qiladigan ashrni belgilab olib har kuni tayyorgarlik ko'rdilar. Mana, hozir Malika chiroylı ovozi bilan ashr o'qimoqda. Malika Qur'on o'qishni tugatgandan keyin hamma uni tabrikлadi va ustozи boshiga toj kiydirdi. Dugonasi Humayro:

- Inshaalloh tez orada hammamizning xatm marosimimiz bo'ladi. Men ham o'ttizinchi, ya'ni oxirgi poradaman, dedi.

Zaynab ustoz esa:

– Ha, to‘g‘ri, Humayro, sen ham tugatasan inshaalloh. Pora, Qur’oni karimning yigirma sahifalik bo‘limlari ekanligini hisobga olsak, sen uchun yigirmadan boshlab orqaga sanashni boshlasak ham bo‘ladi, – dedi.

Ularning gaplarini eshitgan Hojar:

– Ustoz, Qur’oni karimni o‘qiganda har sahifada gulga o‘xshash shakllarni ko‘raman. Bularning nima ekanligini hech tushunmadim, – deb gapga aralashdi.

Zaynab ustoz tabassum qilib:

– Ofarin, judayam diqqatli ekansan! Qur’oni karimdagи har bir jumlaga “oyat” deyiladi. Sen ko‘rgan gul shaklidagi ishoralar bir oyatning tugaganini bildiradi. Oyatlardan iborat bo‘limlarga esa “sura” deyilishini bilasiz. Sizlar bilan kursimizda juda ko‘p sura o‘rgandik, shunday emasmi? – deb so‘radi.


Sinfdagilar hammasi bir og‘izdan: “Haaaa!” – deb javob berdi.

Xatm dasturi judayam ajoyib o‘tdi. Dasturning oxirida Malikaning onasi va do‘stingarning tayyorlagan tort, shirinliklar va somsalar yeyildi. Uyga ketayotganda onasi:

– Bu yil Ramazon muqobalasida sen ham biz bilan Qur’on o‘qiysan endi qizim, – dedi. Malika muqobala nima ekanligini bilmaganligi uchun xayron bo‘lib onasiga qaradi. Onasi buni tushunib: “Muqobala – Qur’oni karimni biri o‘qib, qolganlarning esa uni kitobdan qarab borishiga aytildi. Sen so‘ramasingdan oldin men javob bera qolay dedim!” – deb kulishdi.

Malika yaqinlashib kelayotgan Ramazon oyida muqobalaga qatnashish ishtiyoqida bu baxtli kunga yakun yasadi.

- Aziz do‘sstar! Quyidagi katakchalarda hikoyamizda aytilgan atamalarning harflari aralash qilib berilgan. Qani, harflarni joy joyiga qo‘yib qaysi atama ekanligini topaylik-chi.



- Qur’on o‘qishni o‘rganish, seningcha nima uchun muhim? Sen ham xatm tushirishni va buni marosim qilib qutlashni xohlaysanmi?

Payg‘ambarlarga iymon keltiraman



Payg‘ambarlarga iymon

Alloh insonlarga ham bu dunyoda, ham oxiratda baxt va halovatga erishish yo'llarini ko'rsatadigan rahbarlar yuborgan. Bu rahbarlar "payg‘ambar" deyiladi. Payg‘ambarlar – Allah vazifa yuklagan maxsus insonlardir. Ular hayotning har sohasida bizga o'rnak bo'lishadi, qanday ibodat qilishimizni va qanday qilib yaxshi inson bo'lishimizni o'rgatadi. Qisqasi, ular yaxshilik muallimlaridir.

Odam, Idris, Nuh, Hud, Solih, Ibrohim, Lut, Ismoil, Is'hoq, Yoqub, Yusuf, Shuayb, Muso, Horun, Dovud, Sulaymon, Ayyub, Zulkifl, Yunus, Ilyos, Alyasa', Zakariyyo, Yahyo, Iso alayhissalomlar va Muhammad sollallohu alayhi vasallam Qur'onda ismi kelgan payg‘ambarlardir.

Ilk payg‘ambar – Odam alayhissalom, oxirgi payg‘ambar esa suyukli nabiyimiz Muhammaddir (sollallohu alayhi va sallam). Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) butun insonlarga mehr-shafqat manbai, rahbar va bashoratchi o'laroq yuborilganlar.

Qani, bilasizmi?

Ulardir bizga rahbar,
Haqdan keltirar xabar!
Yaxshilik muallimi,
Jannat bilan sevintirar.

PAYG'AMBARLARNING XUSUSIYATLARI

- » **Sidq** – “to‘g‘rilik” demakdir. Payg‘ambarlar doim rost gapirgan, to‘g‘riso‘z insonlardir.
- » **Omonat** – “ishonchli bo‘lish” demakdir. Payg‘ambarlar aslo xiyonat qilmaydigan, ishonchli insonlardir.
- » **Fatonat** – “aqli bo‘lish” demakdir. Payg‘ambarlar aqli, zukko va tushungan insonlardir.
- » **Ismat** – “asralgan bo‘lish” demakdir. Payg‘ambarlar gunoh ish qilishdan asralgan kishilardir.
- » **Tablig** – “yetkazmoq” deganidir. Payg‘ambarlar Allohdan kelgan ma‘lumotlarni qanday bo‘lsa shunday – o‘zgarishsiz holda insonlarga yetkazgan kishilardir.

- » Ilk inson va ilk payg‘ambar:

Odam (alayhissalom)

- » Oxirgi payg‘ambar:

Muhammad (sollallohu alayhi va sallam)

- » Tavrot ismli muqaddas kitob tushirilgan payg‘ambar:

Muso (alayhissalom)

- » Injil ismli muqaddas kitob tushirilgan payg‘ambar:

Iso (alayhissalom)

- » Zabur ismli muqaddas kitob tushirilgan payg‘ambar:

Dovud (alayhissalom)



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- “Amin”, ya’ni ishonchli bo‘lish nega muhim? Ishonchli insonlar qanaqa xususiyatlarga ega?
- Payg‘ambarimizning yigitlik paytlarida nega Muhammad – Amin deb hurmat qozonganlarini o‘rganaylik.

Nil daryosiga tashlangan chaqaloq


Misr hukmdori Fir'avn bir kecha tushida olov uning taxtini yer bilan bitta qilganini ko'rdi. Atrofidagi insonlar bu tushni tug'ilajak o'g'il bolalardan biri Fir'avnni taxtdan tushirishi shaklida ta'bir qilishdi. Shuning uchun, Fir'avn shu yili tug'ilgan barcha o'g'il bolalarni o'ldirishni buyurdi.

Muso ham shu yili tug'ilgan chaqaloqlardan biri edi. Shuning uchun uning ham hayoti tahlika ostida edi. Musoning onasi bolasining hayotini qanday qilib asrab qolishni o'ylab turgan paytda Alloh: "Uni emizaver. Bas, unga yomonlik yetishidan qo'rqqan chog'ingda uni daryoga tashla, qo'rhma, xafa bo'lma. Biz, albatta, uni senga qaytarguvchimiz", (Qosos surasi, 7-oyat) – deb vahiy qildi.

Onasi chaqalog'ini mehr bilan emizdi. O'pdi va uni Robbiga omonat qilib bir beshik ichida Nil daryosiga tashladi. Musoning opasi hali kichkina edi. Suv ustida suzib ketayotgan beshikni orqasidan ta'qib qildi. Daryoning oqimi bo'ylab suzgan beshik Fir'avnning saroyiga kelib qoldi. Fir'avnning xotini Osiyo shu paytda daryo bo'yida aylanib yurardi. U daryoda suzib kelgan beshikka ko'zi tushdi va ustini o'rab turgan yoping'ichni ochdi. Qarasa, juda chiroyli bir chaqaloq, dunyodan bexabar uxbab yotardi. O'sha zahoti chaqaloqni bag'riga oldi. O'z bolasidek qalbi bir zumda unda ilidi. Fir'avnning yoniga bordi va barchasini aytib, unga yomonlik qilmasligini iltimos qildi.

Fir'avnning roziligi bilan Muso saroyda yashay boshladgi. Ammo chaqaloqning sog'lom o'shishi uchun ona sutiga ehtiyoji bor edi. Mamlakatning har tomoniga sut ona izlanayotganligining xabari tarqatildi. Lekin chaqaloq kelgan sut onalarning hech birini emmayotgan edi. Musoning opasi saroyga kelib, chaqaloqni emizadigan bir ayolni bilishini aytdi. Shunday qilib, Musoning o'z onasi saroyga uni emizish uchun chaqirildi. Bola o'z onasini ema boshladgi. Bu ayol Musoning haqiqiy onasi ekanligini hech kim bilmas edi. Ammo Alloh tavakkul va sabr qilgan onani bolasiga qovushtirgan edi. Shunday qilib, Muso Fir'avnning saroyida o'z onasi bilan birga o'sdi.

Muso rostgo'yligi va go'zal axloqi bilan atrofidagi insonlarning hurmatini qozongan yosh yigit bo'ldi. Birozdan keyin esa Alloh Musoni payg'ambar o'laroq vazifalantirdi va undan zolim hukmdor Fir'avnning yoniga borib, dinini



tushuntirishini istadi. Muso (alayhissalom) o'zi kabi payg'ambar bo'lgan ukasi Horun (alayhissalom) bilan birga Fir'avnning yoniga bordi. Uni, Allohning borligini va birligini tanishga, faqatgina Allohga iymon keltirishga chaqirdi. Ammo Fir'avn bu chaqiriqni rad qildi. Musoga (alayhissalom) payg'ambarligini isbotlashi uchun bir mo'jiza ko'rsatishi kerakligini aytdi.

Alloh Musoga qo'lidagi asoni yerga tashlashini aytdi. Aso yerga tushib ilonga aylandi. Fir'avn buni sehr deb o'yładi va darrov sehrbozlarini chaqirib, ularga: "Darhol Musoning sehrini buzing!" – deb buyruq berdi. Sehrbozlar butun hunarlarini ko'rsatishdi. Arqon va daraxt novdalarining ilondek yerda sudralishini ko'rsatib sehr qildilar. Ammo Musoning (alayhissalom) hassasi barcha sehrlarni yutdi va yo'q qildi. Sehrbozlar Musoning (alayhissalom) qilgan ishi sehr emas, inson bolasi qilolmaydigan ajoyibot ekanligiga, Allohdan bir mo'jiza ekanligiga amin bo'lib, Allohga iymon keltirdilar. Faqat Fir'avn iymon keltirmadi. Allohga iymon keltirgan sehrbozlarni bu ishlari uchun jazoladi.

Muso (alayhissalom) xalqi bilan Misrdan ketishga qaror qildi. Buni eshitgan Fir'avn ularni o'ldirish uchun askarlari bilan orqasidan yo'lga tushdi va Qizil dengiz yoqasida ularga yetishdi.

Muso (alayhissalom) Allohga unga yordam berishi uchun duo qildi. Alloh unga qo'lidagi aso bilan dengizga urishini buyurdi. Aso bilan dengizga urganida dengiz ikkiga bo'lindi. Shunda Muso (alayhissalom) va yonidagilar dengizdan narigi tarafga ochilgan yo'ldan o'tib oldilar. Fir'avn va askarlari ham bu yo'ldan orqalaridan kelayotganlarida esa, dengiz qayta birlashdi. Natijada, Fir'avn va askarlari dengizda cho'kib vafot etishdi. Shunday qilib, Alloh O'ziga iymon keltirganlarni inkor etganlarning yomonliklaridan asradi.

Payg'ambarlarning xususiyatlari



Do'stlar,

payg'ambarlarning 5 ta asosiy xususiyati bor. Bu xususiyatlar qaysilar ekanligini quyidagi yordamchi savollar orqali toping.

4

Payg'ambarlarning
gunoh ish qilishdan
asralganliklariga nima deyiladi?

5

Payg'ambarlarning,
Allohning so'zlarini
insonlarga yetkazishlariga nima
deyiladi?

2

Payg'ambarlarning
ishonchli bo'lishlariga nima
deyiladi?

3

Payg'ambarlarning
har doim to'g'riso'z
bo'lishlariga nima deyiladi?

1

Payg'ambarlarning
o'ta aqlli, zukko
bo'lishlariga nima deyiladi?

2
a

4
t

3
F

5
b

1
S

So'z ovi



Aziz do'stlar!

Topishmog'imizda muqaddas kitoblarning va yuborilgan payg'ambarlarning ismlari yashiringan. Qani, topgan kitob va payg'ambarlaringizni bir-biriga mos tarzda yozingchi!

M	Z	K	I	Y	E	Z	T	E	SH
F	U	M	U	S	O	A	A	R	Q
H	Y	H	K	L	T	B	N	T	U
J	H	L	A	O'	CH	U	CH	O	R'
K	O'	I	U	M	F	R	O'	T	O
L	S	R	I	P	M	T	G'	A	N
O	N	T	O	G'	K	A	S	V	B
H	B	Y	P	O'	S	Z	D	R	O'
D	U	V	O	D	D	V	Z	O	J
T	U	I	N	J	I	L	S	T	SH

Ilohiy kitoblar

- 1
- 2
- 3
- 4

Payg'ambarlar

- 1
- 2
- 3
- 4

Oxirat hayotiga iymon keltiraman



Oxiratga iymon

Jonzotlar tug‘iladi, yashaydi va o‘ladi. Ammo o‘lim hammasi tugadi, degani emas. Chunki o‘limdan keyin yangi va boshqacha bir hayot boshlanadi. Bu hayot “oxirat hayoti” deyiladi. Oxirat hayoti dunyoda qilingan barcha yaxshi va yomon ishlarning natijasi olinadigan joydir. Allohga iymon keltirganlar va yaxshi ish qilganlar oxiratda jannatga kiradilar. U yerda inson istashi mumkin bo‘lgan har turli go‘zallik bor. Allohga va oxirat hayotiga iymon keltirmaganlar, yomonliklar bilan hayotini o‘tkazganlar esa jahannamda jazosini oladilar.

Islom – tinchlik, halovat va go‘zallik dinidir. Dinimizning, dunyo va oxiratda baxtli bo‘lishimiz uchun qonun-qoidalari bor. Qilgan ibodatlarimizning mukofotini faqatgina oxiratda emas, bu dunyoda ham olamiz. Tahorat olib tozalanamiz. Ro‘za tutib sog‘lom bo‘lamiz. Namoz o‘qib huzur qilamiz. Robbimiz bu dunyoda qilgan yaxshi ishlarimiz uchun oxiratda jannat va muhtasham mukofotlar beradi. Shunday qilib, dunyodagi baxtiyorligimiz oxiratda ham davom etadi. Yomonliklardan tiyilmagan, insofsiz va iymonsiz insonlar esa, albatta, qilgan ishlarining jazosini olishadi. Alloh zolimlarni aslo sevmaydi. Shu sababdan, dunyoda tirik ekanmiz, yaxshiliklar qilishimiz va har qanday yomonliklardan uzoq turishimiz kerak.

Bir hadis o‘rganaman

“Jannatda hech qaysi ko‘z ko‘rmagan, hech qaysi quloq eshitmagan, hech kimning aqliga ham kelmagan ne’matlar bor”.

Bir oyat o'rganaman

"Alloh: "Bu kun, rostgo'ylarga
rostgo'yliklari manfaat beradigan kun.
Ularga ostidan suvlar oqib turgan
jannatlar bor, unda abadiy-boqiy
qolurlar. Alloh ulardan rozi bo'ldi.
Ular Allohdan rozi bo'ldi. Bu esa, ulug'
yutuqdir", – dedi"

(Moida surasi, 119-oyat).

Yaxshiyam oxirat bor

Haqiqatki, o'lim bor,
Senga mujdali so'zim bor!
Yaxshilik qil, o'ksinma,
Boqiy hayot – yo'ling bor!



O'ylaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- Nima deb o'ylaysan, jannat qanday joy? Jannatda nimalar bo'lishini xohlaysan? Qur'onda va hadislarda jannat bashorati berilgan insonlar borligini bilasanmi? Ularning xususiyatlarini o'rganaylik va do'stlarimizga o'rgataylik.

- "Yaxshiyam, oxirat bor! Oxirat bo'lmaganda-chi?"
Oxirat hayotiga ishonish, seningcha, nega muhim?

Qadar va qazoga iymon keltiraman



Qadar va qazoga iymon

Alloh yaratgan har bir narsada go'zallik bor. Bu go'zallik ba'zan birdaniga, ba'zan esa keyinroq ko'zga tashlanadi. Misol uchun, qor yoqqanda yo'llar yopilishi, elektr toki uzilishi mumkin. Ba'zi insonlar buni ko'rib darrov nola qiladi va: "Qayerdan ham qor yog'di-ya!" – deydi.

Qish mavsumi tugaydi. Bahor keladi. Qishda yog'ingarchilik yaxshi bo'lganligi uchun qorlar erib, suvlar ko'payadi. Ariqlarda suvlar toshib oqadi. Bahorning go'zalligi boshqacha... Qir-adirlar, bog'lar rang-barang. Daraxtlar gullaydi. Qushlar, arilar, kapalaklar nash'a bilan uchishadi. Taomlar barakatlanadi. Ana shunda inson: "Alloh yaxshiyam qor yog'diribdi. Aks holda suvsiz qolardik!" – deb o'ylaydi. Allohga shukr qiladi.

Gul urug'lari tuproqqa ko'miladi. Tuproqning tagida qorong'ilikda qoladi. Bu uning uchun yomon bo'ldi, nafas ololmay chirib ketadi, deb o'ylaymiz. Oradan vaqt o'tadi. Tuproqdan novda chiqqanini ko'ramiz va biz o'ylagandek emasligini tushunib yetamiz.

Hayotda ham bizga yoqmagan narsalar bo'lishi mumkin. Ammo bu holat biz uchun, balki, yaxshi ekanligini, yaxshi natijalar olib kelishi mumkinligini bilmaymiz. Masalan, sovuq kunlarda issiq kiyinmasak, kasal bo'lamiz.

Ammo bu xastalik bizga sog'lig'imizning qadrini, bundan keyin ehtiyyot bo'lishimiz kerakligini o'rgatadi.

Shunday ekan, natijasini to'liq bilmagan hodisalar haqida birdaniga manfiy xulosalar chiqarmaylik. Tezkor qaror qabul qilmaylik. Har bir narsa Allohnинг xohishi va Uning boshqaruvi bilan bo'lishini unutmaylik. Alloh hamma narsani ko'ruchchi va biluvchidir.

Alloh nima desa, o'sha bo'ladi. Alloh o'tmishda bo'lganlarni bilgani kabi, kelajakda nima bo'lishini ham biladi. Alloh har bir narsaning eng yaxshisini, eng xayrlisini biladi. Biz Alloh bergen aql va yuborgan ilmlar yordamida eng to'g'risini qilishga harakat qilamiz. Natijamiz omadli bo'lishi uchun duo qilamiz. Chunki omad Allohnинг yordami bilan qo'lga kiritiladi. Qo'limizdan kelganini qilamiz va Alloh biz bilan bog'liq har doim eng xayrlisini yaratishiga ishonamiz.

Allohnинг o'tmish va kelajakdagi hamma narsani bilishiga "qadar", hodisalarning vaqtি-soati kelib amalga oshishiga esa "qazo" deyiladi. Qadar va qazoga ishongan inson Allohnинг hamma narsani bilishiga, Undan bexabar bir dona barg ham qimirlamasligiga ishonadi, shuning bilan birga zimmasiga yuklangan mas'uliyatni unutmasligi kerak. Yaxshilikning orqasidan yuguradi va aslo erinchoqlik qilmaydi.

Omadli bo'lganida Allohga shukr qiladi. Xohlaganidek bo'lmanida esa aslo umidsizlikka tushmaydi, yanada ko'p o'z ustida ishlaydi.

Qadar va qazo

Yaratgan har narsani bilar,
Kelgan doim o'lchov-la kelar,
Buni sezgan huzur topar,
Qo'rquvlaridan qutular.

Nazorat savollari

1. Islomning shartlari qaysi variantda to'g'ri ko'satilgan?

a) Kalimai shahodat keltirish

Namoz o'qish

Ro'za tutish

Zakot berish

Hajga borish

b) Namoz o'qish

Zakot berish

Ro'za tutish

Qazo va qadarga iymon keltirish

c) Kalimai shahodat keltirish

Namoz o'qish

Zakot berish

Qurbanlik so'yish

d) Kalimai shahodat keltirish

Namoz o'qish

Sadaqa berish

Zakot berish

Hajga borish

2. Allohnинг insonlarga foydalanishi uchun bergen narsalari nima deyiladi?

a) Ichimlik

b) Ne'mat

c) Mukofot

d) Taom

3. Ilymonning shartlari qaysi variantda to'g'ri berilgan?

a) Allohga iymon keltirish

Kitoblarga iymon keltirish

Payg'ambarlarga iymon keltirish

Qazo va qadarga iymon keltirish

Hajga borish

b) Allohga iymon keltirish

Farishtalarga iymon keltirish

Kitoblarga iymon keltirish

Payg'ambarlarga iymon keltirish

Oxirat kuniga iymon keltirish

Qazo va qadarga iymon keltirish

c) Allohga iymon keltirish

Farishtalarga iymon keltirish

Kitoblarga iymon keltirish

Payg'ambarlarga iymon keltirish

Zakot berish

Oxiratga iymon keltirish

d) Allohga iymon keltirish

Farishtalarga iymon keltirish

Yaxshilik qilish

Payg'ambarlarga iymon keltirish

Oxirat kuniga iymon keltirish

Qazo va qadarga iymon keltirish

4. Allohdan olgan "vahiy" nomli ma'lumotlarni payg'ambarlarga yetkazish bilan vazifalantirilgan farishta quyidagilardan qaysi biri?

a) Mikoil

b) Jabroil

c) Azroil

d) Isrofil

5. "O'lim farishtasi", deb ham ataladigan farishta quyidagilardan qaysi biri?

- (a) Mikoil (b) Isrofil
(c) Jabroil (d) Azroil

6. Surga puflab, dunyo hayotining tugaganligini xabar beradigan farishta quyidagilardan qaysi biri?

- (a) Jabroil (b) Mikoil
(c) Isrofil (d) Azroil

7. Farishtalar haqida quyidagi gaplardan qaysi biri noto'g'ri?

- (a) Xato qilishmaydi.
(b) Har doim yaxshi va xayrlı ishlar qilishadi.
(c) Yeb-ichish va uxlashga ehtiyojlari yo'q.
(d) Faqatgina jannatda yashashadi.

8. To'rt muqaddas kitob ular yuborilgan payg'ambarlar birgalikda keltirildi. Bularning qaysi biri noto'g'ri?

- (a) Zabur – Sulaymon alayhissalom
(b) Injil – Iso alayhissalom
(c) Qur'on – Muhammad payg'ambarimiz sav
(d) Tavrot – Muso alayhissalom

9. Quyidagilardan qaysi biri kitob tushirilgan payg'ambarlardan biridir?

- (a) Yusuf alayhissalom
(b) Dovud alayhissalom

- (c) Zakariyo alayhissalom
(d) Yahyo alayhissalom

10. Qur'oni karimning ilk oyati quyidagilardan qaysi biri?

- (a) O'qi!
(b) Yoz!
(c) Ro'za tut!
(d) Duo qil!!

11. Muqaddas kitobimiz Qur'oni karim, payg'ambarimiz Muhammadga (sollallohu alayhi va sallam) qachon tushirilishni boshlagan?

- (a) 571
(b) 610
(c) 622
(d) 632

12. Qur'oni karimning eng qisqa va eng uzun suralari qaysi variantda berilgan?

- (a) Nas – Fotiha (b) Ixlos – Kavsar
(c) Kavsar – Baqara (d) Asr – Fotiha

13. Qur'oni karimda nechta sura bor?

- (a) 124
(b) 200
(c) 520
(d) 114

14. Birinchi va oxirgi payg'ambar quyidagilardan qaysi birida to'g'ri berilgan?

- a Odam alayhissalom – Solih alayhissalom
- b Odam alayhissalom – Muhammad sollallohu alayhi vasallam
- c Ibrohim alayhissalom – Muhammad sollallohu alayhi vasallam
- d Nuh alayhissalom – Ayyub alayhissalom

15. Qur'oni karimni boshdan oxirigacha yod olgan kishiga nima deyiladi?

- a xo'ja
- b hofiz
- c imom
- d muazzin

16. Qur'oni karimni boshdan oxirigacha o'qishga nima deyiladi?

- a hofizlik
- b sura
- c xatm
- d juz

17. Payg'ambarlarning xususiyatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan qaysi biri noto'g'ri?

- a sidq – eshittirmoq
- b omonat – ishonchli bo'lmoq
- c fatonat – aqli bo'lmoq
- d ismat – asralgan bo'lmoq

18. Payg'ambarlarning xususiyatlari bilan bog'liq ma'lumotlardan qaysi biri noto'g'ri?

- a tablig' – Allohdan olgan buyruqlarni xuddi o'zidek yetkazish
- b) sidq – to'g'ri va rostgo'y bo'lish
- c) ismat – asralgan bo'lish
- d) omonat – aqli va zukko bo'lish

19. Dunyo hayoti tugagandan keyin boshlanadigan hayotga nima deyiladi?

- a qadar
- b koinot
- c olam
- d oxirat

Ibodat

Ibodatlarimni o'rganaman

- 52 Ibodatning ma'nosini va turlarini o'rganaman
- 58 Masjid va azonni o'rganaman
- 63 Namozning farzlarini o'rganaman
- 72 Namoz o'qiyman
- 88 Ro'za tutaman
- 103 Zakotni o'rganaman
- 107 Hajni o'rganaman
- 109 Duo qilaman

Ibodatning ma'nosini va turlarini o'rghanaman



Ibodat nima?

Ibodat – bajarilganda Allohnинг sevgisiga erishiladigan har qanday so‘z va amallardir. Tahorat olish, Qur'on o‘qish, namoz o‘qish, ro‘za tutish, zakot berish, hajga borish, qurbanlik so‘yish, salavot aytish ibodat bo‘lgani kabi yaxshi so‘z aytish, ota-onा va kattalarni hurmat qilish, insonlarni yaxshilik qilishga chaqirish va yomonlikdan qaytarish ham ibodatlardan biridir. Hatto, yo‘lda yotgan insonlarga ozor beradigan narsani olib qo‘yish, tabassum qilish, yo‘l so‘ragan kishiga yo‘l ko‘rsatish, keksalarga yordam berish, atrof-muhitni toza tutish va salom berish ham ibodatdir.

Inidan tushib qolgan qush bolasini iniga qo‘yish, ko‘zlarì ko‘rmaydigan kishining qo‘lidan tutib yo‘lning qarshi tarafiga o‘tishiga yordam berish, mas’uliyatlarimizni bajarish, bemorlarni



ziyorat qilish, suvsagan hayvonga suv va taom berish ham ibodatdir.

Qisqasi, hayotimizni go'zallashtirib, insonlarni xursand qilar ekan, Allohning roziligidagi erishishimizga sababchi bo'lgan har qanday ish va harakat ibodatdir. Mukofoti savobdir.

Ibodatlarning o'z bajaralish shakli va shartlari bor. Masalan, namoz o'qish uchun tahorat olamiz va namoz vaqtini kirishini kutamiz. Ramazon ro'zasini ramazon oyida tutamiz. Zakotni ma'lum mulkdan ma'lum miqdorda beramiz. Ibodatlarimizning ba'zilarini badanimiz bilan, ba'zilarini esa moddiy imkonlarimizdan foydalanib bajaramiz.

BILASIZMI?

- » Qilishimiz shart bo'lgan ibodatlar "farz" deyiladi.
- » Qilinishi va yeyish-ichish man qilinmagan narsalar "halol" deyiladi.
- » Qilinishi va yeyish-ichish keskin man qilingan narsalar "harom" deyiladi.
- » Payg'ambarimizning so'z va harakatlariga, axloq va hayot tarzi "sunnat" deyiladi.
- » Ibodatlarimiz va yaxshi amallarimiz uchun Robbimizning bizga bergan mukofoti "savob" deyiladi.
- » Dinimiz man qilgan amallar "gunoh" deyiladi.
- » Alloh toza va inson sog'lig'iga foydali bo'lgan narsalarni halol, yomon va zararli bo'lgan narsalarni esa harom qilgan.




Shukrlar bo'lsin, Robbim!

Biz, musulmonlar, Robbimizni judayam sevamiz. Unga bo'lgan muhabbatimizni, hurmatimizni va shukrimizni ifoda etish uchun ibodat qilamiz. Bizni yaratgan, yashatgan, bizga sanoqsiz ne'matlar hadya qilgan Robbimizga ibodatlarimiz bilan, duolarimiz bilan shukr qilamiz. Shu bilan bir qatorda, ibodatlarimiz xulq-atvorimizni ham go'zallashtiradi. Bir-birimizga nisbatan to'g'ri tushunchali, sabr-toqatli, adolatli, mehribon va rahmdil bo'lishimizni ta'minlaydi. Jamiyat o'laroq birligimizni va barobarligimizni quvvatlantiradi, bir-birimizni tushunishimizga va yaqin do'st bo'lishimizga sababchi bo'ladi. Natijada, biz go'zallashganimiz sari hayot ham go'zallahib boraveradi.

Robbimizga bergan ne'matlari uchun "Alhamdulillah" deb, qalbimiz bilan shukr qilamiz. Namoz o'qish, ro'za tutish ibodatlarini bajarib, badanimiz bilan shukr qilamiz. Biz muhtojlarga, kambag'allarga, uysizlarga va muhojirlarga yordamga shoshilib, zakot va sadaqa berib, mol-mulkimiz ila shukr qilamiz. Biz musulmon birodarlarimiz bilan birga ibodat va duo qilish uchun Ka'bani ziyorat qilib, ham molimiz bilan, ham badanimiz bilan shukr qilamiz.

Ovqatlanishdan oldin
"Bismillahir rohmanir rohiym"
deyman, Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi
va sallam) sunnatini bajaraman.

Ovqatlanib bo'lgandan keyin **"Alhamdulillah"**
deyman, yana Payg'ambarimizning (sollallohu
alayhi va sallam) sunnatiga amal qilgan bo'laman.
Shu tarzda Habibimizdan (sollallohu alayhi va
sallam) o'rnak olgan, uning kabi
harakat qilgan bo'laman.





Ibodatning foydalari

Ibodatlarning ham tanamiz, ham ruhimiz sog'ligiga juda muhim ta'sirlari bor.

Namoz o'qishdan oldin tahirat olamiz – bu bilan poklanamiz.

Namoz o'qiganda qalbimiz huzur va ishonch tuyg'usi bilan qoplanadi. Poklanamiz, o'zimizni Robbimizga yanada yaqin his qilamiz.


Ro'za tutganimizda vujudimizdagi a'zolarni dam oldirgan bo'lamiz. Bundan tashqari, ro'za shafqat va rahmdillik tuyg'ularimizni ham kuchaytiradi, bizni sabr qilishga va qo'limizdagi ne'matlarni bo'lishishga o'rgatadi. Zakot ham bo'lishish tuyg'umizni kuchaytiradi, jamiyatda birlik va barobarlikni ta'minlaydi.

Zakot bergen kishi musulmon birodarining ahvolini his qilganligi va unga yordam bergenligi uchun baxtiyor bo'lsa, zakot olgan kishi esa ehtiyojini qondirgan bo'ladi.

Haj ibodati esa, dunyoning istalgan nuqtasidan Ka'baga kelgan musulmonlarning birodarligini ta'minlaydi. Rangi va tillari turfa, yosh-u qari, erkag-u ayol – barcha musulmonlar Ka'bada uchrashishadi. Ehrom kiyimi bo'lgan oq matoda barchasi Alloh huzurida teng bo'ladi.

Bular ibodatlarning bizga keltiradigan foydalaridan ba'zilaridir. Ibodat qilish bizni tarbiyalaydi, hayotimizni tartibga soladi, Robbimiz va atrofimizdagi insonlar bilan munosabatlarimizni yaxshilaydi, axloqimizni go'zallashtiradi. Ibodat qilgan inson sog'lom, baxtli, kuchli va o'ziga ishongan bo'ladi.

Hayotimizni go'zallashtirgan ibodatlarni qilishimizni Alloh istagan. Shuning uchun, ibodatlarni faqatgina bu foydalarni qo'lga kiritish uchun emas, balki, Allohnинг roziligini va sevgisini qozonish uchun qilamiz.



Suyunchi bor!

Faqatgina Alloh roziligiga erishish uchun samimiyligida ibodat qilganlar insonga yoqadigan nima bo'lsa barchasi mavjud bo'lgan, tengsiz go'zalliklar bilan to'lib toshgan jannat bilan bashoratlanganlar.

Bir oyat o'rganaman

"Iymon keltirib, yaxshi amallar qilganlarni jannatdan ostidan anhorlar oqib turgan oliymaqom joylarga joylashtiramiz. U yerda abadiy qolurlar. Amal qilguvchilarning ajri qanday ham yaxshi!"

(Ankabut surasi, 58-oyat)

Bir hadis o'rganaman

"Kimki Robbi o'laroq Allohnini, din o'laroq Islomni, payg'ambar o'laroq Muhammadni (sollallohu alayhi va sallam) qalbdan tasdiqlasa, aniq jannatga kiradi!".

Bir oyat o'rganaman

"Albatta, iymon keltirib, yaxshi amallarni qilganlarni Allah ostidan anhorlar oqib turgan jannatlarga kiritur. Ular u yerda oltin bilakuzuklar va injular ila bezanurlar. U yerdagi liboslari esa ipakdandir".

(Haj surasi, 23-oyat)

Bo'sh joyga qaysi qo'yiladi?



Qani do'stlar,

quyidagi jummalarda kamchiliklar bor. Bo'sh qolgan joylarga mos so'zlarni joylashtiring!.

Sunnat

Qiblaga

Ibodatdir

Halol

Musulmon

Tahorat

Harom

1. Allohga iymon keltirgan, unga ishongan kishi _____ deyiladi.
2. Har qanday yaxshi amal _____
3. Suyukli Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) butun xatti-harakatlari _____ deyiladi.
4. Namoz o'qish uchun _____ olishimiz kerak.
5. Namoz o'qiyotganda _____ qaragan holda turamiz.
6. Alloh pok va inson sog'lig'i uchun foydali narsalarni _____, yomon va zararli bo'lgan narsalarni _____ qilgandir.

Masjid va azonni o'rganaman



Masjid va qismlari

Masjidlar – bиргалашиб ibodat qиладиган joyларимизdir. Masjidni ziyorat qилиш bizга rohat bag‘ishlaydi va qalbимizni huzur bilan to‘ldiradi. Masjidlar namoz o‘qilib, duo qилиниши bilan bir qatorda, xutba, va’az va suhabatlar ham o‘tkазилядиган ilм markazi hisobланади.

Bizлarni bir joyga jamlagan masjidlar birgalikda sajda qиладиганимiz, ayni qibлага qarayдиганимiz va bir yurak bo‘lib Allohga yolvорадиганимiz makонлардир. Shuning uchun, masjidлarni juda chiroyli qilib qurishади va asrab-avaylashади. Ularni har doim toza tutamiz.

Hayit va juma namozларини har doim masjidда, kunlik namozларни esa iloji boricha masjidлarda jamoat bilan o‘qishga harакат qиламиз. Chunki, namozларимизни masjidда o‘qish Payg‘ambarимизning (sollallohu alayhi va sallam) sunnatидir. Bir safda musulmon birodарларимиз bilan yelkama-yelka turib ibodat qилиш bizга ulkan baxt va ishonch bag‘ishlaydi.

Masjidлarning mehrob, minbar, kursi, qubba va minora kabi qismlari bor. Imomлarning namoz o‘qiyдigan joyi “mehrob”, juma va hayit namozларida xutba o‘qиладиган joy esa “minbar” deyiladi. Va’z va suhabat qилинадиган joy “kursi”, masjidning yarim aylana shaklidagi tomi “qubba”dir. Azon o‘qиладиган joy “minora”, masjidлarning hovlisидаги tahorat olish uchun mo‘ljallangan hovuzлар “shодirvon” hisobланади.

Bilasizmi?


Masjidда imomлarning namoz o‘qittirадиган joyi “mehrob” deyiladi.

Bilasizmi?

Masjidда namozларни o‘qитадиган, xutba o‘qiyдigan va diniy bilim berадиган kishi “imom”, azon o‘qiyдigan kishi esa “muazzin” deyiladi.



Mehrob



Minbar




Minora



Shodirvon



Kursi



Qubba



Azon bizni namozga chaqiradi

Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va musulmonlar Makkadan Madinaga hijrat qilishgandi. Musulmonlarning soni Madinada kundan kunga ortti. Payg‘ambarimizning yonidagilar kundalik hayotlarini va ibodatlarini kamchiliksiz bajarar, namoz o‘qiladigan vaqtlarni quyoshning joylashuviga qarab belgilar edilar. Ammo har xil vaqtarda kelganlari bois masjidda birgalashib namoz o‘qiy olishmasdi.

Payg‘ambarimiz esa masjidda jamoat bilan namoz o‘qishning qanchalik muhim ekanligini aytardi. Musulmonlarga namoz vaqtlarini bildirish va ularni ibodatga chaqirish uchun barcha uchun tushunarli bir ishoratga ehtiyoj tug‘ildi. Olov yoqsalarmi? Qo‘ng‘iroq chalish kerakmi? Insonlarni namozga qanday chaqirsa bo‘ladi?

Bu masalaning yechimi sahoba Abdulloh ibn Zayd (roziyallohu anhu) va boshqa bir qancha kishilarning tushlariga kirdi. Abdullohga tushida azonning so‘zлari o‘rgatilgandi. Ko‘rgan tushini aytib berish uchun tezda Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam)

yonlariga keldi. Payg“ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) azonning so‘zlarini Bilolga (roziyallohu anhu) o‘rgatishni va azonni Bilol o‘qishini istadi. Chunki Bilolning ovozi ham baland, ham chiroyli edi. Bilol yuqori bir joyga chiqib, ilk azonni o‘qidi. Azonni eshitgan musulmonlar birqalashib namoz o‘qish uchun masjidda yig‘ilishdi. Shu kundan boshlab to bugungacha musulmon tuproqlarida azon jaranglab kelmoqda va inshaalloh qiyomatgacha davom etadi.

Azon ham namozga chaqiriq, ham Allohning birligining, Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) Uning payg“ambari ekanligining e’lonidir. Shu sababdan azonni hurmat qilib eshitamiz va takrorlaymiz.

Azon

Allohu akbar! Allohu akbar!
Allohu akbar! Allohu akbar!
(Alloh buyukdir!)

Ashhadu alla ilaha illalloh!
Ashhadu alla ilaha illalloh!
(Allohdan o‘zga sig‘iniladigan (iloh)
yo‘qligiga guvohlik beraman!)

Ashhadu anna Muhammadar
rasululloh!
Ashhadu anna Muhammadar
rasululloh!
(Muhammad Allohning elchisi
ekaniga guvohlik beraman!)

Hayya ‘alas-solah!
Hayya ‘alas-solah!
(Namozga keling!)

Hayya ‘alal falah!
Hayya ‘alal falah!
(Najotga keling!)

Allohu akbar! Allohu akbar!
(Alloh buyukdir!)
La ilaha illalloh.
(Allohdan o‘zga iloh yo‘q!)



Bilasizmi?

Bomdod azonida “Hayya alal falah” dan keyin “as-salatu xoyrum minan navm” (namoz uyqudan yaxshiroq) deyiladi.

Bilasizmi?

“Iqomat” farz namozlariidan oldin o‘qiladi. Azon bilan bir xildir. Faqatgina iqomatda “hayya alal falah” degandan keyin “qod qomatis solah” deyiladi.

Bir hadis o'rganaman

"Kishining jamoat bilan o'qigan namozi uyida, bozorda o'qigan namozidan yigirma besh baravar ko'paytiriladi. Agar u yaxshilab tahorat qilsa, keyin masjidga chiqsa, faqat namoz (o'qish) uchun chiqqan bo'lsa, bosgan har bir qadami bilan martabasi bir pog'ona ko'tariladi, bitta gunohi o'chiriladi. Qachon namoz o'qisa, modomiki, namozgohida turar ekan, farishtalar: "Yo Alloh, unga salavot ayt. Yo Alloh, unga rahm qil!" deb duo qilib turadi. Sizlardan birortangiz namozni kutib o'tirar ekan, demak, u namozdadir".

Bilasizmi?

Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning o'ng qulog'iga azon, chap qulog'iga iqomat o'qiladi.



O'yaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- O'zingiz yashab turgan hududdagi masjidlar haqida ma'lumot to'plang va o'rtoqlaringizga ham o'rgating.
- Namozni masjidda o'qish bilan uyda o'qish orasida qanday farq bor?
- Masjidlarning jamiyat birligi va barobarligiga hissasi nimalardan iborat?

Masjid va qismlari



Do'stlar!

Quyida masjidning qismlari va ularning ta'riflari berilgan.
Qani, rasm va ta'riflarni mos ravishda birlashtiringchi!



Kursi

Masjidda qibлага qaragan
va imomning namoz
o'qittiradigan joyi.



Minora

Masjid hovlisida insonlarning
tahorat olishi uchun qilingan
maxsus hovuzlardan iborat
makon.



Qubba

Azon o'qiladigan joy



Shodirvon

Mehrobning o'ng qismida
joylashgan, juma va hayit
xutbalari o'qiladigan
zinapoyali qism.



Minbar

Masjidning yarim aylana
shaklidagi tomi



Mehrob

Masjidda va'az va suhabatlar
o'tkaziladigan joy.

- Masjidga ilk marta qachon va kim bilan borganligingni eslay olasanmi?
Nimalarni his qilganding? Masjidning qaysi qismi eng ko'p diqqatingni o'ziga tortdi?
- Uyingizga eng yaqin masjidning nomini bilasanmi?

Namozning farzlarini o'rganaman

Namozga tayyorgarlik

Namoz – Robbimizga bo'lgan sevgimizni, ko'nglimizni doim faol va jonli tutishimizga yordam beradigan ibodatdir. Namoz – dinning asosidir. Namoz insonga huzur bag'ishlaydigan va o'qilishi juda oson bo'lgan ibodatdir.

Namoz o'qishni boshlashdan oldin bajarishimiz kerak bo'lgan ba'zi qoidalar bor. Bulardan birinchisi tahoratl bo'lish. Kiygan kiyimlarimiz namoz o'qish uchun mos bo'lishi va badanimizning "avrat" deb ataladigan joylarini yopishi kerak. Shu bilan birga, namoz o'qiydigan joy va kiyimlarimiz ozoda bo'lishi kerak.

Namozimizni o'qiganda dunyoning qay bir burchagida bo'lishimizdan qat'iy nazar, qiblamiz bo'lmish Ka'baga yuzlanishimiz kerak. Namoz vaqtining kirgan bo'lishi ham shartlardan biridir. Masalan, shom namozini vaqtin kirmasidan o'qiy olmaymiz. Bir kunda besh marotaba o'qilgan azon bizga namoz vaqtining kirganini anglatadi. Namoz o'qish uchun turganimizda Allohning roziligi uchun ibodat qilishga niyat qilamiz va o'qiydigan namozimizning nomini aytamiz.

Yuqoridagi keltirilgan shartlar "namozning tashqarisidagi farzlar" deyiladi.

Shu bilan birga, namoz o'qiyotganda mutlaqo bajarishimiz kerak bo'lgan qoidalar bor. Bularga esa "namozning ichidagi farzlar" deyiladi.

Namozning tashqarisidagi farzlar

1. Tahorat olish
(Hadasdan tahorat)
2. Namoz o'qiladigan joyning va kiyimizning toza bo'lishi
(najosatdan tahorat)
3. Yopilishi kerak bo'lgan joylarni yopish
(satri avrat)
4. Qiblaga yo'nalmoq
(istiqboli qibla)
5. Namoz vaqtining kirgan bo'lishi
(vaqt)
6. Alloh roziligi uchun qaysi namozni o'qishimizni aytish
(niyat)

Namozning ichidagi farzlar

1. Namozni "Allahu Akbar" deb boshlash
(iftitoh takbiri)
2. Namozda tik turish
(qiyom)
3. Namozda Qur'on o'qish
(Qiroat)
4. Namozda qo'llarni tizzaga qo'yib egilish
(Ruku)
5. Namozda peshonani yerga qo'yish
(Sajda)
6. Namozning oxirida "attahiyatu" duosini o'qish vaqticha o'tirish
(qa'dai oxir)



Tahorat

Toza va ozoda bo‘lishni hammamiz yaxshi ko‘ramiz. Dinimiz ham tozalikka katta e’tibor beradi. Tahorat – ba’zi ibodatlar uchun tayyorgarlik bo‘lgan tozalanish turidir. Namoz o‘qish uchun tahorat olish shartdir.

Tahorat olishdan avval “Bismillah” deb niyat qilamiz. Qo’llarimizni yuvib, og‘zimizga va burnimizga uch martadan suv olib, tozalaymiz.

Yuzimizni yaxshilib yuvgandan keyin, qo’llarimizni tirsaklar bilan birga qo’shib yuvamiz. Qo’llarimizni ho‘llab, boshimizga suramiz, ya’ni mas’h tortamiz.

Yana bir bor qo’llarimizni ho‘llab jimjiloq barmog‘i bilan quloqlarimizni tozalaymiz, keyin esa qo’llarimiz bilan bo‘ynimizga mas’h tortamiz. Eng oxirida, oyoqlarimizni yaxshilab yuvib tahoratni tamomlaymiz.



Tahoratning farzlari

1. Yuzimizni yuvish.
2. Qo'llarimizni tirsak bilan qo'shib yuvish.
3. Boshimizga mas'h tortish.
4. Oyoqlarimizni to'piqlar bilan birga yuvish.

Tahoratni buzadigan ba'zi xususlar

1. Hojatxona ehtiyojini bajarish va yel chiqarish.
2. Og'izni to'ldirib qayt qilish.
3. Uxlash.
4. Namozda ovoz chiqarib kulish.
5. Hushdan ketish.
6. Tanadan qon, yiring va hokazo suyuqlikning chiqishi.



G'usl va tayammum

G'usl va tayammum – tahoratning turlaridandir. G'uslda niyat qilinib, og'iz va burun chayilgandan keyin tahorat olinadi va badanning hamma qismi yaxshilab yuviladi.

Tayammum esa toza tuproqda olinadigan tahorat turidir. Suv topolmaganimizda yoki suv bo'la turib, ba'zi sabablarga ko'ra ishlatolmaganimizda tayammum qilamiz. Tayammum qilishdan oldin niyat qilamiz. Keyin qo'llarimiz bilan toza tuproqqa urib, yuzimizga mas'h tortamiz. Kaftimizni yana tuproqqa urib, butun qo'llarimizga mas'h tortamiz. Shunday qilib, tozalangan va ibodatga tayyor holga kelamiz.




Bo'yaladigan topishmoq



Do'stlar!

Namozning farzlari bilan bog'liq atamalarning ma'nosini to'g'ri topib, aytilgan rangga bo'yaylik.



Namozning 12 farzi

1. Tahorat olish. (jigarrangga bo'ya)
2. Namozda sajda qilish. (kulrangga bo'ya)
3. Namozga mos kiynish. (och yashilga bo'ya)
4. O'qiladigan namozning vaqtি kirgan bo'lishi. (sariqqa bo'ya)
5. Namozda Qur'on o'qish. (to'q yashilga bo'ya)
6. Namozda qo'llarni tizzaga qo'yib egilish. (kulrangga bo'ya)
7. Qaysi namozning o'qilishini aytish. (jigarrangga bo'ya)
8. Namozda tik turish. (sariqqa bo'ya)
9. Namoz o'qiladigan joy va libosning toza bo'lishi. (sariqqa bo'ya)
10. Namozni qibлага qarab o'qish. (moviy rangga bo'ya)
11. Namozning oxirida "attahiyatu" duosini o'qish muddaticha o'tirish. (jigarrangga bo'ya)
12. Namozni "Allahu Akbar" deb boshlash. (moviy rangga bo'ya)

Yusufga yordam bering!




Do'stlar!

Yusuf namoz o'qishni xohlaydi. Lekin, namoz o'qishdan oldin nimalarga e'tibor berishi kerakligi haqida boshi qotgan. Unga yordam berasizmi? Namozga tayyorgalik uchun qilishimiz kerak bo'lganlarning yonidagi pufaklarni yashilga, qilishimiz kerak bo'lmasanlarning yonidagi qirrali doiralarni esa qizilga bo'yaylik.



- Namoz o'qishning foydalari nimalardan iborat?

Quyoshning harakatiga ko'ra namoz vaqtлари



Bir kuni Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): “Aytinglar-chi, birortangizning eshigi oldida bir anhor bo‘lsa-yu, unda har kuni besh mahal yuvinib tursa, biror kiri qoladimi?” – dedilar. “Uning kiridan hech narsa qolmaydi”, – deyishdi. “Mana shu besh vaqt namoz kabitidir. Alloh ular bilan xatolarni o‘chiradi”, – deb aytdilar.

- Hadisdan o‘rganganlarimizni do‘stlaringizga ham o‘rgatasizmi?

Qaysi biri oldin?

Bomdod
 Xufton

Peshin
 Shom

Asr
 Peshin

Xufton
 Shom

Shom
 Xufton

Tahorat bulutları



Aziz do'star,

tahorat olish tartibiga ko'ra quyidagi bulutlarni raqamlaylik.

Barmoqlarimni
yuvaman

Oyoqlarimni
yuvaman

Boshimga mas'h
tortaman

Yuzimni
yuvaman

Qo'llarimni
yuvaman

Og'zimni
suv bilan
chayqayman

Burnimga suv tortib
tozalayman

Quloqlarim va
bo'yningma mas'h
tortaman


"Bismillah"
deb niyat aytaman

Tahorat olishni o'rgandingizmi?



Aziz do'stlar!

Tahoratni olish tartibiga ko'ra sharlarni tuzib chiqing. Navbat qaysi pufakda bo'lsa, unga osilgan harfni bo'sh qutilarga navbatma-navbat joylashtiring. To'g'ri joylashtiranimizda qanday yozuv chiqadi? Pufaklar yorilib ketmasligiga e'tibor beraylik!



Namoz o‘qiyman



Besh vaqt namoz

Namoz bizni kunda besh marta Robbimizga yo‘naltirgan ibodatdir. Tahorat bilan tozalangan badanimiz namoz bilan tiriladi va jonlanadi. Namoz vaqtini xabar beruvchi azon ovozi bizni asabiylik va tashvishlardan qutulishga, huzurga erishishimizga chaqiradi. Namoz o‘qiganimizda Allohga bo‘lgan ishonchimizni ifoda qilamiz. Unga ichimizdan yolvoramiz, faqatgina Undan yordam istaymiz.

Namoz o‘qiyman



Niyat: O‘qiladigan namoz uchun niyat qilinadi. Namuna: “Alloh rizosi uchun bomdod namozining farzini o‘qishga niyat qildim”.



Takbir: Erkaklar qo‘llarini qulqlariga, ayollar ko‘krak ustiga qo‘yib “Allahu Akbar” deydi.



Qiyom va qiroat: O‘ng qo‘l bilan chap bilak ushlanadi. Erkaklar qo‘llarini kindik ostiga, ayollar ko‘krak ustiga qo‘yadi. “Subhanaka”, Fotiha va bir sura o‘qiladi.



Ruku: Qo'llar tizzalarga qo'yilib, erkaklar 90 daraja, ayollar esa biroz egiladi. 3 marta "Subhana robbiyal aziym" deyiladi.



Qavma (rukudan to'g'irlanish). Ruku qilgach, "Samiyallohu liman hamidah" deb turiladi. Orqasidan "Robbana lakal hamd" deyiladi.



Sajda: Qo'llar, peshona va burun yerga tekkiziladi. 3 marta "Subhana robbiyal a'la" deyiladi.



Ilk o'tirish va oxirgi o'tirish: (qa'dai avval va qa'dai oxir). Qo'llar tizza ustiga qo'yiladi. Erkaklar chap oyoqning ustiga, ayollar esa oyoqlarini o'ng tarafga burib o'tiradi.



Salom: O'ng tarafga salom berganda o'ng yelkaga, chap tarafga salom berilganda esa chap yelkaga qaraladi. Salom berilganda "Assalamu alaykum va rahmatulloh" deyiladi.

Namoz necha rakaat?

Namozning nomi	Sunnat	Farz	Oxirgi sunnat	Jami
Bomdod	2	2	-	4
Peshin	4	4	2	10
Asr	4	4	-	8
Shom	-	3	2	5
Xufton	4	4	2	10
Juma namozi	4	2	4	10

Ilova: Xufton namozining ortidan 3 rakaat vitr namozi o'qiladi.

Bomdod namozining o'qilishi

	Sunnat (2 rakaat)	Farz (2 rakaat)
1-rakaat	Niyat	Niyat
	Takbir	Takbir
	Subhanaka	Subhanaka
	Auzu, Basmala	Auzu, Basmala
	Fotiha	Fotiha
	Zam sura	Zam sura
	Ruku	Ruku
	2 sajda	2 sajda
2-rakaat	Basmala	Basmala
	Fotiha	Fotiha
	Zam sura	Zam sura
	Ruku	Ruku
	2 sajda	2 sajda
	Attahiyat	Attahiyat
	Solli-Borik	Solli-Borik
	Robbana duosi	Robbana duosi
	Salom	Salom

Peshin namozining o'qilishi

	Sunnat (4 rakaat)	Farz (4 rakaat)	Oxirgi sunnat (2 rakaat)
1-rakaat	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda
2-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom
3-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura 2 sajda	Basmala Fotiha Ruku 2 sajda	—
4-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom	Basmala Fotiha Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom	—

Asr namozining o'qilishi

	Sunnat (4 rakaat)	Farz (4 rakaat)
1-rakaat	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda
2-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat
3-rakaat	Subhanaka Auzu Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda	Basmala Fotiha Ruku 2 sajda
4-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom	Basmala Fotiha Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom

Shom namozining o'qilishi

	Farz (3 rakaat)	Sunnat (2 rakaat)
1-rakaat	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda
2-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom
3-rakaat	Basmala Fotiha Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom	—

Xufton namozining o'qilishi

	Sunnat (4 rakaat)	Farz (4 rakaat)	Sunnat (2 rakaat)
1-rakaat	Niyat	Niyat	Niyat
	Takbir	Takbir	Takbir
	Subhanaka	Subhanaka	Subhanaka
	Auzu, Basmala	Auzu, Basmala	Auzu, Basmala
	Fotiha	Fotiha	Fotiha
	Zam sura	Zam sura	Zam sura
	Ruku	Ruku	Ruku
2-rakaat	2 sajda	2 sajda	2 sajda
	Basmala	Basmala	Basmala
	Fotiha	Fotiha	Fotiha
	Zam sura	Zam sura	Zam sura
	Ruku	Ruku	Ruku
	2 sajda	2 sajda	2 sajda
	Attahiyat	Attahiyat	Attahiyat
3-rakaat	Solli-Borik		Solli-Borik
	Subhanaka	Basmala	Robbana duosi
	Auzu Basmala	Fotiha	Salom
	Fotiha	Ruku	—
	Zam sura	2 sajda	
	Ruku		
	2 sajda		
4-rakaat			
	Basmala	Basmala	
	Fotiha	Fotiha	
	Zam sura	Ruku	
	Ruku	2 sajda	
	2 sajda	Attahiyat	
	Attahiyat	Solli-Borik	
5-rakaat	Solli-Borik	Robbana duosi	
	Robbana duosi	Salom	
	Salom		

Vitr namozining o'qilishi

Vitr (3 rakaat)	
1-rakaat	Niyat Takbir Subhanaka Auzu, Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda
2-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Ruku 2 sajda Attahiyat
3-rakaat	Basmala Fotiha Zam sura Takbir Qunut duosi Ruku 2 sajda Attahiyat Solli-Borik Robbana duosi Salom

Namoz


Namoz kunda 5 mahal,
Bomdod, peshin, asr,
Keyin shom va xufton,
Unutma aslo vitrni.

Ne'matdir har yangi kun,
Kelmas endi o'tdi tun,
Har ne'mat shukr istar,
Namozdir tashakkuring.



Namozni buzuvchi ba'zi holatlar

1. Namozda turganda gaplashish.
2. Namozda turganda bir narsalar yeyish va ichish.
3. Namozda turganda o'zi eshitadigan darajada kulish.
4. Namozda qibladan boshqa tarafga burilish.
5. Namozda tahoratning buzilishi.





Jamoat bilan namoz o'qiyimiz

Bir imomning orqasida turib namoz o'qishga "jamoat bilan namoz o'qish" deyiladi. Jamoat bilan namoz o'qish muslimonlarning birgalikda ibodat qilish bilan birga tanishishlarini va birodar bo'lishlarini ta'minlaydi. Shuning uchun Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) jamoat bilan o'qilgan namoz yolg'iz o'qilgan namozdan qat-qat savobli ekanligini aytganlar.

Jamoat bilan namoz qilganda barcha bir Robga yo'naladi, ayni qibлага qaraydi, ayni vaqtda sajdaga boradi. Bu birlik tavhid ishonchimizni va ummat tushunchamizni quvvatlantiradi. Oramizdag'i sevgi va hurmat rishtalarini kuchaytiradi. Birodarlik va maslahatlashish tuyg'ularini uyg'otadi. Bir-birimizning ehtiyojlarimizdan xabardor bo'lishimizni ta'minlaydi.



Juma namozi

Juma kuni musulmonlar uchun maxsus bir kundir. Musulmonlarning haftalik bayrami bo'lgan juma kunida o'qilgan namoz "juma namozi" deyiladi. Juma namozi peshin namozi paytida jamoat bilan o'qiladigan namoz turidir va u o'n rakaatdan iborat.

Juma kuni juma namozida to'planish uchun barchamiz jom'e masjidlariga shoshamiz. Masjidlar insonlar bilan to'lib toshadi. Hammamiz birgalikda xutbani eshitishning va ibodat qilishning xursandchiligini totamiz.



Taroveh namozi

Taroveh namozi – Ramazon oyida zavq bilan o'qigan namozimizdir. Yigirma rakaatdir. Taroveh namozi xuhton namozidan keyin o'qiladi. Ramazon oyida har oqshom masjidlarga boramiz va hamma birgalikda taroveh namozi o'qiyimiz. Duolar qilamiz, Payg'ambarimizga salavotlar aytamiz. Ilohiylar aytib, birgalikda Ramazon zavqini yashaymiz.

Salavot deb nimaga aytamiz?

Allohumma solli a'la sayyidina
Muhammadin ve a'la ali sayyidina
Muhammad.

MA'NOSI: Allohim, Payg'ambarimiz
Muhammadga va Uning oilasiga
salot va salomlar ayt.



Hayit namozi

Yilda ikkita diniy hayit bayramimiz bor. Bular – Ramazon va Qurbon hayiti. Hayit kuni ertalab o'qiladigan namoz “hayit namozi” deyiladi. Hayit namozi jamoat bilan o'qiladigan namoz bo'lib, 2 rakaatdan iborat.

Hayit tongida qutlug“ bir kunda uyg“organimiz uchun judayam baxtiyor bo'lamiz. Hayit sevinchi qalbimizni to'ldiradi. Erta turib, tahorat olib, eng chiroyli liboslarimizni kiyib hayit namozi uchun masjidga yo'l olamiz. Masjidda barchamiz hayit namozini o'qiymiz. Duolar qilamiz, takbirlar aytamiz. Namozdan keyin bir birimizni tabriklaymiz, kattalarimizning qo'llaridan o'pamiz. Xafalashganlarni yarashtiramiz, qarindoshlar va do'stlarni ziyyarat qilamiz. Muhtoj, yetim va hech kimi yo'qlarni ham unutmaymiz. Ko'ngil quvonchini va kichik hadyamizni ularga taqdim qilamiz.

Takbir nima?

Allohu Akbar Allohu Akbar
Laa ilaha illallohu Allohu Albar
Allohu Akbar va lillahil hamd

Ma'nosi: Allah eng buyukdir. Allah eng buyukdir. Allohdan o'zga iloh yo'q. Allah eng buyukdir. Allah eng buyukdir va barcha maqtovlar va shukrlar Ungadir.



Namozni buzadigan va buzmaydigan holatlar



Aziz do'stlar!

Quyida namozni buzadigan va buzmaydigan holatlar aralash berilgan. Namozni buzadigan holatlarda ☹ namozni buzmaydigan holatlarda ☺ yuzni bo'yaylik.

Kulish



Qur'on
o'qish



Gaplashish



Biror narsa
ichish



Rukuga
egilish



Terlash



Biror narsa
yejish



Sajda
qilish



Tahoratning
buzilishi



1. Tahoratni buzadigan holatlar nimalar? Eslaylik.

2. Namoz bilan bog'liq bir hadis o'rganib, do'stlaringizga ham o'rgating.

Namoz kartochkasi



Do'stlar,

namunaga qarab siz ham namoz kartochkalarini to'ldiring.

Namoz kartochkasi

Nomi	Peshin namozi
Vaqti	Asrdan oldin
Rakaat soni	$4 + 4 + 2$
Bugun o'qidingmi?	

Namoz kartochkasi

Nomi	
Vaqti	
Rakaat soni	
Bugun o'qidingmi?	

Namoz kartochkasi

Nomi	
Vaqti	
Rakaat soni	
Bugun o'qidingmi?	

Namoz kartochkasi

Nomi	
Vaqti	
Rakaat soni	
Bugun o'qidingmi?	

Namoz kartochkasi

Nomi	
Vaqti	
Rakaat soni	
Bugun o'qidingmi?	

Sen uchun maxsus test



Bu test doim ko'rgan testlaringdan emas.

Bu test faqtgina sen uchun. Savollar sen bergan javoblarga ko'ra o'zgaradi. Qiziq tuyuldimi? Qani unda, boshla nega turibsan! :)

1. Hech namoz o'qiganmisan?

- A Ha, o'qiganman. **Ikkinci savolni o'qi.**
- B Yo'q, o'qimaganman. **Uchinchi savolga o't.**

2. BarakAlloh! Namoz o'qiyotganing juda ajoyib! Bir o'zing namoz o'qiy olyapsanmi?

- A Ha, o'qiy olyapman. **To'rtinchi savolni o'qi.**
- B Yo'q, o'qiy olmayapman. **Beshinchi savolga o't.**

3. Unday bo'lsa tez orada namoz o'qishni o'rganishing kerak! Hech masjidga borganmisan?

- A Ha, borganman. **Oltinchi savolga javob ber.**
- B Yo'q, bormaganman. **O'n ikkinchi savolga o't.**

4. Demak, bir o'zing namoz o'qiyapsan, qoyil senga! Namoz o'qiyotganda qaysi suralarni o'qiyapsan, yoz-chi?

O'n uchinchi savolga o't.

5. Ustozingdan namoz o'qish bilan bog'liq ma'lumotlarni olib o'zing mustaqil namoz o'qishni boshlashning mumkin. Kim bilan birga namoz o'qiyapsan?
-
-
-

Endi o'n to'rtinchi savolga sakra.

6. Masjidlarning ichi judayam chiroyli, shunday emasmi? Masjidda nimalar ko'rding?
- A Yolg'iz namoz o'qiyotgan insonlarni ko'rdim. *Yettinchi savolga javob ber.*
- B Jamoat bo'lib namoz o'qiyotgan insonlarni ko'rdim. *Yettinchi savolga javob ber.*
7. Jamoat bilan namoz o'qish nima degani, bilasanmi?
- A Ha, bilaman. *Navbatdagi savolga o'ta olasan.*
- B Yo'q, bilmayman. *To'qqizinchи jumlani o'qi.*
8. Ofarin, yettinchi savolni bilding demak! Unday bo'lsa, yangi savol senga: sen jamoat bilan namoz o'qidingmi hech?
- A Ha, o'qidim. *Endi navbat o'ninchi jumlada.*
- B Yo'q, o'qimadim. *O'n birinchi jumlani o'qi.*
9. "Jamoat bo'lib namoz o'qish" bir imomning boshchiligidagi hamma birgalikda namoz o'qishiga aytildi.
- Endi esa o'n birinchi jumlagaga o'tishing mumkin.
10. Testni tugatganing bilan tabriklayman! Ko'plab savobli namozlar o'qishingni tilab qolaman.
11. Tabriklar, testni tugatding! Tez orada jamoat bilan namoz o'qishingni tilab qolaman.

12. Uyingga yaqin masofada masjid bormi? Tez orada ana shu masjidga borishingga umid qilaman.


Yettinchi savolga qayt.

13. Ajoyib! Yanada ko'proq sura yodlashingga ishonaman. Hech masjidga borganmisan?

- A Ha, borganman. Oltinchi savolga javob ber.
- B Yo'q, bormadim hech. O'n ikkinchi jumlan o'qi.

14. Sen bilan birga namoz o'qiydigan bir inson borligi judayam quvonarli! Hayotingda hech masjidga bordingmi?

- A Ha bordim. Oltinchi savolga javob ber.
- B Yo'q, hech bormadim. O'n ikkinchi jumlan o'qi.



Ro'za tutaman



Ro'za nima?

Ro'za tutish – ibodat niyatida sahardan to iftorgacha hech narsa yemaslik va ichmaslikdir. Islomning shartlaridan biri bo'lgan Ramazon ro'zasini qolgan o'n bir oydan qiymatliroq va xayrliroq bo'lgan Ramazon oyida tutamiz.

Ro'za Allohnинг evaziga eng ko'p mukofot beradigan ibodatlardan biridir. Chunki inson faqatgina Robbinsing sevgisiga erishish uchun kun davomida yejish va ichishdan uzoq turadi. Ro'za tutish faqat och va suvsiz qolish, degani emas. Ayni paytda, ro'zador holatimizda yolg'on, g'iybat, urush janjal kabi yomon xulq-atvorlardan uzoq turamiz.

Ramazon oyi – Qur'on oyidir

Qur'oni karim Ramazon oyida, Qadr kechasida tusha boshlagan. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bu oyning juda qadrlı ekanligini aytganlar. Ramazonda kunduzlari ro'za tutganlar, kechalari esa ko'p-ko'p ibodat qilganlar. Hech kimi yo'qlarga yordam bergenlar, yo'qsillarni kiyintirib, ularni iftor dasturxoniga taklif qilganlar.

Biz ham Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) o'rnak olib, bu oyda ro'zamizni tutamiz, ko'p Qur'on o'qiymiz. Qur'oni tushunishga va yodlashga harakat qilamiz. Besh vaqt namoz va taroveh namozlarimiz bilan birgalikda boshqa nafl namozlar ham o'qiymiz. Iftor dasturxonimizga eng sevgan insonlarimizni va mo'min birodarlarimizni taklif qilamiz. Muhtojlarga, kambag'allarga yordam beramiz va ularning ehtiyojlarini qarshilaymiz.

Bilasizmi?

Sahar – kechaning bitishi bilan ro'za tutish boshlanadigan vaqtdir.

Iftor – quyoshning botishi bilan ro'zaning tugaganligini bildiradigan vaqtdir.

Ramazon oyida Qur'oni karimni bir kishi o'qisa, qolgan insonlar uni ta'qib qilsa, bu holatga "muqobala" deyiladi.

Muhammad Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): “Ro‘za tuting, sog‘lom bo‘ling”, – deganlar. O‘n bir oy tinmay ishlagan tanamiz, ro‘za tutganimizda dam oladi va sog‘lom bo‘ladi. Ro‘za tutib ochlikka va suvsizlikka sabr qilamiz, Alloh bergen ne‘matlariga shukr qilamiz.

Quyoshni ham kuldirib,
Qalba surur to‘ldirib,
Do‘satlarni suyuntirib,
Ramazon keldi, Ramazon!

Sahar turing yoronlar,
Xatm qiling qur‘onlar,
Dod devorsin shaytonlar,
Ramazon keldi, Ramazon!

G‘aflat oyi emas bu,
Nafrat oyi emas bu,
Rahmat oyi demak bu,
Ramazon keldi, Ramazon!

Ramazon keldi, Ramazon!
Muborak bo‘lsin Ramazon sizga!
Muborak bo‘lsin Ramazon bizga!
Bayram-bayram o‘g‘il-qizga,
Ramazon keldi, Ramazon!

Sergaklik vaqtি bo‘lgan,
Mo‘minning ahdi bo‘lgan,
Islomning fathi bo‘lgan
Ramazon keldi, Ramazon!

Yeng shimaring toatga,
Iymoni halovatga,
Erishing saodatga,
Ramazon keldi, Ramazon!

Ramazonda sabr bor,
Yetti yuz qat ajr bor,
Ming oyga teng qadr bor,
Ramazon keldi, Ramazon!

Bu oy mard-u maydondir,
Bandam, degan Rahmondir,
Kutib turgan rayyondir,
Ramazon keldi, Ramazon!

Ro‘za tutish:

- » Allohning roziligiga
erishishimizga sabab bo‘ladi;
- » axloqimizni go‘zallashtiradi;
- » mehribonlik tuyg‘umizni
quvvatlantiradi;
- » ne‘matlarning qadriga
yetishimizga sababchi bo‘ladi;
- » bizga sabrli bo‘lishni o‘rgatadi;
- » insonlarga yordam berishni
xotirlatadi;
- » sog‘lom bo‘lishimizni ta‘minlaydi.

Bilasizmi?

“Fitr” – Ramazon oyida
muhtojlarga beriladigan
sadaqadir.



Ramazon oyi – baraka oyidir

Ramazon butun musulmonlarning qalblariga ulkan baxt, sevinch va shukuh bilan keladi. Ro'zaga tayyorgarlik ko'rishning yoqimli sarosimasi hamma joyni egallaydi. Uylarda, bozorlarda jonlilikni ko'ramiz. Onalarimiz, buvilarimiz tayyorgarliklar ko'rishadi. İftor daxturxonimiz mehmonlar bilan go'zallahadi va barakatlanadi.

Masjidlarning minoralarida qandillar yal-yal yonadi. Minoralar orasidagi mahyalarda go'zal so'zlar porlaydi. Masjidlar mo'minlar bilan to'lib toshadi.



Saharga turaman

Ramazon boshlanganda kechaning qorong'uligida chiroqlari yoniq uylarni ko'ramiz. Dovullar gumbur-gumbur chalar, bir tomonidan monelar kuylanadi (mone degan qo'shiq turi). Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) sunnatiga mos holda saharga uyg'onamiz. Chunki saharda baraka borligiga ishonamiz. Bundan tashqari, saharlik qilish bizga kelasi kunning ro'zasini tutishimizni osonlashtiradi.

Ro'za tutishda: "Allohim, sening rozililing uchun ertangi ro'zamga niyat qilaman", – deb niyat qilamiz. Og'iz yopish uchun azon o'qilishi bilan ro'zaning boshlanganligini, quyoshning botishigacha, ya'ni iftor vaqtiga qadar hech narsa yemaymiz ham, ichmaymiz ham.



Iftor sururi

Iftor vaqtı yaqinlashgan sari ichimizni hayajon qoplaydi. Qulog'imiz azon ovozida, hammamiz birgalikda iftorni kutamiz. Ba'zan esa iftordan darak berish uchun to'p otiladi. Muazzin: "Allohu Akbar", – deb azon o'qishni boshlashi bilan totli kutish nihoyasiga yetadi. Iftor duomizni o'qib, ulkan xursandchilik bilan ro'zamizni ochamiz.

Har luqmamiz bol kabi, taomlar har doimgidan lazzatliroq tuyuladi. Ichgan suvimiz har doimgidan shirinroq tuyuladi. Bu hislar bilan Robbimizning bergen ne'matlarining qadrini bilamiz, yo'qsil va muhtojlarning holini yaxshiroq tushuna boshlaymiz. Bizga bergen ne'matlari uchun Robbimizga chin dildan shukr qilamiz, dasturxonida hech narsa yo'qlarga ham berilishi uchun duo qilamiz.

Bilasizmi?

Ramazon oyida minoralarga osiladigan yozuv "mahya" deyiladi. "Saharlik" – ro'zani oson tutib olish uchun kechasi turib yeyiladigan taomdir.

Bir hadis o'rganaman

"Ro'zador ikki marta xursand bo'ladi: iftor mahal og'zini ochganidan xursand bo'lsa, Robbisiga yo'liqqan onda ro'za tutganidan quvonadi".



Da'vat bor!

Ramazonda qo'shnilarimizni, qarindoshlarimizni va mahalladagi muhtojlarni iftor taomiga taklif qilamiz. Bu bilan qarindoshlik va do'stlik rishtalarimizni kuchaytiramiz. Iftorlikda ham taom yeymiz, ham samimiy suhbatlar quramiz.

Ramazon oyida shaharlarda ulkan iftor chodirlari quriladi. Uyiga iftorga yetisholmaganlar, talabalar, uysizlar bu chodirlarda ro'zasini ochishadi.

IFTOR DUOSI

Allohumma laka sumtu va bika amantu va
a'alayka tavakkaltu va'ala rizqika aftartu,
fagfirli, ya G'offaru, ma qoddamtu vama
axxortu.

MA'NOSI:

Ey Allah, ushbu ro'zamni Sen uchun tutdim va Senga iyomon keltirdim va Senga tavakkal qildim va bergen rizqing bilan iftor qildim. Ey mehribonlarning eng mehriboni, mening avvalgi va keyingi gunohlarimni mag'firat qilg'il! (Omin)

Ramazon keldi

Ro'za yilda bir oydir,
Ham totli, ham osondir.
Barakotli Ramazon,
Xuddi bir to'lin oydir.



O'n bir oyning sultoni,
Sulton qilar insonni,
Butun ko'ngillar bir bo'lar,
Quvonar iftor oni.



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!

• Ramazonga nega o'n bir oyning sultoni deyiladi?

Izlanaylik.

• Ro'zaning foydalari nimalardan iborat? Eslab ko'raylik.



Taroveh namoziga boraman

Ramazon oyida iftorlikdan keyin to‘da-to‘da bo‘lib masjidlarga boramiz. Masjidlar to‘lib toshadi. Ayol, erkak, keksa, yosh – hammamiz bирgalikda taroveh namozini o‘qiyimiz. Qalbimiz baxtga to‘ladi.



Ro‘zam ochildimi?

Bilib turib biror narsa yeish va ichish ro‘zani buzadi. Ba’zan esa bilmasdan yeb-ichib qo‘yamiz. Ro‘zador ekanligimiz esimizga kelganida birdaniga yeb ichishdan tiyilib, ro‘zamizda davom etamiz. Chunki ro‘zadorligini unutib qo‘yib, yeish yoki ichish ro‘zani buzmaydi.

Ramazon oyida ro‘za tutolmaydigan darajadagi bemorlar, homilador ayollar va yo‘ldagi musofirlar tutolmagan ro‘zalarini keyin tutib beradilar.





Yashasin, hayit keldi!

Hayitdan bir kun oldingi kun arafa deyiladi. Arafa kuni barcha hayit hayajonini yashaydi. Ertangi bayram uchun tayyorgarlik ko‘riladi. Bundan tashqari, qabrlar ziyorat qilinadi, duolar o‘qiladi. Buning bilan vafot etgan yaqinlarimizni ham unutmagan bo‘lamiz.

Hayit kuni ertalab tong sahardan turamiz, hayit namozini o‘qish uchun katta-kichik barchamiz masjidga boramiz. Takbirlar aytib, Allohga shukrlar keltiramiz. Yana ko‘p hayitlarga sihat-salomat erishishimiz umidi bilan sajda qilamiz. Hayit xutbasini eshitib, namozimizni o‘qigandan keyin bir-birimiz bilan hayitlashamiz. Xafalashganlarni yarashtiramiz, do‘stilarimizni tanishtiramiz.

Hayit kuni uyimiz mehmonlar bilan to‘ladi. Hayitlik kiyimlarimizni kiyib, yoshi ulug‘larning qo‘llaridan o‘pamiz. Ular esa bizga shirinlik yoki hayitlik berishadi. Bir oy davomida ro‘za tutgan og‘izlarimizga maza kirsin, deb shirinliklar, har xil tansiq taomlar mehmonlar uchun dasturxonga qo‘yiladi. Uysiz-qarovsiz, keksa, muhtoj qo‘ni-qo‘shnilarni ham unutmaymiz!



0‘ylaylik! O‘rganaylik! O‘rgataylik!

- Diniy bayramlarning ahamiyati haqida ma’lumotlar to‘plab, o‘rganaylik va do‘stilarimizga ham o‘rgataylik.
- Ramazon va Qurbon hayiti bilan bog‘liq xotiralarimizni do‘stilarimizga aytib beraylik.

Sulaymonning ilk ro'zasi

Men kichkinaligimda ba'zan bobomlarnikida qolardik. Ana shunday kechalardan birida, oshxonadan kelayotgan shovqindan uyg'onib ketdim. Burnimga shirin hidlar kelayotgandi. Yotog'imdan turib oshxonaga qarab yurdim. Qarasaaam! Butun oilamiz dasturxon atrofida ovqat yeb o'tirishibdi. Meni ko'rib hayron qolishdi va: "Sen ham uyg'ondingmi?" deb so'radilar.

Men esa ulardan nega yarim kechasi ovqat yeishayotganini so'radim. Opam menga bu kecha Ramazonning ilk kechasi ekanligini va ro'za tutish uchun saharlikka turishganini aytdi. Menga ro'za qanday tutilishini o'rgatdi. Men ham ro'za tutmoqchi ekanligimni aytdim va ular bilan saharlik qildim.

U kuni ilk ro'zamni tutdim.

Oramizda qolsin-u, u kuni shunchalik ochqadim, shunchalik chanqadimki, tushuntirib berolmayman. Hech oqshom bo'lmasdi. Taomlardan boshqa narsa xayolimga kelmayotgandi. Nihoyat, oqshom bo'ldi, iftor dasturxoniga o'tirdik. Butun oila shom namozi azonini kuta boshladik. Nihoyat, Ramazon to'pi otildi va azon o'qildi. Biz esa ro'zamizni ochdik. Ammo bir muammo bor edi.

Men marjumak sho'rvasini yaxshi ko'rmas edim va onam iftorga marjumak sho'rvasi pishirgandi. Qo'llimga qoshiqni olib, sho'rvani icha boshladim. Iftorni intazorlik bilan kutgan men, ilk marta marjumak sho'rvasini bunchalik sevib ichgandim. U kuni iftor dasturxonida nima yegan bo'lsam barchasi judayam lazzatli tuyulgandi menga. Ilk ro'zam sababli ne'matlarning qadrini yaxshiroq bilgandim. O'sha iftorda ichgan sho'rvamning ta'mini bir umr unutmayman. Qachon marjumak sho'rvasini ichsam, o'sha ilk ro'zam esimga tushaveradi.

1. Sen ham ilk tutgan ro'zang bilan bog"liq quvonchli lahzalariningni biz bilan bo'lisha olasanmi?
2. Sulaymonning xotirasini o'qiganingda sen tushunmagan birorta so'z chiqdimi? Ma'nosini mustaqil izlanib o'rgana olasanmi?
3. Ne'mat nima degani? Seningcha, eng buyuk ne'matlar nima?

Tadqiqotchi jurnalist ish boshida

Intervyu kimdan olinadi?

- Oilangdagi sendan kattasidan.

Intervyuning mavzusi nima?

- Bolalikdagi Ramazon va ro'za.

Intervyu joyi qayer?

- Sen tanlagan biror joy

Intervyu qachon bo'ladi?

- Eng yakin vaqtida.

Qani, intervymizni boshlaymiz!



1. Ilk ro'zangizni necha yoshda tutdingiz?

2. Ilk ro'zangizni tutganingizda qaysi mavsum edi?

3. Ro'za tutganda va iftorlik qilganda nimalarni his qilasiz?

4. Bolalikda tutgan ro'zangiz haqida ikki og'iz gapirib bersangiz.

5. Taroveh namozi uchun masjidga borarmidingiz? Kim bilan birga borgansiz?
-
-

6. Qadr kechasida nima qilardingiz?
-
-

7. Bolalikda ramazon hayitlari qanday o'tardi?
-
-

8. Biz bolalarga ramazon bilan bog'liq bir nechta tavsiya va maslahatlar bersangiz.
-
-

Bizga vaqt ajratib intervymizga kelganingiz uchun rahmat.

**“Ro‘za tut
sog‘lom bo‘l!”**

ORUÇ TUT
SIHHAT BUL

Ro'za bilan bog'liq iboralar



Aziz do'stlar,

Ramazon bilan bog'liq ba'zi iboralarni rasmlar yordamida topaylik.

Avval rasmlardagi narsa nomining ilk harfini qutilarga yozaylik.

Keyin esa paydo bo'lgan so'zning ma'nosini o'rganaylik.



Bu sayfa değiştirildi.



Topishmoq



Do'stlar,

Mustafoga ro'zasini buzmasdan iftor dasturxoniga yetib borishiga yordam beraylik.




Qaysi qayerga tegishli?



Do'stlar!

Har bir guruhdagi uchburchaklar ichidagi so'zlar sizga nimani eslatdi? O'rtadagi bo'sh qolgan uchburchakni to'ldirish uchun quyida yozilgan so'zlardan mosini olib yozaylik.



1. Diniy bayramlarimiz nechta?

2. Diniy bayramlarimizdan tashqari yana qanday bayamlarni nishonlaymiz?

Fargini topamiz



Qani, do'stlar

yulduzning o'rtaсидаги со'з билан bog'liq bo'lмаган со'зни
belgilang va sababini aytинг.



1. Tahoratning foydalaridan uchtasini yozing.

2. Hayitlarda nimalar qilamiz?

3. Ro'za tutishning foydalaridan uchtasini yozing.

4. Azonning so'zlaridan bir bo'lgan "Hayya a'lal falah"ning ma'nosini yozing.

5. Azonni eshitganimizda nimalar qilamiz?

Zakotni o'rganaman



Bo'lishishning nomi – Zakot

Muborak dinimiz bo'lgan Islom dinining asosiy ibodatlaridan biri zakotdir. Zakot – mol-mulk bilan bajariladigan ibodatdir. Robbimiz bizlarga bergen ne'matlarini muhtojlar bilan bo'lishishimizni istagan. Bizlar ham Allohning bergen boyligiga shukr keltirish maqsadida zakot beramiz. Shunday qilib, bo'lishishning lazzatini, yordamlashishdan olinadigan xotirjamlikni va barakani his qilamiz.

Zakot xasislik va qizganchilikning oldini oladigan ibodat bo'lgani uchun jamiyatning xotirjamligi, huzur-halovati va baxтиyorligiga hissa qo'shamiz. Zakot qalbdan qalbga, insondan insonga qurilgan shafqat va rahmdillik ko'prigidir. Mol-mulkimizda kambag'al va muhtojlarning haqqi bor. Shuning uchun, zakot bu haqlarni egalariga topshirishdir.



Bilasizmi?

Allohning sevgisiga erishish uchun qilingan har qanday yaxshilik "sadaqa" deyiladi.

Qani, topping-chi?

Bo'lishishning otidir,
Iymonning lazzatidir,
Qo'l uzatish barchaga,
Yo'qsilning qanotidir



Sadaqa qilish juda yaxshi!

“
Chiroyli so‘z
aytish –
sadaqadir.

“
Ko‘chadagi
hayvonlar va qushlar
uchun ko‘chada
maxsus joylarga
ovqat va suv qo‘yish
– sadaqadir.

“
Yo‘ldagi tosh, axlat
va cho‘p kabi
insonlarga noqulaylik
tug‘diradigan narsalarni
olib tashlash –
sadaqadir.

“
Muhtojlarga
moddiy yordam
berish – sadaqadir.

“
Insonlar soyasidan
va mevasidan
foydalansin deb
bir daraxt ekish –
sadaqadir.

“
Tabassum
qilish –
sadaqadir.

“
Jamoat
transportlarida
keksa, homilador
va nogironlarga
joy berish –
sadaqadir.

“
Boradigan
manzilini
bilmaydigan bir
insonga yo‘l
ko‘rsatish –
sadaqadir.

“
Salomlashish
– sadaqadir.


Bo'g'in-bo'g'in topishmoq



Do'stlar,

quyidagi jumlalarda ta'riflangan so'zlar bo'g'in-bo'g'in bo'lingan va eng pastdagi bulutlarda aralash berilgan. Qani, bo'lingan so'zlarni topib, to'g'ri joyga yozaylik-chi!

1. Islomning besh shartlaridan biri, boy insonlarning muhtojlarga yordam qo'llini cho'zishi nima deyiladi?
2. Allohning roziligidagi erishish uchun yordam berishga nima deyiladi?
3. Qilgan yaxshi ishlarimizning mukofoti nima?
4. O'zimizga tegishli bo'lgan narsani boshqalarga ham berishga nima deyiladi?



- Yordamlashish va sadaqaning yaxshi natijalari bilan bog'liq izlanish olib boraylik. Qo'lga kiritgan ma'lumotlarimizni do'stlarimiz bilan bo'lishaylik.

Jumlani top!




Do'stlar,

quyidagi belgilardan foydalaniib jumlani toping. Har bitta harf bir belgi va raqam bilan kodlangan. Masalan, Sh harfi 1 raqami va yurakcha belgisi bilan, H harfi esa 3 raqami va kvadrat belgisi bilan kodlangan. Qani, topgan jumlangizni yaqinlaringizga ayting-chi!

1	2	3	4	5	6
---	---	---	---	---	---

	A	B	D	E	F	G
	H	I	J	K	L	M
	N	O	P	Q	R	S
	T	U	V	X	Y	Z
	0'	G'	Sh	Ch	ng	,



Hajni o'rganaman

Haj – muqaddas safar

Haj – Ka'ba va atrofidagi muqaddas yerlarni ziyorat qilish, u yerda Allohga ibodat va duo qilishdir. Musulmonlar yilning ma'lum kunlarida dunyoning har yeridan Ka'baga borishadi. Ehrom deb ataladigan maxsus liboslarni kiyib, Ka'bani tavof qilishadi.

Arofatga chiqadilar, qurbanlik so'yadilar, shaytonga tosh otadilar. Shunday qilib, "hoji" bo'ladilar.

Millati, rangi, tili qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, ayol-u erkak – barcha musulmonlar haj sababi bilan Makkada to'planishadi. Birgalikda namoz va Qur'on o'qishadi. Insoniyatning tinchligi va xotirjamligi uchun duo qilishadi. Shu tarzda o'ttalaridagi birodarlik va samimiyat rishtalari mustahkamlanadi.

Haj ibodatini bajarish uchun Ka'bani ziyorat qilganlar, ayni paytda, suyukli Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) tug'ilib o'sgan, Islomning dunyoga yoyilishi boshlangan muqaddas tuproqlarni ham ko'radilar. Shu bilan birga, Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Madinadagi qabrularini va masjidlarini ham ziyorat qiladilar.

Bilasizmi?

Umra ibodati ham xuddi haj kabi Ka'bani ziyorat qilishdir. Farqi shundaki, hajga yilning belgilangan kunlarida borilsa, umraga istalgan payt borsa bo'ladi.



Ka'ba

Ka'ba bizning qiblamiz,
Unga boqar namozimiz.
Haj – Ka'ba ziyorati demak,
Maqsading bo'lsin bormoq.



0'ylaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- Zamzam va Hajar ul-asvad haqida ma'lumot to'plab, do'stlarimizga ham o'rgataylik.
- Qarindosh-urug'larimiz orasida haj yoki umra ziyoratiga borganlardan xotiralarini eshitaylik va do'stlarimizga ham aytib beraylik.

Fargini top!



Do'stlar,

quyidagi Ka'ba rasmlaridagi 7 ta fargni toping.



- Hajning foydalarini bilasizmi? Javobini topish uchun hajga borganlardan yordam olishingiz mumkin.

Duo qilaman



Duo o‘zi nima?

Duo – Allohga yolvorishdir. Hamma narsani yaratgan, barcha narsaga kuchi yetadigan va hech narsaga muhtoj bo‘lmaydigan Allohdan xohlashga “duo” deyiladi.

Yer yuzidagi butun jonzotlar havoga, suvga, tuproqqa va quyoshga muhtojdir. Urug‘ unib o‘sish uchun tuproqqa muhtoj. Tuproq yomg‘irga, yomg‘ir esa bulutga muhtojdir. Qushlar uchish uchun qanotga, baliqlar yashash uchun suvga muhtoj. Dunyoga yangi kelgan chaqaloq onasining sutiga va mehrli bag‘riga muhtoj. Har qanday tirik jonzot, tirik qolish uchun boshqa bir borliqning yordamiga muhtoj. Biz insonlar ham yashash uchun havoga, suvga, nafas olishga, olgan nafasimizni chiqarishga, yeb-ichishga muhtojmiz.

Hamma narsa Allohga muhtoj. Alloh esa hech narsaga muhtoj emas. Chunki u koinotdagi butun borliqlarning birgina yaratuvchisidir. U hayot bag‘ishlamasa, hech qaysi jonzot yashay olmaydi. Allohnинг iznisiz hech narsa unub o‘smaydi. Qisqasi, xohlaganlarimizni qo‘lga kiritish uchun va omadga erishish uchun doimo Allohnинг yordamiga ehtiyojimiz bor. Shuning uchun biz ham Allohga duo qilamiz.



Duo ibodatning mag‘zidir

Cheksiz marhamat va shafqat sohibi buyuk Alloh bizni judayam sevadi. Biz ham uni juda sevamiz. Quyosh har kuni biz uchun chiqadi. Qushlarning chug‘ur-chug‘ur sayrashi, arilarining asal terishi, kapalakning uchishi, rang-barang gullar, anhorlarning

shovullab oqishi, daraxtlarning meva berishi... Alloh bu dunyodagi barcha narsani biz uchun yaratdi. Bizga hidlash uchun burun, ushslash uchun qo'l, totmoq uchun til, ko'rish uchun ko'z, eshitish uchun qulqoq, yugurish uchun oyoq berdi. Bu ne'matlarning barchasi uchun shukr va duo qilishimiz uchun aql berdi. Allohgaga bergen bu ne'matlari uchun qanchadan-qancha shukr qilsak, oz.

Taomlarimizni bir o'ylab ko'raylik. Lazzatli taomlar dasturxonimizga kelguniga qadar mashaqqatli yo'llardan va bir necha bosqichdan o'tishadi, shunday emasmi? Ularni bizga Robbimizning berganini bilganimiz uchun yeishidan oldin "Bismillah", – deymiz. Yeb bo'lgandan keyin esa "Alhamdulillah", – deb Allohga shukr keltiramiz. Bu bilan bizga berilgan ne'matlar kamaymasligi uchun Unga duo qilgan bo'lamiz.

Duo vaqtি

Ey, bizni yedirgan, ichirgan
va yashatgan Robbimiz!
Bergan ne'matlaringga
hamd bo'lsin. Bizga xayrli
umrlar va halol ne'matlar
ehson ayla, sog'lik va ofiyat
ber. Omin.

Bir hadis o'rganaman

"Robbim, osonlashtir,
qiyinglashtirma. Robbim, ishimni
go'zal xotimali qil".



Qachon va qanday duo qilaylik?

Har doim va har joyda duo qilishimiz mumkin. Duo qilish juda oson. O'z so'zlarimiz bilan ichimizdan kelgancha duo qila olamiz, his va tushunchalarimizni Allohga ocha olamiz. Chunki Alloh bizning sirlarimizni va hech kim bilmagan tilak va xohishlarimizni ham biladi.

Allohga duo qilish bizga ishonch beradi, baxtli qiladi va xotirjamlik ato etadi. Duo qilganimizda Alloh bizni ko'rib, eshitib turganini, hech qachon yolg'iz emasligimizni his qilamiz.

Alloh bizga bergen sog'lom tanamiz bilan yaxshi ishlarni bajarish uchun intilamiz. Ishimizni osonlashitirishini Robbimizdan so'raymiz.

Muammolar qarshisida sabr ila turamiz. Ayni paytda duo qilib, Allohdan yordam so'raymiz. Undan hech qachon umidimizni uzmaymiz. Kasal bo'lganimizda davolanamiz. Shu bilan birga, bizning ahvolimizni yaxshilaydigan Allohga duo qilib, Undan shifo so'rab o'tinamiz.

Yotishdan oldin, safarga chiqishda, imtihonga kirishda, xafa bo'lganmizda, quvonganimizda, chorasisiz qolganimizda – har doim duo qilamiz. Bu bilan Allohnинг kuchini, sevgisini va yordamini yonimizda his qilamiz. Faqatgina o'zimiz uchun emas, boshqalar uchun ham duo qilamiz. Chunki sevgan insonlarimizning ham baxtli bo'lishini xohlaymiz.

Qisqasi, duo hayotimizning har bir oniga yoyilgan rahmat shamolidir.



Payg'ambarlarning duolari

PAYG'AMBARIMIZNING (SOLLALLOHU ALAYHI VA SALLAM) DUOLARI

"Allohim, yaratilishimni go'zal qilganing kabi, axloqimni ham go'zallashtir".

(Hadisi sharif)

AYYUB (ALAYHİSSALOM) NİNG DUOSI

"Albatta, meni zarar tutdi. Sening O'zing rahmlilarning rahmlisisan!"
(Anbiyo surasi, 83-oyat)

MUSO (ALAYHİSSALOM) NİNG DUOSI

"Robbim! Bizga bu dunyoda ham, oxiratda ham yaxshilikni yozib qo'y".

(A'rof surasi, 156-oyat)

"Ey Robbim, mening qalbimni keng qil. Mening ishimni oson qil".

(Toha surasi, 25 – 26 - oyatlar)

ZAKARIYO (ALAYHİSSALOM) NİNG DUOSI

"Ey Robbim, meni yolg'iz tashlab qo'yma!"

(Anbiyo surasi, 89-oyat)

SULAYMON (ALAYHİSSALOM) NING DUOSI

"Robbim, meni O'zing menga va ota-onamga bergen ne'matlaringga shukr etishimga va Sen rozi bo'ladijan solih amallar qilishimizga muyassar etgin. O'z rahmating ila meni solih bandalaringga qo'shgin".

(Naml surasi, 19-oyat)

ISO (ALAYHİSSALOM) NING DUOSI

"Allohim! Bizga rizq bergen, zotan O'zing eng yaxshi rizq berguvchisan"

(Moida surasi, 114-oyat)

IBROHİM (ALAYHİSSALOM) NING DUOSI

"Ey Robbimiz, meni, ota-onamni va mo'minlarni hisob qilinadigan kuni mag'firat qilgin".

(Ibrohim surasi, 41-oyat)

"Alloh meni yaratgan Zotdir. Bas, meni hidoyat qiladigan ham Uning O'zi. Va meni taomlantiradigan va sug'oradigan ham Uning O'zi. Bemor bo'lganimda shifo beradigan ham Uning O'zi".


(Shuaro surasi, 78 – 80- oyatlar)

Har holimiz duo bilan

Kundalik hayotda insonlar bilan munosabatlarimizda doim duodagi iboralarni ishlatalamiz.



Alloh rozi
bo'lsin



Allohga omonat bo'l!



Sog' bo'l



Alloh shifo
bersin!



Alhamdulillah!



Alloh osonlik
bersin!



Alloh rahmat
qilsin!



Alloh birga
qilsin!



Allohga
topshirdim!



InshaAllah!



Ofiyat bo'lsin!



Alloh tinchlik
bersin!



Xayrli
bo'lsin!



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!

- Doimiy duolaring qaysilar?
- Duo qilganda nimalarni his qilasan?
- Yuqoridagi duo ifodalarini qaysi holatlarda aytasan?

Hasanning duosi

Hasan hayajon bilan taqvimdan yana bir sahifani ochdi. Ha! Ramazon hayitiga 7 kungina qoldi. Dadasi ish sababi bilan Istanbulga ketgandi, u ham qaytsa, hamma narsa mukammal bo'ladi.

Hasan eng ko'p dadasinginayitda yonlarida bo'la olmasligidan qo'rqardi. Chunki, telefonda oxirgi marta gaplashganida dadasi ishlari ko'pligini, juda band ekanligini aytgandi.

Hasan do'sti Mustafo bilan o'yin o'ynayotganlarida Mustafo uning xafa ekanligini payqadi va:

– Do'stim, sen nega xafasan? Biror muammo bormi? – deb so'radi.

Hasan unga:

– Dadamning hayitda biz bilan birga bo'lishini judayam xohlayman. Eh, buning uchun qo'limdan biror narsa kelsa edi... – deb javob berdi.

Mustafo tabassum bilan:

– Qo'lingdan keladigan ish bo'lmasligi mumkinmi? Masalan, buning uchun Allohgaga ko'p-ko'p duo qilishing mumkin, – dedi. Bu fikr Hasanga juda yoqdi va u kundan boshlab dadasinginayitga qaytishi uchun ko'p-ko'p duo qildi.

Bir kuni maktabdan uyga qaytsa, onasi eshikda kutib turgan ekan.

Hasanning sochlarini silab:

– Hasan, dadang bugun telefon qildi, afsuski hayitga kelolmas ekan, – dedi.

– Lekin men ko'p duo qilgandim kelishi uchun, – dedi Hasan yig'lagudek bo'lib.

Onasi mehr bilan o'g'liga qarab:

– Bolam! Alloh bizni hammadan yaxshi taniydi va sevadi. Biz uchun xayrlirog'ini bizdan ko'ra yaxshi biladi. U doimo biz uchun yaxshisini xohlaydi. Eslaysanmi, havo juda sovuq kunda sen mendan muzqaymoq olib berishimni istaganding. Lekin men yolvorganingga qaramasdan, kasal bo'lib qolishingdan qo'rqib, olib



bermagan edim. Bu seni sevmaganidan yoki bir umr muzqaymoq
yeishingni xohlamaganidan emas edi, – dedi.

Hasan:

– Ha, endi tushunganday bo‘ldim, onajon, – dedi past ovozda.

Nihoyat, hayit kuni keldi. Hasan erta uyg‘ondi. Avvallari har hayitda
dadasi bilan namozga borishardi, bu hayitda borolmadi. Lekin, hayitni
onasi, qo‘snilari va qarindoshlari bilan birgalikda o‘tkazish ham juda
yoqdi. Eshik taqillasa, hayajon bilan ochardi. Kelgan mehmonlar esa
Hasanga:

– Hasan, katta bola bo‘lib qolibsanmi?! – deb xursand qilishardi.

Hasan qo‘snilar bilan hayitlashib o‘tirganida eshik yana taqilladi.

U: “Men o‘zim ochaman!” – deb yugurib borib ochdi. Ne ko‘z bilan
ko‘rsinki, qarshisida dadasi turar edi!

Hasanning duosi qabul bo‘lgan edi. Dadasi ishlarini ertaroq bitirib
hayitga ulguribdi.

Savollarga javob bering.

1. Hasan Allohga nima uchun duo qildi?

2. Dadasi kela olmasligini bilgan Hasanga onasi nimalar dedi?

3. Hasan hayitni qanday o‘tkazdi?

4. Siz ham duo qilasizmi?

5. Duo bilan bog‘liq xotirangizni biz bilan bo‘lishing.

6. Qiladigan duolariningizdan birini yozing.

Qani, endi duoga!



Aziz do'stlar,

quyidagi kataklarda duolarning boshi yozilgan. Siz ularni oxiriga yetkazib qo'ying-chi!

Allohim! Dunyodagi

Allohim! Urush
ichida qolgan
bolalarga

Robbim! Barcha
bemorlarga

Allohim! Menga

Ey Robbim! Butun
oilamga

Allohim! Muammosi
borlarga

Mehribon Allohim!
Seni juda

Rahmdil Robbim!
Darslarimda

Allohim! Qo'shnilarimiz
uchun


Buyuk Mavlom!

Go'zal duolar



Do'stlar,

bo'yagan pufaklardagi duolarning qaysi holatda aytishini bo'yalmagan sharlardan topping va ayni rangga bo'yang.
Masalan, bemor kishiga "shifo bersin" deganimiz uchun bu ikki ifodalni sharni bir xil rangga bo'yadik.



O'ylaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- Eng ko'p qachon duo qilasan?
- Nima uchun duo qilamiz?
- O'qigan duolaringdan misollar berolasanmi?

Moslashirma



Aziz do'stlar,

quyida aralash berilgan ifodalarning ma'nosini o'rganib,
o'makdagi kabi moslashtiring.

Niyat
Zakot
Tasbeh
Duo
Tahorat
Sajda
Ro'za
Namoz
Fitr sadaqa
Hajga
Saharlikka
Iftor
Salom

tutmoq
o'girmoq
bermoq
bormoq
o'qimoq
qilmoq
turmoq
etmoq
olmoq

- Yuqoridagi iboralardan uchtasi qatnashgan gap tuzing.

Imtihon savollari

1. Quyidagilardan qaysi biri moddiy imkoniyatlar bilan qilinadigan ibodatdir?
 a Namoz b Zakot
 c Ro'za d Duo
2. Dinimizga ko'ra, har bir go'zal ish ibodatdir. Shundan kelib chiqsak, quyidagilardan qaysi biri ibodat emas?
 a Bemorlarni ziyyarat qilish
 b Yomonlikka qarshi chiqish
 c Xafa qiladigan gap aytish
 d Suvsagan hayvonga suv berish
3. Alloh mutlaqo qilishimizni xohlagan ibodatlarga nima deyiladi?
 a Sunnat b Farz
 c Harom d Savob
4. Alloh mutlaqo qilishimizni taqiqlagan narsalarga nima deyiladi?
 a Savob b Farz
 c Harom d Sunnat
5. Quyidagilardan qaysi biri faqatgina badanimiz bilan qilinadigan ibodatlardan biri hisoblanadi?
 a Zakot berish
 b Hajga borish
 c Ro'za tutish
 d Sadaqa berish
6. Payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam)ning so'z va harakatlari nima deyiladi?
 a Farz b Sunnat
 c Halol d Savob
7. Ibodatlarimiz va go'zal amallarimiz natijasida Robbimizning bizga bergen mukofotiga nima deyiladi?
 a Baho b Savob
 c Duo d Ball
8. Masjidda insonlarga namoz o'qitadigan, xutba o'qiydigan va diniy ma'lumotlar beradigan insonga nima deyiladi?
 a Ustoz b Muazzin
 c Imom d Muftiy
9. Namoz vaqtining kirganini xabar berish uchun baland ovozda o'qiladigan so'zlarga nima deyiladi?
 a Tasbeh b Azon
 c Duo d Salovat
10. Masjidlarda insonlarning tahorat olishi uchun yasalgan hovuzlarga nima deyiladi?
 a Mehrob b Shodirvon
 c Minbar d Minora

11. Namoz vaqtlarini bildirish uchun azon o'qiydigan, farz namozlaridan oldin iqomat keltiradigan kishiga nima deyiladi?

- (a) Voiz
- (b) Muazzin
- (c) Muftiy
- (d) Imom-hatib

12. Quyidagilardan qaysi biri azonning so'zlaridan biri hisoblanmaydi?

- (a) Allahu Akbar
- (b) La ilaha illalloh
- (c) Hayya alas solah
- (d) Subhanalloh

13. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) muazzini bo'lgan va ilk azon o'qigan sahaba kim edi?

- (a) Anas roziyallohu anhu
- (b) Ali roziyallohu anhu
- (c) Bilal roziyallohu anhu
- (d) Zayd roziyallohu anhu

14. Namozning ichidagi farzlardan biri bo'lgan "qiroat" ning ma'nosi nima?

- (a) Sajda qilish
- (b) Namozni "Allahu akbar" deb boshlash
- (c) Namozda Qur'on o'qish
- (d) Namozda tik turish

15. Namozning farzlaridan bo'lgan "satri avrat" nima degani?

- (a) Namozni niyat bilan boshlash
- (b) Libosning va namoz o'qiladigan joyning toza bo'lishi
- (c) Tahoratlari bo'lish
- (d) Yopilishi kerak bo'lgan joylarni yopish

16. Tahirat farzlarining, tahirat olinayotganda yuviladigan a'zolarning ketma ketligiga mos keladigan javobni toping.

- (a) Bosh-qo'l-oyoq-yuz
- (b) Oyoq-qo'l-yuz-bosh
- (c) Qo'l-bosh-yuz-oyoq
- (d) Yuz-qo'l-bosh-oyoq

17. Namozning farzlaridan biri bo'lgan tahirat olishni ifodalaydigan iboralardan biri qaysi?

- (a) Istiqboli qibla
- (b) Niyat
- (c) Hadastan tahirat
- (d) Vaqt

18. Namozni qaysi tomonga qarab o'qiymiz?

- (a) Garbga
- (b) Sharqqa
- (c) Masjidga
- (d) Ka'baga

19. Namozga "Allahu akbar" deb boshlash qaysi ibora bilan ataladi?

- (a) Iftitoh takbiri
- (b) Ruku
- (c) Qiroat
- (d) Qiyom

20. Namozning oxirida "Attahiyatu" duosini o'qish vaqticha o'tirishga nima deyiladi?

- (a) Vaqt
- (b) Qadai oxir
- (c) Niyat
- (d) Ruku

21. Quyidagilardan qaysi biri namozni buzmaydi?

- a Namoz o'qiyotganda gapplashish
- b Namoz o'qiyotganda kulish
- c Namoz o'qiyotganda ovqat yeyish
- d Namoz o'qiyotganda esnash

22. Quyidagi namozlardan qaysi biri mutlaqo jamoat bilan o'qilishi kerak?

- a Bomdod namozi
- b Asr namozi
- c Peshin namozi
- d Juma namozi

23. Quyida namoz vaqtleri va rakaat miqdori qarshilashtirilgan. Bulardan qaysi biri noto'g'ri?

- a Juma namozi – 10 rakaat
- b Vitr namozi – 3 rakaat
- c Bomdod namozi – 3 rakaat
- d Hayit namozi – 2 rakaat

24. Bu oyda ibodatlarimizning savobi ortadi, ro'za tutiladi, masjidlar to'lib toshadi. Gap qaysi oy haqida ketmoqda?

- a Rajab
- b Shavvol
- c Ramazon
- d Muharram

25. Qur'oni karim qaysi oyda va qaysi kunda tusha boshlagan?

- a Ramazon – juma kechasi
- b Shavvol – arafa kechasi
- c Ramazon – qadr kechasi
- d Muharram – qadr kechasi

26. Quyidagilardan qaysi biri ramazon oyini yanada chiroyli o'tkazishimiz uchun qilinadigan ishlardan biri emas?

- a Qur'on o'qish
- b Ro'za tutish
- c Yordamlashish
- d Isrof qilish

27. Quyidagilardan qaysi birida ramazon oyida muhtojlarga beriladigan sadaqaning nomi berilgan?

- a Saharlik
- b Iftor
- c Fitir
- d Sahar

28. "Bergan qo'l olgan qo'ldan yaxshiroqdir" jumlesi qaysi ibodatga tegishli?

- a Zakot
- b Haj
- c Ro'za
- d Namaz

29. Ro'zadorning shom namoziga azon aytilishi bilan ro'zasini ochishiga nima deyiladi?

- a Kechki ovqat
- b Iftor
- c Nonushta
- d Saharlik

30. Faqatgina Ramazon oyida o'qiladigan namoz nima deb ataladi?

- a Juma
- b Taroveh
- c Shom
- d Xufton

31. Quyidagi iboralardan qaysi biri Ramazon bilan bog'liq emas?

- a Ma'hyo
- b Iftor
- c Muqobala
- d Zamzam

32. "Allohuma solli ala sayyidina Muhammad" jumlasiga nima deyiladi?

- a Takbir
- b Tasbeh
- c Salavot
- d Mavlid

33. Allohnинг roziligidagi erishish uchun qilingan barcha yaxshiliklar sadaqa deyilishini hisobga olib, quyida sadaqaga kirmaydigan amalni toping.

- a Salomlashish
- b Arazlash
- c Tabassum qilish
- d Shirin tilli bo'lish

34. Imtihonga kiradigan insonga nima deyiladi?

- a Alloh shifo bersin!
- b Xayrli bo'lsin!
- c Allohgа omonat bo'l!
- d Alloh zehningizni ochsin!

35. Makka haqidagi ma'lumotlardan qaysi biri noto'g'ri?

- a Ka'ba Makkadadir.
- b Makka Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)tug'ilgan shahar.
- c Haj va umra uchun Makkaga boriladi.
- d Payg'ambarimizning qabrlari Makkadadir.

36. Haj ibodatini bajarish uchun kiyiladigan maxsus kiyimga nima deyiladi?

- a Yopinchiq
- b Ehrom
- c Ko'ylik
- d Jubba

37. Quyidagilardan qaysi biri bemorni ziyorat qilganda aytiladigan ifodalardan emas?

- a Sog' bo'ling doim!
- b Xayrli bo'lsin!
- c Alloh shifolar bersin!
- d Alloh yaxshilik bersin!

Siyrat

**Payg‘ambarimizning
hayotini
o‘rganaman**

- 126 Payg‘ambarimizning bolaliklari va yoshliklari
- 133 Payg‘ambarimizga ilk vahiyning kelishi
- 138 Payg‘ambarimizning hijratlari
- 145 Payg‘ambarimizning Madinadagi hayotlari
- 150 Payg‘ambarimizning sifatlari

Payg‘ambarimizning bolaliklari va yoshliklari

Olamlarga bashorat kelmoqda

571-yil, aprel oyining oxirgi kunlari edi. Abdulmutallib nabira kutayotgandi. 20-aprel dushanba kuni edi. Bir odam yugurib keldi. “Suyunchi! Suyunchi, Abdulmutallib! Nabirali bo‘lding!” – dedi. Abdulmutallib yuragining tez urganini his qildi. Ko‘zlaridan sevinch ko‘zyoshlari oqdi.

Tez yurub uyga keldi. Uyda mitti nabirasining yig‘lagan ovozi eshitirilar edi. Uni quchog‘iga oldi, qalbini qayg‘u aralash sevinch qopladi. Nabirasini o‘pib hidlar ekan, o‘g‘li Abdullohning hidini his qildi. Abdulloh Payg‘ambarimizning otalari edi. Payg‘ambarimiz tug‘ilmaslaridan ikki oy oldin vafot etgan edi.

Abdulmutallib nabirasiga Muhammad deb ism qo‘ydi. Quchog‘idagi nabirasi bilan Ka‘baning yoniga bordi. Nabira bergani uchun Allohga shukronalar aytdi.

Nabirasining ismini Muhammad qo‘yanini eshitgan makkaliklar, Abdulmutallibdan nega bu ismni tanlaganini so‘rashdi. U esa: “Yerda



Besh yuz yetmish bir, aprel edi,
Kelgan eng go‘zal inson edi.
Bobosi o‘pdi, hidladi,
“Muhammaddir ismi” dedi.

insonlar, osmonda farishtalar unga maqtovlar aytsin, deb qo'ydim", – dedi. Chunki Muhammad – maqtalgan kishi ma'nosini bildiradi.

Makkaning havosi juda issiq bo'lganidan chaqaloqlarning parvarishi qiyin edi. Shuning uchun, Makkadagi ko'pgina oilalar yangi tug'ilgan chaqaloqlarini Makkaning tashqarisidagi havosi salqin yaylovlarda yashaydigan sut onalarga topshirardi.

Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalari Omina ham bu odatga ko'ra, farzandini ma'lum muddat katta qiladigan sut ona topdi. Bu onaning ismi Halima edi. Sut onasi Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) juda sevdi. Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) sut onasining uyida tez ulg'aydi. Sut aka-ukalari Shaymo, Abdulloh va Unaysa ham unga o'rganib qolishdi. Payg'ambarimiz yaylovda yugurib o'ynar, qo'y boqar, kunlarini juda yaxshi o'tkazayotgan edi. Shu bilan birga, ona tili bo'lgan arabchada ham juda ravon va chiroyli gapirishni o'rgandi. Halima va uning eri Horis, bu bola boshqa bolalardan boshqacha ekanligini ilk kundan sezishgandi. Chunki Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) kelishi bilan uylarining halovati va dasturxonining barakasi oshgandi.

Shafqatli va go'zal qalbli Halima Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) juda yaxshi qaradi. Unga eng kichik zarar kelishini ham xohlamas edi va bunga diqqat qilardi. Suyukli Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) qadrli omonatdek ko'rар, o'z bolalaridan ayirmas edi.

Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalari Omina, o'g'lini ko'rishga tez-tez kelardi. U bilan birga vaqtini ajoyib o'tkazardi. Ismi go'zal, o'zi go'zal Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) besh yoshga to'lgandi. Onasi o'g'lidan ayriliqda bo'lishga boshqa bardosh berolmadi. O'g'lini Makkaga olib kelishdi. Endi payg'ambarimiz onasi bilan birga edilar.

Qani topping-chi?

Abdulloh otasi edi,
Ibrohimning duosi edi.
Onasidir Omina,
Sut onasi Halima.

Bir kuni Omina yonida o'g'li bilan birga qarindoshlarini ziyyarat qilish uchun Madinaga bordi. Madinada Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) katta tog'alari bor edi. U yerda ajoyib vaqt o'tkazdilar. Keyin esa ortga qaytish uchun Makka yo'liga tushdilar. Abvo qishlog'iga kelganlarida Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalari Omina xasta bo'lib qoldi va bir necha kundan keyin vafot etdi. Vafot etmasdan oldin: "Dunyoga buyuk va xayrli borliq qoldiryapman", – degan edi. Onalari vafot etganida Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) olti yosh edilar. Bundan keyin ularni bobosi Abdulmutallib qaramog'iga oldi.

Bobosi Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) quchoq ochdi

Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) bobolari Abdulmutallib Makkaning rostgo'y, mard va xayrsevar yo'lboshchisi edi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) onalarining vafotidan keyin bobolari bilan birga yashadi. Ikki yil davomida doim birga bo'ldilar. Makkada qurg'oqchilik bo'lgan yili bobosi uni, hatto, yomg'ir so'rash duosiga ham olib borgandi. Bobosi, Payg'ambarimizsiz (sollallohu alayhi va sallam) ovqat yemas, uni yonidan ayirmas edi. Buning sababini so'rashganda, nabirasi Muhammadga (sollallohu alayhi va sallam) shafqat ko'zi bilan qarab, uni juda sevishini aytar va: "Kelajakda u buyuk inson bo'lishiga ishonaman", – der edi.

Payg'ambarimiz amakilarining uyida ulg'aydi

Payg'ambarimiz sakkiz yoshlarida bobolari Abdulmutallib vafot etdi. Amakilari Abu Tolib Muhammadni (sollallohu alayhi va sallam) o'z qaramog'iga oldi. Amakisi va yangasi Fotimani juda sevgan Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bolalikdan yigitlikka qadar yillarini ularning yonida o'tkazdi. Bir kun uy ishlariga yordam bersa, boshqa kun hayvonlarni o'tlatardi.

Abu Tolib toza qalbli, ishonchli va go'zal axloqli savdogar

edi. Bir kuni Payg“ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) amakisining tijorat uchun Shomga borishini eshitib qoldi.

Bu sayohat bir necha oy davom etardi. Amakisidan ayrilishni umuman xohlamasdi. U bilan Shomga borishni xohlayotganini aytdi. Amakisi esa sayohat uzun va charchoqli bo‘lishini, yosh bola ekanligi uchun uni birga olib borolmasligini tushuntirdi.

Payg“ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam):

– Amaki, siz ketsangiz men kim bilan qolaman? – dedi.

Jiyanining bu so‘zlaridan ta’sirlangan Abu Tolib:

– Mayli, seni yonimda olib boraman. Bundan buyon sen va men bir-birimizdan hecham ayrilmaymiz, – dedi.

Rostdan ham, Abu Tolib jiyanini yonidan bir zumga ham ayirmas, unga yetimlik qayg“usini his ettirmaslik uchun qo‘lidan kelganini qilar edi. Yangasi Fotima ham o‘z farzandlaridan oldin Payg“ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) qorinlarini to‘ydirar, uni umuman xafa qilmas edi. Ana shunday qilib, Suyukli Nabiyimiz (sollallohu alayhi vasallam) bu marhamat uyida ulg“ayib yosh yigit bo‘ldi.



Payg“ambarimiz oila qurdi

Payg“ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) sharaflı oilada yaxshi tarbiya ko‘rgan bir yigit edi. Makkada hamma uni maqtar, go‘zal axloqi haqida gapirar edi. Xatto tili va dili bir bo‘lgani uchun unga “Muhammadul amin” ya’ni “Ishonchli Muhammad” deb nom qo‘yishgan edi.

Xadicha onamiz ham Makkada barcha hurmat qiladigan boy ayollardan edi. Savdogarlik bilan shug“ullanar, kambag“allarga yordam berar edi. Payg“ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) 25 yoshga kirganlarida u bilan turmush quydilar. Uylangandan keyin, vafodorlik o‘rnagi ko‘rsatib, moddiy qiyinchilikda yashayotgan amakisi Abu Tolibga yengil bo‘lsin deb uning o‘g“li Ali (roziyallohu anhu)ni yoniga oldi.

Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) payg“ambarimiz va Xadicha onamiz bir birlarini juda sevishardi. Baxtli oilalari barchaga o‘rnak bo‘lgandi. Ilk farzandlari Qosimning tug‘ilishi bilan ota-onas bo‘lishgandi. Shundan keyin payg“ambarimizni “Abul Qosim” ya’ni “Qosimning otasi” laqabi bilan chaqirishardi.



Gul yuzli farzandlar tug‘ildi

Shafqatli ota – Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va har narsani bilguvchi ona – Xadicha onamizning to‘rt qizi, ikki o‘g‘li bor edi. Bular: Qosim, Zaynab, Ummu Gulsum, Ruqiya, Fotima, Abdulloh edi.

Xadicha (roziyallohu anho) onamiz vafot etgandan keyin Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Mariya onamizdan Ibrohim ismli yana bir o‘g‘illari tug‘ildi. Lekin Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) barcha o‘g‘illari kichik yoshda vafot etdilar. Qizlari esa ulg‘ayib, erga tegib, otalarining payg‘ambar bo‘lgan kunlarini ko‘rgan edilar.

Bir hadis o‘rganaman

“Hech qaysi ota-ona farzandiga go‘zal axloqdan qadrliroq narsa bermaydi”.



Tushunmovchiliklarni Payg‘ambarimiz hal qillardilar

Nabiyimizga (sollallohu alayhi va sallam) atrofidagilar ishonardi. U kishi hamma bilan yaxshi munosabatda bo‘lar, oljanob inson edilar. Har qanday yomonliklar bo‘lgan muhitda yashayotganliklariga qaramasdan o‘zini barcha yomonliklardan himoya qilgandilar. Doimo rostgo‘y bo‘lib, hech kimga ozor bermagan edilar. Hayoti bilan barchaga o‘rnak bo‘lgan edilar.

O‘ttiz besh yoshga kirgan edilar. U kunlarda Makkada hech kim bir-biriga ishonmay qo‘ygandi. Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) bunga juda xafa bo‘lar, buni to‘g‘irlash uchun bir narsa qilishni o‘ylardilar.

Bir kuni og‘ir qadamlari bilan Ka‘baga yurib keldilar. Ka‘baning ta‘miri uzoq vaqtdan beri davom etayotgandi. Qanday holatda ekanligini ko‘rishni xohlagandilar.

Ka'baga yaqinlashganlarida u yerdagilarning barchasi bir ovozdan: “Ana Muhammad, to'g'ri va ishonchli inson!” – deb baqirdi. Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) hayron qoldilar. Nima bo'lganligini tushunmay turganlarida, biri: “Muhammad, bilasan qancha vaqtlardan beri Ka'bani ta'mirlaymiz. Bobolarimiz “Hajarul asvad” deb nomlagan qadrli toshni joyidan olgandik. Endi esa uni takror joyiga qo'yemoqchimiz. Faqat har bir qabila o'zining boshqalardan ustun ekanligini iddao qilib, toshni joyiga qo'yishga haqli ko'rmoqda o'zlarini. O'rtamizda buyuk bir urush chiqayotgan bir paytda, ichimizdan biri: “Shu eshikdan birinchi bo'lib kim kirsa, toshni joyiga qo'yish uchun u hakamlik qilsin”, – dedi. Bu taklifni hammamiz qabul qildik. Biroz kutdik. Seni eshikda ko'rganimizda esa barchamiz juda sevindik. Makkada bunga loyiq kishi sensan. Chunki tug'ishganimizga ham ishonolmaydigan bir muhitda mollarimizni faqatgina senga omonat qila olamiz”, – dedi.

Hajarul asvadning ahamiyatini bilgan Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) uni bir yoping'ichning ustiga qo'ydilar. Har bir qabiladan bir kishini yoping'ich uchidan ushlashga chaqirdilar. Har biri yoping'ichning bir uchidan ushlab ko'tarishdi, Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) toshni olib joyiga qo'ydilar.

Nabiyimizning (sollallohu alayhi va sallam) bu adolatli yechimidan butun qabilalar xursand bo'ldi. Uning omonatdor ekanliklari va zukkoliklari muammoni hal qilgan, bu bilan esa katta urush tahlikasi bartaraf bo'lgandi.



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!


- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bilan bog'liq birorta she'r yoki ilohiy o'rganib, do'stlarimizga ham o'rgataylik.
- Makkaliklar Nabiyimizning (sollallohu alayhi va sallam) qaysi xususiyatlari sababli o'talarida hakamlik qilishlarini xohlagandi?
- Nima deb o'ylaysan, rostgo'y va ishonchli bir inson o'z xatti-harakatlarida nimalarga diqqat qiladi?

Payg'ambarimizning yaqinlari



Do'stlar,

bu sahifadagi har bir yaproqda Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) yaqinlarining ismlari yozilgan. Qani, bu yaproqlardagi ismlarning Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) yaqinlik darajasini gulning o'ttasiga yozaylik-chi!



- Bu insonlardan birortasini yaqindan tanishni xohlaysanmi? O'rganib, do'stlaringga ham o'rgatgin.

Payg‘ambarimizga ilk vahiyning tushishi



Jabroil Hiroga keldi

Makkaliklar Allohgaga iymon keltirmay, but-sanamlarga sig“inishardi. Kambag‘al va ojizlarni ezishar, ularning haqlarini himoya qilishmasdi. Ayollarga va yosh bolalarga yaxshi munosabatda bo‘lishmasdi. Insonlar orasida yomon xulq-atvor tarqalgandi. Jamiyatdaadolat va tartib qolmagandi. Ana shunday muhitdan rohatsiz bo‘lgan Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) vaqtı-vaqtı bilan tafakkur va duo qilish uchun Hiro g‘origa ketardilar. U yerda dunyoning va insonlarning nima maqsadda yaratilganliklarini o‘ylar, tinmasdan Allohgaga duo qilardi. 610-yil Ramazon oyi edi. Payg‘ambarimiz u sana 40 yoshga to‘lgandilar. Yana bir kun g‘orda ekanliklarida yonlariga bir farishta keldi. Bu farishta Allohdan “vahiy”, ya’ni “muqaddas ma’lumot” tashiydigan Jabroil (alayhissalom) edi.

Jabroil (alayhissalom) Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) qarata “O‘qi!” dedi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) juda hayron qoldi. “Men o‘qishni bilmayman-ku!” – deb javob berdilar. Jabroil yana: “O‘qi!” – deganida, Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bu safar: “Nimani o‘qiyin?” – deb so‘radilar. Ana shu onda buyuk Allohning ismi bilan hayotga va dunyoga yangicha qarashi kerakligini anglatadigan oyatlarni eshittdi. Jabroil (alayhissalom) Alaq surasining ilk besh oyatini olib kelgandi. Hazrati Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) bu ilk vahiy ila Alloh tarafidan payg‘ambar o‘laroq vazifalantirilgan edilar.

Ilk oyatlar shular edi:

“Yaratgan Robbing nomi bilan
o‘qi. U insonni alaqdan yaratdi.
O‘qi! Robbing karamililarning
Karamlisidir. U, qalam bilan ilm
o‘rgatgandir. U, insonga bilmagan
narsasini o‘rgatdi”.

(Alaq surasi, 1 – 5 - oyatlar)

Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) hayajon bilan uyga kelib, bo‘lib o‘tgan voqeani rafiqasi Xadicha onamizga aytib berdilar. Xadicha onamiz ularni tinchlantirishga harakat qilib, shunday dedilar: “Qo‘rqmang! Allohgaga qasamki, Alloh sizni aslo, hech vaqt o‘z holingga tashlab qo‘ymaydi. Chunki siz har doim qarindoshlarga g‘amxo‘r, musofirlarga mehmondo‘s, ojizlarga yordamini ayamagan, faqirlarni to‘ydirib, falokatga uchraganlarga madad qo‘lini cho‘zib kelgan buyuk insonsiz”.

Xadicha (roziyallohu anho) onamiz bu so‘zlari bilan Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) go‘zal axloqiga naqadar ishonishini tilga to‘kkan edi. Alloh go‘zal axloq sohibi bir insonni aslo yolg‘iz va chorasziz tashlab qo‘ymasdi.

Musulmonlar ko‘paymoqda

Jabroilning keyingi kelishida o‘qigan oyatlarida Payg‘ambarimizga tavhidni, ya’ni Allohdan o‘zga iloh yo‘qligini insonlarga yetkazish vazifasi kelgan edi. Bundan tashqari, yomon odatlarni tark etishlari uchun ularga yo‘lboshchi bo‘lishi amri qilindi. Shundan keyin Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) atrofidagi insonlarni Islom diniga da‘vat qila boshladilar.

Payg‘ambarimizning da‘vatini qabul qilgan va unga ilk ishongan inson rafiqasi Xadicha onamiz edi. U Payg‘ambarimizga har doim bu vazifalarida ko‘maklashdi, unga moddiy va ma’naviy yordamchi bo‘ldi. Qiyinchilik kunlarida unga tasalli bo‘ldi, pullarini faqir musulmonlar uchun sarfladi. Xadicha onamizdan tashqari Abu Bakr, Ali, Bilol va Zayd roziyallohu anhumo ham ilk iymon keltirganlardan edilar.



Sizsiz bizning payg‘ambarimiz

Qirq yoshda payg‘ambar bo‘ldingiz,
Haqdan bizga rahbar edingiz,
Qo‘lingizda oxirgi ilohiy din,
To‘g‘ri yo‘lni siz ko‘rsatdingiz.


Eslaylik!

Payg‘ambarimizning so‘zlariga “hadis” deyiladi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Makka ahlini Islomga da‘vat etishni avvalo qarindoshlaridan boshladilar. Bir kuni Safo tepaligiga chiqib, makkaliklarga shunday xitob qildi:

- Sizga shu tepalikning ortidan bir dushman askarlari kelayotganligini xabar qilsam, menga ishonasizmi?
- Ha, ishonamiz. Chunki sening yolg‘on gapirganligingni hecham eshitmadik, dedilar.
- Unday bo‘lsa, Allohgaga qasam ichamanki, Allohdan o‘zga iloh yo‘q. Men esa Allohning sizga va butun insonlarga yuborgan payg‘ambariman, – dedi.

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) ishonchli inson ekanliklarini qabul qilishardi. Lekin makkaliklarning ko‘pchiligi noto‘g‘ri e’tiqodlarini tark etmadidi. O‘z qo’llari bilan yasagan butlarga sig‘inishda davom etish bilan birga, Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) qarshi dushman ham bo‘ldilar.



Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Islomga da‘vat qilganlarida juda og‘ir qiyinchiliklar bilan to‘qnash keldilar. U kishiga ishonmaganlarning butun qarshiliklariga qaramasdan, ulkan jasorat bilan makkaliklarga Islomni tushuntirishda davom etdilar. Chunki insonlarni juda yaxshi ko‘rardilar. Huzurli farovon bir hayotda yashasinlar, deb insonlarga haq dinni o‘rgatardilar. Butun insonlar Alloho tanishlarini va sevishlarini juda orzu qilardilar.

Musulmonlarning soni kundan kunga oshib bordi. Makkaning rahbarlaridan bo‘lgan Hamza va Umar roziyallohu anhumlar ham musulmon bo‘lishgandi. Shunday qilib, musulmonlarning soni qirqqa yetdi. Ilk musulmonlar hech narsadan qo‘rqmasdan har doim Nabiyimizning (sollallohu alayhi va sallam) muborak yonlaridan joy olishardi.


Ilk musulmonlardan ba’zilari



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Islomning ilk buyrug‘i “O‘qi” ekanligini ko‘zda tutib, dinimizning ilmiga bergen ahamiyatini o‘rganaylik.
- Payg‘ambarimizning zamonida yashasang, nimalar qilgan bo‘larding?

Krossvord



1. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) laqablari.
2. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) otalarining ismi.
3. Har ishning boshi.
4. Musulmonlikni ilk qabul qilgan bola.
5. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalarining ismi.
6. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) tug‘ilgan kunning nomi.
7. Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) katta qilgan amakilarining ismi.
8. Islom diniga iymon keltirganlarning nomi.
9. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) qizlaridan birining ismi.
10. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) milodiy taqvimga ko‘ra tug‘ilgan oylari.
11. Dinimizning nomi.
12. Ilk vahiy tushgan g‘orning nomi.
13. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) birinchi rafiqalarining ismi.
14. Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) “Yerda va osmonda maqtalgan” ma’nosidagi ismlari.

Payg'ambarimizning hijratlari



Madinaga hijrat boshlandi

Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) ishonmagan makkaliklar uning Islom dinini yoyishidan bezovta edi. Chunki Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ularga xatolarini ko'rsatar, zulm va nohaqlikni tark qilishlarini aytardilar.

Oqibatda, Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) keskin tarzda jazolashga qaror qilishdi. Buni qanday amalga oshirishni rejelashtirish uchun yig'ilishdi va Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) o'ldirishga kelishishdi. Ularning bu yomon rejasidan xabar topgan Rasulimiz Madinaga hijrat qilishga qaror qildilar.

Makkaliklarning yomonliklaridan va aziyatlaridan qutilish uchun bir necha musulmon Madinaga oldin hijrat qilgan edi. Yordamsevar Madina xalqi ularni chaqirishgan va: "Biz ham musulmon bo'ldik. Sizlarni har qanday yomonliklardan qo'riymiz", - deyishgandi. Nihoyat, suyukli Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) va yaqin do'sti Abu Bakr roziyallohu anhu bir kecha hamma u xlabelotganda Makkadan ayrildilar. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) vatanlaridan ayriliqdek og'ir azobga qaramasdan makkaliklarning o'zlariga topshirgan omonatlarini unutmadilar. Ularni egalariga topshirish vazifasini Ali (roziyallohu anhu)ga berdilar. Hatto, kechasi o'z yotoqlarida Alining yotishini istadilar.

Bilasizmi?

Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Islomga da'vatlarini ta'qiqlash uchun mushriklar musulmonlarni qamal qilishdi. Qamaldan 8 oy o'tib, Nabiyimizning (sollallohu alayhi va sallam) eng sevgan amakilari Abu Tolib, uch kundan keyin esa suyukli yorlari – rafiqalari Xadicha onamiz (roziyallohu anho) vafot etdilar. Bu voqealar bo'lib o'tgan yil "Sanatul huzun" ya'ni "Mahzunlik yili" deb nomlandi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va ul zotning hijratdagi yo‘ldoshlari Savr tog‘idagi g‘orga kelishdi. Savr g‘ori Madina yo‘li bo‘yida emas edi. Madinaga qarama-qarshi tarafda, Makkaga yaqin joyda edi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) sayohatlarining xavfsizligi uchun shunday qaror qilgan edilar. Hamma ularni Madina yo‘li bo‘yida izlar ekan, ular Savr g‘orida uch kecha-kunduz saqlanishdi.

Abu Bakrning (roziyallohu anhu) qizi Asmo ularga ovqat olib kelar, o‘g‘li Abdulloh esa g‘orga Makkadan so‘nggi xabarlarni tashirdi. G‘orga yashirinchalik kelgan Abdulloh Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) shunday dedi:

“Sizga zarar berishni xohlaganlar ertalab uyga kirishganda yotoqda Alini ko‘rib juda g‘azablanishdi. Unga yomon muomalada bo‘lishdi, hech qanday ma’lumot ololmaganlaridan keyin bizdan biror narsa bilishimizni so‘rashdi. Biz ham hech narsa bilmasligimizni aytganimizdan so‘ng ortlariga qarab ketishdi. Yana Sizni o‘lik yoki tirik topgan odamga yuz tuyu mukofot berilishini hamma joyga e’lon qilishdi. Buni eshitganlar Sizni izlab yo‘llarga chiqishdi”.

Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) uylarida topolmagan makkaliklar har tarafda uni izlashda davom etdi. Nihoyat, ulardan bir guruhi Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) saqlangan g‘orning yoniga keldi.

Odamlarning oyoqlarini ko‘rib, ovozlarini eshitib xavotirga tushgan Abu Bakr (roziyallohu anhu):

– Bizni ko‘rib qolishadi, yo Rasullaloh! – dedilar.

Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam):

– Xavotir olma, Alloh biz bilan birgadir, – deb javob berdilar.

Mushriklar egilib ichkariga qarasalar edi, Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) va Abu Bakrni (roziyallohu anhu) ko‘rgan bo‘lishardi. Ammo Alloh muqaddas yo‘lning yo‘lchilarini asradi. Ko‘rmasdan qaytib ketishdi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va eng yaqin do‘satlari hazrati Abu Bakr (roziyallohu anhu) erta tongda Madinaga qarab yo‘lga chiqdilar.

Bilasizmi?

Musulmonlarning 622-yilda
Makkadan Madinaga
ko‘chishlariga “hijrat” deyiladi.



Makka bilan vidolashuv

Sevimli Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) o‘zлari tug‘ilib o‘sgan, bolaliklari va yoshliklari o‘tgan Makka shahrini tark etish juda qiyin edi. Ammo musulmonlar Makkada Allohning buyruqlarini bemalol bajara olmadilar. Makkadan ketish juda achinarli bo‘lsa-da, Madina ular uchun yangi umid maskaniga aylandi. Ular Madinada Islomni xavotirsiz o‘rgatib, yashar edilar. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Makkadan ketayotganlarida “Qasvo” ismli tuyalarida shularni o‘ylardilar. Ul zot (sollallohu alayhi va sallam) bir lahzaga to‘xtab, o‘z sevgan shahriga qarab qo‘ydilar va dedilar:

“Makka, sen men uchun yer yuzidagi eng go‘zal shaharsan. Agar ular meni sendan ajratmaganlarida, men seni hech qachon tark etmas edim. Bir kuni yana senga qaytib kelaman!”

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) vatanlarini tark etishga majbur bo‘lganlarida 53 yoshda edilar. Muhojirlilik, ya’ni uyini, boyligini va xotiralarni tashlab, vatanni tark etish juda qiyin. Ammo Alloh Islomning yashashini maqsad qilib yo‘lga chiqqan muhojirlarga jannatni bashoratini berdi.

Sevimli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va hamrohlari hazrati Abu Bakr (roziyallohu anhu) sayohat davomida charchab, Madina yaqnidagi Qubo qishlog‘iga kelishdi. Xurmo bog‘lari va shirin suvleri bilan mashhur bo‘lgan ushbu go‘zal qishloqda bir muncha vaqt mehmon bo‘lgan Payg‘ambarimiz bu yerda Islom dinining birinchi masjidini qurdirganlar.



Madina ulkan hayajon ichida

Madina musulmonlari Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Makkadan chiqqanliklari xabarini eshitgan edilar. Ular har kuni Madina tashqarisidagi baland joyga borib, hayajon bilan yo‘lga qarardilar. Nihoyat, kutilgan lahzalar keldi. Madina musulmonlari Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) katta baxt va ishtiyoq bilan kutib oldilar. “Xush kelibsiz! Yo Rasululloh!!!” – deya hayqirishar, quvonch bilan kuylashardi.

Madina bayram sevinchini yashayotgan edi. Odamlar Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) o‘z uylarida mehmon

qilish uchun o'zaro raqobatlashar: "Yo Rasululloh! Biznikiga kiring!" - deb chaqirishardi. Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) esa tuyalarini qo'yib yubordilar. Tuyalari qaysi uy oldida tursa, o'sha yerda mehmon bo'lishini aytdilar. Shunday qilsalar, hech kimning ko'nglini og'ritmagan bo'lardilar. Tuyalari yurdi, yurdi va oxir-oqibat bo'sh maydonda turib, o'sha yerga cho'kkalladi. Bu yerga eng yaqin uy Abu Ayyub al-Ansoriyning (roziyallohu anhu) uyi edi. Abu Ayyub juda xursand bo'ldi. Payg'ambarimizni mehmon qilish uni juda sevintirdi.

Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Abu Ayyubning (roziyallohu anhu) uylarida 7 oycha mehmon bo'ldilar. Bu vaqt ichida musulmonlar Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) tuyalari cho'kkan yerga Masjidi Nabaviyni (Payg'ambar masjidi) qurdilar. Xurmo quritilgan bu bo'sh yer ikki yetim bolaga tegishli edi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) yerni ulardan sotib oldilar va bu yerda masjid barpo qilindi. Masjidning yonginasida Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) uchun uy qurildi.

Bilasizmi?

Hijratdan oldin nomi Yasrib bo'lgan Madina Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) kelishlari bilan "Madinatur Rasul" ya'ni "Payg'ambar shahri" nomini olgan.

Bilasizmi?

Madinaga kelganlarida Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) uylarida mehmon qilgan Abu Ayyub al-Ansoriyning (sollallohu alayhi va sallam) qabri, Istanbulda – Ayyub Sulton Masjidini yonidadir.

Oy chiqdi ustimizga

Oy chiqdi boshimizga,
Vido tepalaridan.
Shukronalik bizga qarz,
Allohga da'vatidan.



(Madinaliklarning Payg'ambaramizni kutib
olganlarida o'qishgan she'rlardan biri)

Sen quyoshsan, sen oysan,
Sen nur ustiga a'lo nur.
Sen Surayyo yulduzisan,
Ey suyukli Rasul!

Ey, bizdan tanlangan elchi,
Buyuk bir da'vat-la kelding.
Bu shaharga sharaf berding
Ey, suyukli, xush kelding.



Maktublarni ochamiz



Do'stlar!

Quyidagi maktublardan chiqqan jumlalarni yil bo'yicha navbat bilan tartiblang.



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) sut onalarining yonlarida qoldilar.



Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) qirq yoshlarida nabiylik vazifasi berildi.



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Xadicha onamiz (roziyallohu anho)ga uylandilar.



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) 632-yilda vafot etdilar.



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) 622-yilda Madinaga hijrat qildilar.



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bobolari bilan birga yashadilar.

1.
2.
3.
4.
5.
6.

Xatoni to'g'rila!



Do'stlar,

quyidagi jumlalarda noto'g'ri ma'lumotlar berilgan. Qani, endi siz to'g'risini topib, jumlalarning tagidagi bo'sh joyga yozing-chi!

- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) [Madinada](#) tug'ilganlar.
- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) [632-yilda](#) tug'ilganlar.
- Muhammad ismi '[tanlangan](#)' ma'nosini bildiradi.
- Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) sut onalarining ismi [Fotima](#) edi.
- Muhammad (sollallohu alayhi va sallam)ga payg'ambarlik vazifasi [30](#) yoshlarida berilgan.
- Qur'oni karim [622](#) yilda tusha boshlagan.
- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) 6 yoshlarida [bobolari](#) vafot etgan.
- Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) [uch qiz, to'rt o'g'illari](#) bo'lgan.
- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Makkadan Madinaga [610](#)-yilda hicret etmishtir.
- Hasan va Husayn (roziyallohu anhumlar) Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) [jiyanlaridir](#).

Payg' ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Madinadagi hayotlari

Ansor va muhojir – birodar

Makkalik musulmonlar uylarini, bor-budini, qarindoshlarini Makkada tashlab Madinaga kelishga majbur bo'lishgandi. Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) Madinada barcha musulmonlarning bir-biri bilan o'ta ahil-inoq bo'lishlarini xohlaganlar. Chunki qiyinchiliklarni faqat shu yo'l bilan yengib o'tish mumkinligini bilardilar.

Payg' ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) musulmonlar bir-birlarini aka-ukadek himoya qilishlari kerakligini aytganlar. Ul zot (sollallohu alayhi va sallam) ko'chib kelgan muhojir va unga yordam bergen madinalik ansorning har birini o'zaro birodar, deb e'lon qildilar. Ushbu birodarlik tufayli hamma bir-birini qo'llab-quvvatlar, uyini, pulini, ovqatini va sevgisini baham ko'rardi. Shunday qilib, muhojirlar muammolaridan xalos bo'lishdi. Ansoriylar esa qiyin ahvolda bo'lganlarga yordam berishdan xursand edilar. Ushbu go'zal birodarlik musulmonlarga har jihatdan kuchli jamiyat bo'lishiga yordam berdi.

Bir hadis o'rganaman

"Kim birodarining hojatini ravo qilsa, Alloh uning hojatini ravo qiladi. Kim musulmondan bir tashvishni aritsa, Alloh undan Qiyomat kunining tashvishlaridan birini aritadi. Kim bir musulmonning aybini berkitsa, Alloh Qiyomat kunida uning aybini berkitadi".

Bilasizmi?

Makkadan Madinaga hijrat qilgan musulmonlar "Muhojir", Madinada ularga yordam bergen musulmonlarga esa "Ansor" deyiladi.



Islomning yoyilishi

Madinada musulmonlar birgalikda huzurli hayot kechirardilar. Makkadagi qiyinchiliklar tarixda qolgandi. Hamma bir-birlarini birodar sifatida ko'rishardi, hech kim hech kimgaadolatsizlik qilmasdi. Sevimli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning rahnamoliklarida namunali jamiyat shakllangan edi. Musulmonlarning go'zal axloqini ko'rganlar va ta'sirlanganlar ham musulmon bo'lishardi va shu tariqa Islom tez tarqala boshladi. Sahobalar ma'lum vaqtarda Masjidi Nabaviyda yig'ilib, Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) Qur'on oyatlarini o'rganardilar. Barcha sahabalar Islom dinini tushunish, uni yashash va odamlarga tushuntirish uchun g'ayrat ko'rsatardilar. Hamma o'zlarining eski yomon odatlaridan voz kechishga, Islomning yaxshi axloqini qabul qilishga va yaxshi inson bo'lishga harakat qilar edi.

Makka ahli musulmonlarning kuchayishi va tinchligidan bezovta bo'lib, qo'shin to'plab ularga hujum qilishdi. Ularning maqsadi Islom va musulmonlarni yo'q qilish edi. Ammo ular bunga erishishlari mumkin emas edi. Chunki Alloh musulmonlarning yordamchisidir.

Badr, Uhud va Xandaqdagi janglar makkaliklar bilan olib borildi va Makka, nihoyat, 630-yilda fath qilindi. Shunday qilib, musulmonlar yana Makkaga ega chiqdi. Ka'ba butlardan tozalandi.

Makka fath etilishi bilan Islom shiddat bilan yoyila boshladi. Chunki, Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ko'p mamlakatlarga va atrofdagi katta qabilalarga elchilar yuborib, ularni musulmon bo'lishga da'vat etdilar. Qisqa vaqt ichida ko'plab odamlar Islom dini bilan sharaflandilar.

Bir hadis O'rganaman

"Musulmon musulmonning
birodaridir".

0'yaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!



- Kimlar bilan din birodari ekanligimizni bir o'yaylik. Ularga nisbatan nima his qilishimizni va qanday majburiyatlarimiz borligini aytib beraylik.

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) hajdagi vidolari

632-yil edi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) yuz mingdan ortiq musulmon bilan Makkaga haj safariga chiqdilar. Nabiyimizning (sollallohu alayhi va sallam) bu hajlari “Vido haji” deyiladi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Arafotda musulmonlarga nutq so‘zladilar. Butun insonlarning Robbi Alloh ekanligini, Alloh barchani teng yaratganligi va inson haqlari himoya qilinishi kerakligini aytdilar. Insoniylik qadr-qimmati jihatidan hech kim hech kimdan ustun emas, ammo Allohnинг buyruqlarini eng yaxshi tarzda bajarganlar Allohnинг nazdida qadrliroq ekanligini bildirdilar. Ushbu nutq “Xayrashuv nutqi” ma’nosida “Vidolashuv xutbasi” deb nomlanadi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) Madinaga qaytganlaridan ko‘p o’tmay vafot etdilar.

Bir oyat o‘rganaman

“Bugungi kunda Men sizning diningizni mukammal qilib berdim. Sizga ne’matimni batamom qildim. Va sizga Islomni din deb, rozi bo’ldim”.

(Moida surasi, 3-oyat)

Bilasizmi?

Payg‘ambarimiz Muhammadning (sollallohu alayhi va sallam) qabrlari Madinadadir.



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Vido xutbasi bilan bog‘liq izlanish olib borib, insoniyatning Vido xutbasiga bo‘lgan ehtiyojini o‘ylab ko‘raylik.
- Payg‘ambarimizga salavot aytishning ahamiyati haqida izlanish olib boraylik. Hammamiz birgalikda Payg‘ambarimizga salavot aytaylik.

Bu sanada qaysi voqea ro'y berdi



Aziz do'stlar,

quyida siz uchun ba'zi sanalar berdik. Yillarning qarshisidagi bo'sh joyga bu sanada ro'y bergen voqealarni yozing.

Sana

Voqea



.....
.....
.....
.....



.....
.....
.....
.....



.....
.....
.....
.....



.....
.....
.....
.....

- Payg'ambarimizning hayotlarini o'rganish bizga nimalar beradi?

Hadisni topamiz!



Do'stlar,

berilgan harflarning tagidagi bo'sh kataklarga u harfning alifbodagi tartibiga ko'ra bitta oldindagi harfni yozing.
Namunadan yordam olishingiz mumkin.

N	V	T	V	M	N	P	O
M							

N	V	T	V	M	N	P	O	O	J	'

D	J	S	P	E	B	S	J	E	J	S



Ofarin! Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) hadislarini topdingiz. Endi esa ushbu hadisni do'stlaringizga ham aytинг.

- Birodarlar bir-biriga qanday munosabatda bo'lishlari, nimalarga e'tibor berishlari kerak?

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) sifatlari



Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) – eng go‘zal o‘rnak

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) har bir so‘zlari va harakatlari bilan odamlarga o‘rnak bo‘ldilar. Ularning odob-axloqini ulug‘lab, Alloh taolo: “Batahqiq, sizlar uchun Rasulullohda go‘zal o‘rnak bor edi”, – dedi. (Ahzob surasi, 21-oyat).

Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) ko‘rgan erkag-u ayol, yosh-u keksa va bolalar – barcha ul zot (sollallohu alayhi va sallam)dan to‘g‘ri va go‘zal narsalarni o‘rgangandilar. Ular Payg‘ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) o‘rnak olib, ulardek yashashga harakat qilishardi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) nafaqat birgalikda yashagan odamlarga, balki barchamizga o‘rnakdir.

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) e’tiqodlari, ibodatlari, hayotlari va fe’l-atvorlari hammani hayratda qoldiradigan darajada o‘ziga xos va chiroyli edi. Allohga ko‘p shukr keltiradigan banda edilar. Robbisiga bo‘lgan ishonchi cheksiz edi. Ul zot (sollallohu alayhi va sallam) namozga katta ahamiyat berar va boshqalardan ko‘ra ko‘proq ro‘za tutar edilar. Odamlarga o‘rgatgan yaxshi axloq qoidalariga avval o‘zlari rioya qilardilar.



Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) – eng samimiyl do‘st

Rasulimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonlarni sevar, do‘stilarini qadrlar edi. Eng yaqin do‘stilari Abu Bakr (roziyallohu anhu) edi. Payg‘ambarlik vazifasi berilganida unga ilk ishonganlar va sadoqat ila bog‘langanlar orasida Abu Bakr (roziyallohu anhu) bor edi. Xuddi

Bilasizmi?

Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) iymon etgan do‘stilari “sahoba” deyiladi.

shuningdek, Umar, Usmon, Ali, Abu Zarr, Talha va Zubayr (roziyalohu anhum) ham Nabiyimizning eng sevgan do'stlaridan edi.

Sevimli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) do'stlariga nisbatan mehribon va sadoqatli edilar. Ularga mehribon edilar, hol-ahvol so'rab turardilar. Do'stlarining ehtiyojlarini qondirishga va qiyin paytlarda ularning yonida bo'lishga harakat qilar edilar. Do'stlari xasta bo'lsa, ularni ziyyorat qilardilar. ularning fikrlari va his-tuyg'ularini qadrlar va qilmoqchi bo'lgan ishlarini do'stlari bilan maslahatlashardi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) va sahobalari o'rtasida mustahkam do'stlik rishtalari mavjud edi. Makkalik yoki madinalik bo'lsin, har bir sahoba Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) juda yaxshi ko'rishardi. Huzurli, baxtiyor va iymonli hayotga Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) rahbarligida erishishgan edilar. Shuning uchun ular Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) nisbatan chuqur hurmat va minnatdorlik tuyg'usini his qilar edilar. Yaxshi kunlarda ham, yomon kunlarda ham ularni yolg'iz qoldirmadilar.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) – eng yaxshi qarindosh va qo'shni

Rahmat Payg'ambari (sollallohu alayhi va sallam) qarindoshlik aloqalariga katta ahamiyat berar, qarindosh bilan xafalishishga va aloqani uzishga ruxsat bermaganlar. Qarindoshlarini sevar, ularni ziyyorat qilar va hurmat qilardilar. Rafiqalari Xadicha (roziyalohu anho) onamizning do'stlari kelganda ham ularga nisbatan hurmat va izzatda bo'lganlar. Sut onalari va sut og'a-inilarini hurmat qilar, ular bilan doim aloqada edilar.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) qo'shnilariga nisbatan ham xushmuomala va go'zal axloqli, yaxshilik qiluvchi va

Bir hadis o'rganaman

"Musulmonga o'z birodari bilan
uch kundan ortiq arazlashib
yurishi haromdir".

tabassum ulashuvchi qo'shni edilar. Qo'shnilarining sog'lig'ini so'rab, ularning tashrifiga borar edilar. Ularga bir-birining huquqlarini hurmat qilishni, yaxshi munosabatda bo'lishni va yomon xatti-harakatlar va so'zlardan yiroq bo'lishni maslahat berardilar.

Bir hadis o'rganama

"Qo'shnisi och bo'lib, to'q uxlagan bizdan emas".



Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) – eng mehribon ota

Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bolalariga juda mehribon ota edilar. Har doim uyda tabassum bilan sabr-toqat va bag'rikenglik bilan ish tutardilar. Oilada bir qaror qabul qilinadigan paytda, farzandlarining fikri bilan qiziqar va nima deb o'ylashlarini so'rardilar. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) nevaralariga juda mehribon bobo bo'lganlar. U nabiralari Hasan va Husaynni juda yaxshi ko'rар, ularni orqasiga ko'tarib, ko'chalarda olib yurar, quchoqlab bag'riga bosar, o'par va duolar qillardilar.

Aslida, payg'ambarimiz nafaqat o'z farzandlarini, balki barcha bolalarni sevar va qadrlar edi. Bolalarni sevgi va shafqat bilan tizzalariga o'tirgizar, ularni quchoqlab, mehr va muhabbat bilan o'pardilar. Mavsumning ilk mevalarini bolalarga berardilar. Har doim masjidlarida bolalar bo'lishini xohlar edilar. Ular bilan hazillashar, o'yin o'ynar edilar. Huzurlariga qizlari Fotima (roziyallohu anho) kelganida, o'rinalidan turib kutib olar va yanoqlaridan o'pardilar. Biror bolani ko'rib qolsalar, u bilan suhbatlashar, ahvolini so'rар, unga qadrli ekanligini his qildirardilar.



O'ylaylik! O'rganaylik! O'rgataylik!

- Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) davrida yashagan bir bola bo'lsang, nima qilishni xohlarding?
- Qo'shnilarimizga va qarindoshlarimizga nisbatan vazifalarimiz nimalardan iborat?

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) bolalarga bo‘lgan sevgisi



Do’stlar,

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) nabiralari bilan xotiralarini o‘qishga nima deysiz? Qani, unda avval o‘qib, keyin savollarga javob bering.

Oralarida bir yoshcha farq bo‘lgan ikki bola Madina masjidiga kirganlarida, barcha diqqat bilan xutba eshitayotgandi. Ko‘rinishidan bu ikki kichkintoy bobolarining yoniga borishga qaror qilgan edi. Jamoatning orasidan minbarga qarab bordilar.

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) nabiralariga nisbatan sevgilari shunchalik kuchli ediki, Hasan va Husaynni ko‘rmaganlikka olib, xutbada davom etolmadilar. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) jamoatning nigohlari ostida uch zinali minbarlaridan pastga tushdilar. Kelajakda jannat yoshlaringin yo‘lboshchilari bo‘lishlarini bashorat qilganlari – ikki bolajonni quchoqladilar.

Xutbasini oxiriga yetkazish uchun nabiralari bilan minbarga chiqqanlarida shunday dedilar: “Alloh: “Mollarингиз ва болаларингиз имтиҳон васиасидир”, –деганда нақадар тоғ‘ри аytган екан! Шу икки боланинги ўқилиб-сурилиб келайотганларини ко‘rishim bilan chiday olmadim, gapimni bo‘lib, ularни quchog‘imga oldim”.

(Hadisi sharif)

1. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) minarda xutba o‘qiyotganlarida masjidga kim kirib keldi?
2. Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) nabiralarini ko‘rishlari bilanoq sizningcha, nimani his qilgan edilar?
3. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) nima uchun minbardan tushdilar?
4. Sizningcha, bu xotira bizga nimani o‘rgatadi?

Tili va dili bir, ishonchli Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) bolaligidan beri hech qachon yolg‘on gapirmaganlar. Yolg‘on gapirishni umuman yoqtirmsadilar. Butun hayotlari davomida o‘zlarining to‘g‘riligi bilan odamlarning ishonchini qozonganlar. Odamlar ul zotning (sollallohu alayhi va sallam) hech qachon yolg‘on gapirmasliklarini va birovni aldamasliklarini bilar edilar.

Sevimli Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Islomga da‘vatini qabul qilmaganlar ham ul zotga (sollallohu alayhi va sallam) cheksiz ishonch bildirishgan.

Safarga ketayotib, ular eng qimmatbaho buyumlari va pullarini Payg‘ambarimiga (sollallohu alayhi va sallam) omonat topshirdilar. Ular Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) omonatga xiyonat qilmaslikriga amin edilar. Chunki u “Muhammad amin” edi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) doimo odamlarga to‘g‘riso‘z bo‘lishni tavsiya qilganlar. Barchaga nisbatan va har doim rostgo‘y bo‘lishni maslahat berardilar. Bir inson rost ayta-ayta, nihoyat, rostgo‘y insonga aylanishini va jannatga kirishini aytardilar.

Sahobalardan biri Abdulloh (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi: “Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) bizning uyimizda mehmon bo‘lganlarida, onam:

– Kel, men senga bir narsa beraman, – deb meni chaqirdi.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) onamga:

– Bolaga nima bermoqchisiz? – deb so‘raganlarida, onam:

– Xurmo beraman, – deb javob berdi.

Shunda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam):

– Agar unga hech narsa bermaganingizda, sizga yolg‘on gunohi yozilgan bo‘lardi, – dedilar.

Bilasizmi?

Payg‘ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam): “Insonlarning eng yaxshisi kim?” deb so‘rashdi. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) esa: “Pok qalbli va to‘g‘riso‘z bo‘lgani”, – deb javob berdilar.

Bir hadis o‘rganaman

“Robbim Allohdir”, – de,
so‘ngra rostgo‘y bo‘l!“.



Mening kamtar Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg‘ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) hech qachon o‘zini odamlardan boshqacha yoki ustun ko‘rmaganlar. Insonlarga nisbatan kibr qilmasdilar. Odam ajratmas, hamma bilan suhbatlashardilar, ahvolini so‘rardilar. Ular bemorlarni ziyyarat qilishga katta ahamiyat berardilar. Bemorni ziyyarat qilganlarida, unga dalda bo‘lib, umid berar, tuzalib ketishi uchun Allohga duo qilardilar. Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) boshqalar gapirganda gapini bo‘lmas, ularni diqqat bilan tinglar edilar. Ikrom qilingan taomni sevib yer, hech qachon taomni yomonlamas va tanqid qilmasdilar.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) takabburlik qilmas, oddiy narsalar va kiyimlardan foydalanganlar. Ularga sovg‘a berilganida, juda xursand bo‘lar, ba’zan bu sovg‘ani ular ham boshqalarga hadiya qilib sevinch ulashlardilar.

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) do‘satlari bo‘lgan sahabalar har narsada unga yordam berishga tayyor edilar. Biroq, ular o‘z ishlarini o‘zlar qilar, hech kimga og‘irligi tushishini xohlamasdilar. Barchaga ish bo‘lib berilganda, Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) hech qachon bir chetda o‘tirmaganlar, ular ham mehnat qilardilar. Masalan, Masjidi Nabaviy qurilishida muborak yelkalarida g‘isht tashigan edilar.

Bilasizmi?

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) sahabalar bilan sayohatga chiqqanlarida dam olish uchun bir joyga to‘xtashdi. Ovqat pishirish uchun barcha o‘ziga ish taqsimlab oldi. Shunda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ham: “Unday bo‘lsa men ham yoqishga cho‘p-xashak to‘playin”, – degandilar.



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Kibrli inson nima yo‘qotadi, mutavoze inson nima qo‘lga kiritadi?
- “Rostgo‘y inson har doim yutadi” nima degani?

Qo‘li ochiq, ko‘ngli to‘q Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) juda saxiy inson edilar. Alloh u zotga bergan ne’matlarni baham ko’rishni yaxshi ko’rardilar. Har bir muhtoj kishiga yordam berishga shoshardilar. Biror bir narsa so’rab kelgan insonni aslo bo’sh qaytarmasdilar. Ochlarni to’ydirar, kambag’allarga yordam berishga intilar, hech kimi yo’qlarni himoya qilardilar. Do’stlarini ham doim saxovatli bo’lishga chorlar, ziqnalikning zarari haqida gapirardilar.

Bir kuni Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) bir parcha mato olib kelindi. Aslida u zotga mato kerak edi. Yonida o’tirganlardan biri “Qanday chiroyli mato!” deyishi bilan Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) darhol matoni u kishiga sovg’a qildilar.

Bir hadis o’rganaman

“Hasad (havas) ikki narsada bo’ladi. (Birinchisi)
Alloh taolo bir kishiga mol-u dunyo berib,
unga egalik qilish huquqini ham beradi.
Berilgan mol-u dunyoni haq yo’liga sarflaydi;
(ikkinchisi) kishiga Alloh taolo ilm-u hikmat
beradi. U ilm-u hikmatni (haqqini) ado qiladi
va uni (odamlarga) o’rgatadi”.

Sabrli va bag‘rikeng Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Rasulimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonlarni Islomga da’vat qilayotgan chog‘larida ko‘p qiyinchilik va muammolarga duch kelganlar. Alloh sabrlilar bilan ekanligini juda yaxshi bilardilar. Ular hayoti davomida ko‘rgan qiyinchiliklarni doim sabr bilan kutib oldilar. Hech qachon umidsizlikka tushmadilar va bo’sh kelmadilar. Orzu va xayollaridan voz kechmadilar. Atrofidagilarga ham sabrni, Allohga suyanishni va Allohgagina ishonishni tavsiya qildilar.

Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) tabassumli, muloyim va nihoyatda yumshoq odam edilar. Muborak og‘izlalaridan hech qachon xafa qiluvchi so‘z, haqorat, so‘kinish va la’nat chiqmasdi. Hech kimning qalbini og‘ritmasdilar. Insonlarning kamchiliklarini yuziga solmas, kechirardilar.

Noto‘g‘ri xatti-harakatni ko‘rganlarida: “Ba’zi odamlar bunday-bunday qilmoqda”, – deb aytardilar. Ismini aytmasdan ommaviy ravishda ogohlantirardilar. U kishining xafa bo‘lishini xohlamasdilar.

Payg‘ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) ba’zi ishlarida yordam bergen va yonlarida o‘sgan kichik Anas (roziyallohu anhu)dan rivoyat qilinadi:

“Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) menga biror kun ham: “Uf!” demadilar. Qilgan ishim uchun “Nega bunday qilding?”, qilmagan ishim uchun ham “Nega qilmading?” deb meni urishmadilar.”



Vafodor va fidokor Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) vafoli va qiymat biladigan inson edilar. O‘zlariga qilingan yaxshilikni hech qachon unutmasdilar. Yaxshilik qilgan insonlarni yaxshi so‘zlar bilan yodga olardilar. Sut onalari hazrati Halima kelganida, unga hurmat va mehr ko‘rsatar, “Onajon” deb kutib olar, ustida o‘tirishi uchun xirqalarini yechib berardilar.

Xuddi shunday rafiqalari hazrati Xadicha (roziyallohu anho) onamizning vafotlaridan keyin uni hech qachon unutmaganlar. Chunki onamiz Islomni yoyish vazifasida doimo Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) yonlarida edilar. Bolalarining onasini doimo sevgi va hasrat bilan eslardilar. Xadicha (roziyallohu anho) onamizning do‘stlariga ham vafoli edilar, ularning ahvoldidan xabar olib turardilar. Qachon bir qurbanlik kessalar, qurbanlikning go‘shtidan Xadicha (roziyallohu anho) onamizning yaqinlariga ham doim yuborardilar.



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Saxiy va baxilning xatti-harakatlarini taqqoslaylik.
- Sabrli inson nima yutadi? Sabrsiz inson nima yo‘qotadi? O‘ylab ko‘raylik.
- Qilingan yaxshilikni unutmaslik nima degani? Misol keltiraylik.



Shafqatli va marhamatli Payg‘ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg‘ambarimizning qalblari, shafqatning eng go‘zali, marhamatning eng buyugi bilan to‘la edi. Ular hech kimga bir yomonlik yetishini istamasdilar. Insonlarning dili og‘risa, bu ularni xafa qilardi. Xafa qilishga, joniga zarar berishga va aziyat yetkazishga umuman ruxsat bermasdilar. O‘zlari ham yetim o‘sganlari uchun yetimlardan xabar olar, insonlarga ham yetimlarni asrab-avaylashni tavsiya qilardilar.

Rahmat Payg‘ambari (sollallohu alayhi va sallam) faqat insonlarga nisbatan emas, butun jonzotlarga nisbatan shafqat va marhamat ko‘rsatardilar. Atrofdagi har borliqqa Allohning asari sifatida boqar, qadrlardi. Hayvonlarni och qo‘ymaslik, ularga ham yaxshi munosabatda bo‘lishga chaqirardilar. Daraxtlarni kesmaslik, bog‘ va ekin maydonlariga zarar berilmaslikka buyurardilar.

Bir sahoba Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) shafqatlari haqida shunday deydi:

“Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bilan bir sayohatga chiqqandik. Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ehtiyoj yuzasidan bizdan ayrildilar. U yerda ikki bolasi bo‘lgan chumchuq ko‘rdim va bolalarini oldim. Chumchuq orqamdan kelar, bolalari uchun jon holatda chirqillardi. Buni ko‘rgan Payg‘ambarimiz jahllari chiqib:

- Bu qushni bolasidan ayirgan kim? Darhol unga bolalarini bersin!
- buyurdilar.

Bir marta Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) och qolgan bir tuyani ko‘rib qoldilar. Bechora tuyaning qorni ochlikdan yopishib qolgandi. Bu holatga xafa bo‘lgan Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): “Hayvonlaringiz haqida Allohdan qo‘rqing!” – buyurdilar. O‘zlari esa tuyalari Qasvoga doim yaxshi munosabatda bo‘lib, barchaga o‘rnak edilar.

Bir hadis o‘rganaman

“Marhamat qilganlarga Allo
ham marhamat qilar”.

Bir oyat o'rganaman

"(Ey Muhammad) Biz seni olamlarga faqat rahmat qilib yubordik".
(Anbiyo surasi, 107-oyat)



Insofli va odil Payg'ambarim (sollallohu alayhi va sallam)

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bir jamiyatda huzurga faqat adolat bilan erishish mumkinligiga ishonar, doimo odil edilar. Uni sevgan va sevmagan barcha Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) nohaqlik qilmasliklarini bilardi. Eng qiyin va eng muammoli holatlarda qabilalar ularning hakam bo'lishlarini istar, ularning qarorlarini hurmat bilan qabul qildi.

Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonlarni bir-biridan ayirmasdilar. Barchaga bir xil muomalada bo'lar, chiroyli so'zlar bilan qadrli ekanliklarini his qildirardilar. Boy-kambag'al, yosh-qari, ayol-erkak – hech birini ayirmasdan, ularning haqlarini himoya qilardilar. Qonun-qoidalar oldida, Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) eng yaqin insonlari bo'lgan taqdirda ham, barcha teng edi.

Bir oyat o'rganaman

"Alloh,adolat qilguvchilarni suyadir"
(Hujurot surasi, 9-oyat)

Bir hadis o'rganaman

"Musulmon musulmonning birodaridir. Unga nohaqlik qilmas, uni yordamsiz qoldirmas va uni past ko'rmas".

Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) xotiralar



Do'stlar,

quyida suyukli Payg'ambarimizning(sollallohu alayhi va sallam) boshlaridan o'tkazgan ba'zi voqealar keltirilgan. Har birini o'qib, Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) qaysi xususiyatini bizga ochib berilganligini toping. Keyin esa, matnga mos sarlavha qo'ying.

Sahoba Anas (roziyallohu anhu) shunday deganlar:
“Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonlarning

eng go'zal axloqlisi edilar. Mening Abu Umayr ismli ukam
bor edi. Nug'ayr ismli kichkina chumchuq bilan o'ynardi.
Payg'ambarimiz uni ko'rib qolsalar: “Ey Abu Umayr! Nug'ayr
nima qilyapti?” – deb hazillashar, qushdan hol-ahvol
so'rardilar.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) nabiralari Hasanni
o'pdilar. Bu payt yonlarida Aqro ismli bir kishi o'tirardi. Aqro
shunday dedi: “Mening o'n farzandim bor, lekin hech birini
o'pmaganman”.

Bunga javoban suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi
va sallam) unga qaradilar va shunday dedilar: “Marhamat
qilmaganga marhamat qilinmaydi”.

Shafqat Payg‘ambari (sollallohu alayhi va sallam) bolalarni ba’zan ulovlariga mindirib sevintirardilar. Abdulloh, Usoma va Fadl bu bolalar orasida edi. Rasulullohning (sollallohu alayhi va sallam) bu o‘yinlari bolalarga shunchalik yoqardiki, ularning sayohatdan qaytishlarini to‘rt ko‘z bilan kutardi va ularni kutib olish uchun raqobatlashardi. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ham ularni kutib olgan bolalardan birini ulovining oldiga, birini orqasiga olib, ularni sevintirardilar.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bolalarni yanoqlarini silab sevardilar. Ularning bir teginishlari bolalarga buyuk baxtiyorlik va sharaf berardi.

Abdulloh va Jobir bu omadli bolalardan edi. Jobir boshidan o’tkazgan baxtli onlarini shunday aytib beradi: “Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) bilan birga ilk peshin namozini o‘qidim. So‘ngra, ular uylariga ketish uchun chiqdilar, ular bilan birga men ham chiqdim. Yo‘lda ularni bolalar kutib olishdi. Ularning har birining yanoqlarini bir-bir silashni boshladilar. Mening ham yonog‘imni siladilar. Qo‘llarida yoqimli bir salqinlik va hid his qildim ki, xuddi qo‘llarini atir sotuvchisining savatidan chiqargandek edilar”.

- Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) davrida yashagan bir bola bo‘lsam edi!

Usoma ibn Zayd (roziyallohu anhu) shunday so‘zlab beradilar:

“Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) bir tizzalariga meni, ikkinchisiga nabiralari Hasanni o‘tqazdilar va ikkimizni birdaniga bag‘irlariga bosib: “Robbim! Bularga shafqat va marhamating bilan muomala qil. Chunki, men ham ularga nisbatan marhamatliman”, – derdilar”.

- Seningcha marhamat nima, marhamatli inson kim?

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) do‘sstaridan bo‘lgan sahobalardan biri, qarang, nimani aytib beradilar:

“Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) bilan yo‘lda edik. Hazrati Payg‘ambar (sollallohu alayhi va sallam) ehtiyojlari uchun bizdan nari ketdilar. Bu paytda ikki bolasи bilan bir chumchuq ko‘rdik va u ikki bolasini tutib oldik. Ona qush keldi va ustimizda qanotlarini yozib ucha boshladi. Shu paytda Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) kelib qoldilar va: “Bu qushga bolalari sababli kim muammo tug‘irdi? Darhol bolalarini unga qaytarib bering!” – dedilar.

- Nima deb o‘ylaysan, ona qush nimalarni his qilgan?

So'z ovi



Do'stlar,

topishmog'imizda Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) ba'zi xususiyatlari yashiringan. Qani, endi bu xususiyatlarni toping-chi. Payg'ambarimiz yana qanday xususiyatlarga ega bo'lganliklarini o'rganaylik.

- ishonchlilik
- sabr
- rostgo'ylik
- mehnatkash

- bag'rrikenglik
- shafqat
- to'g'rilik
- yaxshilik

- sevgi
- adolat
- marhamat
- vafo

T	K	N	S	G	E	K	I	M	Y	O	N	L	A	R
Y	O'	L	A	D	O	L	A	T	N	T	E	L	D	A
A	Sh	G'	B	E	M	I	L	K	S	U	F	B	X	A
X	M	A	R	H	A	M	A	T	A	S	F	A	H	J
Sh	A	A	A	I	Q	E	R	T	Y	U	I	G'	O	P
I	K	J	H	F	L	I	M	A	Z	ng	K	R	A	N
L	A	S	E	V	G	I	Q	E	R	I	T	I	Y	Sh
I	Q	M	J	A	A	H	K	X	L	Ch	V	K	N	A
K	U	N	O	F	I	L	I	I	K	E	A	E	A	K
S	R	S	A	O	D	A	L	Q	A	R	A	Ng	L	T
R	O	Y	I	N	A	Ch	O	R	A	L	A	L	B	A
A	N	A	N	A	N	D	D	E	G	H	U	I	M	N
A	G	I	R	O	S	T	G	O'	Y	L	I	K	N	H
A	D	G	Sh	A	F	Q	A	T	H	L	I	K	Y	E
H	G	I	D	Y	Y	I	L	J	H	F	V	B	N	M

Suyukli Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!



- Adolatli bilan zolim insonning xatti-harakatlarini taqqoslang.
- Marhamatli insonning xatti-harakatlariga misol bering.

Nazorat savollari

1. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) tug'ilgan yeri va yili qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 a Madina – 581 b Toif – 530
 c Makka – 571 d Yaman – 537
2. Quyidagi juftliklardan qaysi birida Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalarining va sut onalarining ismlari to'g'ri berilgan?
 a Omina – Fotima
 b Fotima – Oysha
 c Omina – Halima
 d Oysha – Halima
3. "Yerda va osmonga maqtalgan inson" ma'nosidagi Muhammad ismini Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) kim qo'ygan?
 a amakilari Abu Tolib
 b onalari Omina
 c dadalari Abdulloh
 d bobolari Abdulmutallib
4. Makkaliklar Ka'ba ta'miri paytida qaysi xususiyatlari uchun Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) hakam o'laroq tanladilar?
 a sevgi b ishonchlilik
 c yordamsevarlik d marhamat

5. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) farzandlarining ismi qaysi javobda to'g'ri berilgan?
 a Fotima, Ruqiya, Ummu Gulsum, Ibrohim, Abdulloh
 b Zaynab, Ruqiya, Qosim, Abdulloh
 c Fotima, Zaynab, Ruqiya, Ummu Gulsum, Ibrohim, Qosim, Abdulloh
 d Fotima, Zaynab, Ruqiya, Ibrohim, Qosim, Abdulloh
6. Quyidagilardan qaysi Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) o'g'llaridan biri emas?
 a Abdulloh b Ibrohim
 c Qosim d Mustafo
7. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalari vafot etgandan keyin ularni yoniga olgan inson kim?
 a amakilari Abu Tolib
 b bobolari Abdulmutallib
 c onalari Halima
 d do'stlari Abu Bakr roziyallohu anhu
8. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) to'g'riso'z va rostgo'y inson edilar. Shuning uchun atrofidagilar u kishiga nima deb xitob qilishardi?
 a Ahmad b Muhammad
 c Mustafo d Muhammad amin

- 9. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bobolari vafot etgandan keyin kimning qaramog'ida qoldilar?**
- (a) amakilari Abu Tolib
(b) amakilari Hamza roziyallohu anhu
(c) do'slarti Abu Bakr roziyallohu anhu
(d) onalari Halima
- 10. Quyidagilardan qaysi biri Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) qizlaridan emas?**
- (a) Oysha (b) Zaynab
(c) Ruqiya (d) Fotima
- 11. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) onalari – dadalari – bobolarining ismlari qaysi javobda tartibi bilan to'g'ri berilgan?**
- (a) Halima – Abdulloh – Abdulmutallib
(b) Omina – Abdulloh – Abdulmutallib
(c) Omina – Abdulmutallib – Abdulloh
(d) Halima – Abdulloh – Abdulmutallib
- 12. Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) ko'ra otalarning bolalariga beradigan eng go'zal hadiyasi nima?**
- (a) go'zal axloq
(b) o'yinchoq mashina
(c) shirinlik
(d) go'zal ism
- 13. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) Makkadan Madinaga hijrat qilganlarida yo'ldoshlari kim edi?**
- (a) Umar roziyallohu anhu.
(b) Abu Bakr roziyallohu anhu
(c) Ali roziyallohu anhu
(d) Usmon roziyallohu anhu
- 14. Makkadan Madinaga ko'chganlarga yordam bergan madinalik musulmonlar qanday nom bilan ataladi?**
- (a) muhojir (b) sahaba
(c) ansor (d) musofir
- 15. Suyukli Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) so'zlari nima deyiladi?**
- (a) Maqol (b) Hadis
(c) Hikmatli so'z (d) Go'zal so'z
- 16. Makkadan Madinaga hijrat qilgan musulmonlarga nima deyiladi?**
- (a) ko'chmanchi (b) musofir
(c) ansor (d) muhojir
- 17. Madinaga qurilgan masjidning nomi nima?**
- (a) Masjidi Nabaviy
(b) Masjidi Harom
(c) Qubo masjidi
(d) Jome'

18. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) vafot yili va yeri qaysi javobda to'g'ri berilgan?

- (a) 610-yil, Madina (b) 632-yil, Madina
(c) 571-yil, Madina (d) 632-yil, Makka

19. Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) qabrlari qaysi shaharda

- (a) Makka (b) Madina
(c) Toif (d) Jidda

20. Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) ilk vahiy qachon tushdi?

- (a) 610-yil, Ramazon oyida
(b) 610-yil, Rajab oyida
(c) 620-yil, Ramazon oyida
(d) 620-yil, Rajab oyida

21. Rasulullohga (sollallohu alayhi va sallam) necha yoshlarida payg'ambarlik vazifasi berilgan?

- (a) 25 (b) 30
(c) 35 (d) 40

22. Payg'ambarimizga (sollallohu alayhi va sallam) iymon keltirgan do'stlari qanday nom bilan atalganlar?

- (a) ansor (b) musulmon
(c) sahaba (d) muhojir

Axloq

Go'zal odatlarni o'rganaman

170 Axloq nima?

176 Hurmat va muhabbat

181 Javobgarlik hissi va oilamdag'i vazifalarim

193 Pok va vijdonli bo'lish

198 Yaxshilik qilish

203 To'g'ri va ishonchli bo'lish

209 Baham ko'rish va yordam berish

216 Mehnat qilish

Axloq nima?

Har birimiz bizni boshqa odamlardan ajratib turadigan turli xil xususiyatlarga egamiz. Do'stlarimizning ba'zilari baham ko'rishga, ba'zilari tozalikka, ba'zilari esa to'g'rilikka juda ahamiyat berishadi. Ba'zilarimiz shoshqaloq bo'lsak, ba'zilarimiz sabr-toqatli. Kimdir rahmdilroq, kimdir saxiyroq bo'ladi. Qisqasi, axloq – insonga xos bo'lgan fazilatlarning nomi.

Yaxshi axloqqa ega bo'lish biz uchun ham, biz yashayotgan muhit uchun ham foydali bo'lishimizga imkon beradi. Bir-biriga nisbatan muhabbat va hurmat qoidalariga rioya qilib yashagan, baham ko'rgan, ishonchli va rostgo'y bo'lgan, yaxshilik qilgan, mas'uliyatlarini his qilgan insonlardan iborat jamiyatda hammaning hayoti baxtli va huzurli kechadi.

Yaxshi axloqli odamlar tinch va birodarlikda yashaydilar.



Islom – go'zal axloqdir

Muqaddas dinimiz Islom go'zal axloq sohibi bo'lishimizni istaydi. Har doim va har qanday holatda ham chiroyli ishlar qilishimiz kerakligini eslatadi. Ornagimiz va yo'lboshchimiz Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonlarning eng go'zal axloqlisi edilar. Bizga yarashadigani ham xuddi ulardek go'zal axloq elchisi bo'lishdir.

Axloqini yaxshilaydigan, yaxshi bo'lishga va yaxshilik qilishga intiladigan odamlar juda qadrlidir. Bir kuni Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam): "Allah nazdida eng sevimli bandalar kimlar?" – deb so'rashdi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Axloqi eng go'zal bo'lganlar", – deb javob berdilar.



Hurmat

Mehnatkashlik

Fidokorlik

Saxiylik

Yordamlashish

Jasorat

Bag'rikenglik

To'g'rilik

Shafqat

Yaxshilik

Mehmondo'stlik

Birodarlik

Poklik

Do'stlik

Kechirmoq

Baham ko'rmoq

Adolat

Sevgi

Shukr

Ishonch

Sabr

Salomlashish

Javobgarlik

**Bir hadis
o'rganaman**


"Sizning eng xayrlingiz, axloqi
eng go'zal bo'lganингизdir".

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) hayotlarini o‘ylab ko‘raylik: ular toza qalbli bir bola, go‘zal odatlari bo‘lgan bir yigit, to‘g‘ri so‘zli erkak, o‘rnak axloq sohibi bir Payg‘ambar bo‘lgandilar. Bizlar esa ularning ummatimiz. Shuning uchun bizlar ham insonlar bilan bo‘lgan munosabatlarimizdan tortib, yeyish-ichish kabi butun xatti-harakatlarimizda Payg‘ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) o‘rnak olamiz.

Insonlar bilan aloqalarimizda ham xuddi Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) kabi to‘g‘ri so‘zli, ishonchli, mehribon,adolatli, saxiy, sabrli, yaxshi inson bo‘lishga harakat qilamiz.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) bizga ovqatni o‘ng qo‘l bilan yeyishimizni, ovqatni tayyorlagan insonga tashakkur aytishimizni, suvni uch qultumda va o‘tirib ichishimizni, tozalikka ryoja qilishimizni tavsiya qilganlar. Biz ham bu tavsiyalarga amal qilamiz.

Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) taomlarimizni isrof qilmasligimizni istaganlar. Biz ham ovqat yeganda, suv ichganda bunga e’tibor qaratamiz, Alloh bergen ne’matlarni isrof qilmaymiz.



0‘ylaylik! 0‘rganaylik! 0‘rgataylik!

- Axloqimiz go‘zal bo‘lishi uchun nimalar qilishimiz kerak?
- Barchaning go‘zal axloq sohibi bo‘lgan bir jamiyatni tasavvur qilaylik. Qanday bo‘lardi?

Yashilda o't, qizilda tur!



Do'stlar,

yo'l harakati qoidalarini yaxshi bilasiz, shunday emasmi?

Yo'lovchilar sifatida qizilda turamiz, yashilda esa yo'lidan o'tamiz.

Bu mashqda yaxshi xatti-harakatlarni yashil bilan, yomon xatti-harakatlarni esa qizil bilan belgilang. Nima uchun yaxshi va yomonligini ham aytib o'tishni unutmang.



Alining dadasi bilan namozi o'qishi.

Chunki



Birovning narsasini so'ramasdan ishlatish.

Chunki



Ahmadning ishonchli bola bo'lishi.

Chunki



O'simlik va hayvonlarga zarar berish.

Chunki



Madinaning ovqatni "Bismillah" deb boshlashi.

Chunki



Oyshaning o'yinchog'ini qo'shnisiga hadya qilishi.

Chunki



Masxara qilish.

Chunki



Uyga "Bismillah" deb kirish.

Chunki

Mosini yozing



Aziz do'stlar,

quyidagi so'zlardan mosini olib, jumlalardagi bo'sh joylarni to'ldiring.

DASTURXON DUOSI

الْحَمْدُ لِلّهِ الَّذِي أَطْعَمَنَا وَسَقَانَا وَجَعَلَنَا مِنَ الْمُسْلِمِينَ

“Bizni to'ydirgan, ichirgan va musulmonlardan qilgan Allohga hamd bo'lsin”.

- yuvardi
- gaplashmasdi
- Bismillah
- Bismillahi fi avvalihi va axiri
- oldidan
- Alhamdulillah
- uch qultumda
- o'ng

Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam):

1. Ovqatdan oldin _____ derdilar.
2. Ovqatdan keyin _____ deb, bergan ne'matlari uchun Allohga shukr aytardilar.
3. “Agar ovqatdan oldin “Bismillah” deyishni unutsangiz, esingizga tushganda _____ (boshida ham oxirida ham alhamdulillah) deng” deb tayinlardilar.
4. Ovqatni _____ qo'li bilan yerdilar. Kichik tishlab yerdilar.
5. Ovqatni _____ yerdilar.
6. Og'zida ovqat bor payti _____ .
7. Suv ichganlarida _____ ichardilar.
8. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) dasturxon atrofiga o'tirishdan avval qo'llarini _____ .

Savollar bu yerda, javoblar qayerda?



Aziz do'stlar,

quyidagi savollarning javoblarini o'ng tarafda bo'sh qutilarga yozing.

Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) ovqatdan oldin o'qigan duolari

Ovqat yeyayotganda qilinishi go'zal bo'lgan xatti-harakat

Ovqatni tayyorlagan kishiga aytishi kerak bo'lgan so'z

Payg'ambarimizning ovqatdan keyin o'qigan duolari

Ovqat yeyayotganda qilinishi kerak bo'lмаган xatti-harakat

Ovqatni baham ko'rishimiz kerak bo'lgan insonlar:

Isrof qilmaslik uchun e'tibor berishimiz kerak bo'lgan jihatlar:

Muhabbat va hurmat

- Moviy osmon... Rang-barang kapalaklar... Tomchilab yoqqan yomg'ir... Pag'a-pag'a yoqqan qor... Kamalak... Yorqin yulduzlar... Yomg'irdan keyin tuproq hidi... Ming bir rangli gullar... Mevalari osilgan daraxtlar... Chamanda yugurib yurgan qo'zichoqlar... Ularning barchasi chiroqli... Bahor boshqacha, kuz boshqacha go'zal... Yoz boshqacha, qish boshqacha go'zal... Ularning nomlarini eshitish ham bizda totli bir his uyg'otdi... Bu tuyg'uning nomi muhabbatdir...

Birgalikda yashayotgan odamlarga va atrof-muhitga nisbatan yaxshi xulq-atvorimiz bizning ichimizdagi muhabbat natijasidir. Hurmat, do'stlik, hamjihatlik va mehr-oqibat kabi xatti-harakatlar Allohning qalbimizga joylagan noyob ne'mati bo'lgan sevgining natijasidir.

Muhabbat to'la insomiz... Muhabbat to'la qalbimiz bor... Chunki biz musulmonmiz... Allohni juda sevamiz. Yaratgan, bizni yashatgan, bizga seva oladigan qalb bergen Allohni barchadan ko'proq sevamiz. Keyin bizga Robbimizni tanitgan Payg'ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) sevamiz. O'zimizni, ota-onamizni, qarindoshlarimizni, musulmonlarni sevamiz. Barcha odamlarni va mavjudotlarni sevamiz. Chunki ularning barchasini Alloh yaratgan. Muhabbat to'la qalbimiz bor... Vatanimizni, bayrog'imizni sevamiz. Azonimizni sevamiz...

Biz Allohni juda sevamiz va Alloh ham bizlarni sevadi. Allohning bizga bo'lgan sevgisini, Uning bizlarni yaratishidan va bizlarga bergen ne'matlaridan bilib olamiz. Sabzavotlarimiz va mevalarimiz U yaratgan quyosh bilan o'sadi. U yaratgan asalarilar biz uchun asal to'playdi. U yaratgan oy tungi chiroq kabi bizni yoritadi. Uning osmondan tushirgan suvini ichamiz. Biz U yaratgan ko'z bilan ko'ramiz, qulq bilan eshitamiz, U yaratgan yurak bilan sevamiz.

Bir insonning haqiqatdan sevgi to'la ekanligini uning xatti-harakatlaridan anglab olamiz. Chunki sevgi, insonning harakatlarida aks etadi. Sevgini totgan inson, atrofiga ham sevgi taratadi. Qalbidagi sevgi, yaxshi xatti-harakatlarga aylanadi.

Payg‘ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) o‘rnak olishimiz, ularga bo‘lgan sevgimizning isbotidir. Ota-onamizga bo‘lgan hurmat va izzat, ularga bo‘lgan sevgimizni ko‘rsatadi. Insonlar bilan birodarlik aloqalarini qurishimiz, ularni sevishimizni ko‘rsatadi. Atrof-muhitga zarar bermasligimiz, iflos qilmasligimiz va hech narsani isrof qilmasligimiz butun borliqlarga bo‘lgan sevgimizning natijasidir.

Qur’oni karimda bir-biri bilan yordamlashgan, yaxshilik qilgan, pokiza bo‘lgan, adolatlilik bo‘lgan, sabr qilgan, so‘zida turadigan, yomonliklardan o‘zini himoya qilgan insonlarni Alloh juda sevishi aytilgan. Alloh sevgan xatti-harakatlarga nazar solsak, barchasining go‘zal amallar ekanligini ko‘ramiz. Shu sababli, Alloh sevgan inson bo‘lish uchun, bir umr yaxshi amallar qilishimiz kerak. Yomon, xafa qiladigan so‘z va amallardan uzoq turamiz.

Bir oyat o‘rganaman

“Batahqiq, sizlarga o‘zingizdan bo‘lgan, sizning mashaqqat chekishingiz uning uchun og‘ir bo‘lgan, sizning (saodatga yetishishingizga) tashna, mo‘minlarga marhamatli, mehribon bo‘lgan Payg‘ambar keldi”.

(T(Tavba surasi, 128-oyat)

Bir hadis o‘rganaman

“Mo‘min bo‘lmaguningizcha jannatga kirmassiz. O‘zaro muhabbat qilmaguningizcha mo‘min bo‘lmassiz. O‘zaro muhabbat qilishingizga sabab bo‘ladigan narsaga dalolat qilaymi? Orangizda salomni yoying!”



Barchani hurmat qilaman

Inson yolg'iz, jamiyatdan uzoq yashay olmaydi. Oilamiz, qo'shnilarimiz va do'stlarimiz bilan hayotimizni baham ko'rganimizda baxti bo'lamiz. Shunga qaramay, unutmasligimiz kerakki, biz yashayotgan odamlar bilan munosabatlarimizda e'tibor berishimiz kerak bo'lgan ba'zi muhim qoidalar mavjud. Hurmat qilish ulardan biridir.

Hurmat - bu qarshimizdagi insonni tinglash va qadrlash demakdir. Hurmat - bu boshqalarning huquqlarini qabul qilish va tushunishdir.

Oilamiz biz uchun juda qadrlidir. Onamiz, otamiz, bobomiz, buvilarimiz, amakimiz, ammamiz, tog'amiz, xolamiz va boshqa qarindoshlarimiz bizga mehribon oilamiz a'zolaridir. Ularga nisbatan hurmatda bo'lishimiz kerakligini bilamiz. Chunki dinimiz barchaga, ayniqsa, oila buyuklariga hurmat bilan munosabatda bo'lishimizni xohlaydi. Masalan, uyga bir buyugimiz kelganida, o'rnimizdan turib, unga salom beramiz. Biz uning salomiga alik olamizmiz, qo'lidagi narsani olib, unga yordam beramiz.

Albatta, biz nafaqat oilamizdagi kattalarni, balki o'zimizdan kichiklarni ham hurmat qilamiz. Masxara qilish, kamsitish va qo'pollik kabi xatti-harakatlardan uzoq turamiz. Qo'shnilarimizga, o'qituvchilarimizga, do'stlarimizga va mahallamizda yashaydigan barcha odamlarga xuddi shunday munosabatda bo'lamiz.

Chunki hayotda bir-birimizga muhabbat va ehtirom bilan munosabatda bo'lsak, yaxshi inson bo'lolamiz.

Bir hadis organaman

"Besh narsani besh narsa kelishidan oldin g'animat bil; qarilikdan oldin yoshlikni, kasal bo'lishdan oldin salomatlikni, faqirlikdan avval boylikni, mashg'ullikdan avval bo'sh vaqtini va o'limdan avval hayotni".



0'zimni ham hurmat qilaman

Boshqa insonlarni hurmat qilish bilan bir qatorda o'zimizga ham hurmat ko'rsatishimiz muhimdir. Masalan, birimiz sariq sochli, birimiz qora sochli; ba'zilarimiz moviy ko'zli, ba'zilarimiz malla ko'zlimiz. Alloh har birimizni farqli yaratgan. Alloh bizni qadrlagani kabi, biz ham o'zimizni qadrlashimiz kerak. O'zimizni qadrlashimiz, aqlimizga va vujudimizga zarar beradigan narsalardan uzoq bo'lishimizda namoyon bo'ladi. Zararli oziq-ovqatlarni yemasligimiz, kasal bo'lishning oldini olishimiz kerak.

Xuddi shunday, bo'sh vaqtlarimizni go'zal va foydali shaklda o'tkazishimiz kerak.

Bir oyat o'rganaman

"Ey, iymon keltirganlar! Bir qavm boshqasini masxara qilmasin, ehtimol, ular bulardan yaxshiroqdir. Va ayollar ham boshqa ayollarni (masxara qilmasin), ehtimol, ular bulardan yaxshiroqdir. Va o'zingizni o'zingiz masxara qilmang, bir-biringizga laqab qo'y mang. Iymondan keyin fosiqlik ismi naqadar yomon! Va kim tavba qilmasa, bas, ana o'shalar, o'zlari zolimlardir".

(Hujurot surasi, 11-oyat)



Bir hadis o'rganaman

"Kichigimizga rahm qilmagan,
kattamizni ulug'lamagan,
yaxshilikka buyurmagan va
yomonlikdan qaytarmagan kishi
bizdan emas".



Savol bulutlari



Do'stlar,

siz hech savol bulutini ko'rdingizmi? Mana, ular, qarshingizda!

Yaxshi bir
do'stingda qanday
xususiyatlar bo'lishini
xohlaysan?

Do'stingda
bo'lishini
xohlagan
xususiyatlarning
qaysilari senga xos?

Do'stingda
qanday
xususiyatlar bo'lishini
xohlamaysan?


Yoqtirmagan
biror xususiyating
bormi? Uni
o'zgartirishga tayyormisan?

Javobgarlik hissi va oilamdag'i vazifalarim



Koinotda har bir mavjudotning vazifasi bor

Alloh yer yuzidagi hech bir borliqni maqsadsiz yaratmagan. Eng kattasidan eng kichkinasigacha, barcha mavjudotlarning yaratilishidan maqsad va vazifasi bordir. Quyosh har kuni chiqadi, dunyomizni yortadi va isitadi. Bulutlardan yomg'ir yoqqanidan keyin, tuproqqa baraka kiradi, meva-sabzavotlar ulub-o'sadi.



Koinotdagi har borliq Allohnning bergan vazifasini eng go'zal shaklda bajaradi. Arilar asal to'plashdan, sigirlar, qo'ylar sut berishdan charchashmaydi. Quyosh chiqishi kerak bo'lgan vaqt ni bir soniyaga ham kechiktirmaydi. Bahor kelganda gullar ochilmayman, demaydi. Daraxtlar qushlarga, dengizlar baliqlarga uy bo'ladi. Barchasi o'z vazifalarini xato qilmasdan bajaradilar.



Mening ham javobgarliklarim bor

Koinotdagi har bir mavjudot vazifalarini bajarar ekan, koinotning sevimli mavjudoti bo'lgan insonning mas'uliyatsiz harakat qilishi mumkin emas. Chunki inson aql va iroda sohibidir.

Alloh yaxshilikni va go'zallikni yer yuzida g'olib qilishi uchun insonga vazifalar bergan. Qur'oni karimdag'i buyruq va ta'qiqlarga rioya qilish, koinotdagi tartibni himoya qilish, birgalikda yashab turgan jamiyatning qonunlariga rioya qilish – vazifalarimizdandir. Vazifalarimizni bajarganimizda Robbimiz ham bizni sevadi.





Javobgarliklarimizning bir qismi Rabbimizgadir. Masalan, namoz, ro'za kabi ibodatlarimizni kamchiliksiz bajaramiz. Bir qismi esa o'zimizga va boshqa insonlarga nisbatandir. Misol uchun, tartibli va toza bo'lishga harakat qilishimiz, sog"lig'imizga e'tibor berishimiz, ota-onamizga yordam berishimiz, xonamizni yig'ishtirishimiz, vaqtida uxbab, vaqtida turishimiz kabi. Insonlarga yordam beramiz, qoidalarga rioya qilamiz. Tabiatni sevamiz va himoya qilamiz, atrof-muhitni toza tutamiz. Allohga, bizga bergen ne'matlari uchun shukr aytamiz va aslo isrof qilmaymiz.

Bilasizmi?

Turkiyada bir yilda o'rtacha 2 milliarddan ziyod non isrof qilinadi. Non isrofi, Turkiya iqtisodiyotiga har yili juda katta zararlar bermoqda.



Majburiyatlarimni his qilaman

Majburiyatlarimizni hech kim eslatmasidan bajarishimiz ulg'ayganimizdan darak beradi. Katta bo'lganimiz uchun ham vazifalarimizni mustaqil va qiyalmasdan bajaramiz.

Vazifalarimizni vaqtida qilmaganimizda hayotimiz ostin-ustun bo'lib ketadi. Masalan, vaqtida uqlashga yotmaganimizda ertalab kech uyg'onamiz va maktabga kech qolamiz.

O'yin o'ynayotganimizda uy vazifalarini bajarmaganimizni eslaganimizda birdaniga xavotirga tushamiz, nima qilishimizni bilmay qolamiz. Lekin, hamma narsani vaqtida qilsak bu muammolarning hech qaysisi bo'lmaydi.

Vazifa va majburiyatlarimizni bajarganimizda bir-birimizning haqlarimizni hurmat qilgan bo'lamiz. O'z majburiyatlarimizni his qiladigan, atrofimizga nisbatan e'tiborli inson bo'lamiz. Ana shunda dunyoda yashash yanada huzurli, yanada baxtli holga aylanadi.

Majburiyatlarini biladigan inson bo'lishimiz bizni va atrofimizdagi insonlarni ham baxtiyor etadi. Uydagi majburiyatlarimiz – oiladagi hayotimizni, maktabdagagi majburiyatlarimiz esa ta'lim hayotimizni go'zallashtiradi.

Jamiyatdagi majburiyatlarimiz esa insonlar bilan aloqalarimizni go'zallashtiradi. Allohga nisbatan majburiyatlarimiz esa yaxshi inson bo'lishimizni ta'minlaydi. Qisqasi, majburiyat hissi bizni maqsadsiz bo'lishdan asraydigan, hayotimizni tartibga soladigan vijdon amridir.



Oilamdagı vazifalarım

Tug'ilgan paytimiz oilamızning shafqatlı quchog'ida bo'lamiz. O'zi mustaqil ovqat yeyolmaydigan, kiyimlarini o'zi kiyolmaydigan jajji bir chaqaloq ekanligimizda oilamiz bizni sevgi va mehr bilan katta qilishadi. Xafa bo'lishimizni, kasal bo'lishimizni, xavf ostida qolishimizni aslo xohlamaydigan oilamiz. Bir tabassumimiz bilan baxtli bo'ladigan, biroz kayfiyatsiz holimizda bizga dalda bo'ladigan oilamiz.

Bir oyat o'rganaman

"Biz insonga ota-onasi haqida tavsiya qildik:
onasi uni zaiflik ustiga zaiflik bilan ko'tardi;
uni sutdan ajratish ikki yillardir. Menga va
ota-onaga shukr qilgin. Va qaytish faqat
Mengadir".

(Luqmon surasi, 14-oyat)

Bir hadis o'rganaman

"Kimki Allohga va oxirat kuniga
iymoni bo'lsa, bas, mehmonini
izzat-ikrom qilsin!"

Ular bizni sevgani kabi, biz ham ularni sevamiz, bizga qilgan xizmatlari uchun uchun minnatdor bo'lamiz. Bizga berilgan vazifalarni eng go'zal shaklda bajaramiz. Oilamizdan tabassumimizni va shirin so'zimizni ayamaymiz. Oila ichida oljanob, tushunadigan, kechirimli, sabrli va bag'rikeng bo'lamiz. Ukalarimizga mehribon, ota-onamizga, bobo-buvimizga hurmat bilan munosabatda bo'lamiz. Allohdan butun oila a'zolarimizga va qarindoshlarimizga sog'lik, baxtli va uzun umrlar berishini so'raymiz.

Bir oyat o'r ganaman

"Robbing faqat Uning O'zigagina ibodat qilishningni va ota-onaga yaxshilik qilishni amr etdi. Agar huzuringda ularning birlari yoki ikkovlari ham keksalikka yetsalar, bas, ularga "uff" dema, ularga ozor berma va ularga yaxshi so'z ayt".

(Isro surasi, 23-oyat)





Oilamdag'i vazifalarimni bajaraman

Ukalarimiz bilan urishmaymiz. Narsalarimizni bir-birimizdan qizg'anmaymiz. Birga o'ynaymiz. Darslarimizda bir-birimizga yordam beramiz. Kattalarga yordam beramiz, ular bizdan xohlagan narsalarni kuchimiz yetgunicha bajaramiz. Bunday qilishimiz ularni juda xursand qiladi. Masalan, bobomizga suv olib kelib berganimizda yoki ko'zognagini topishga yordam berganimizda, "Rahmat bolam, Allah senga xayrli va uzoq umr bersin", – deb, bizni duo qiladilar. Bunday duoni eshitish bizni ham juda baxtli qiladi.

Uyimizga mehmon keladigan bo'lsa, biz ham tayyorgarlik ko'rishga yordam beramiz. Mehmonlarimizni kattalarimiz bilan birga kutib olamiz, ular uchun tayyorlagan taomlarni ikrom qilamiz. Mehmonlarimizga tabassum qilamiz va shirin so'zli bo'lamic, eng go'zal shaklda mehmon kutishga harakat qilamiz. Kelgan mehmonlar uyimizning barakasi va quvonchi ekanligini unutmaymiz.

Qarindoshlarimizga nisbatan ham bajarishimiz kerak bo'lgan majburiyatlarimiz bor. Ularni hayitlarda ziyorat qilish, kasal bo'lganlarida ularga g'amxo'rlik qilish, muhim qarorlar qabul qilinganda ularning ham fikrini so'rash, nima deb o'yashlarini o'rganish, ularning gaplarini bo'lmaslik – kattalarimizga nisbatan go'zal xatti-harakatlarimizdan hisoblanadi.

Yodingizda bo'lsin! !

Do'stlar, uyimizga tashrif buyurgan mehmonlarni kutib olishda ularga "Xush kelibsiz!" – deyishni, ketayotganlarida esa xayrlashishni unutmaylik.



Oilamizdagi vazifalarimiz

- » Oila buyuklarining so'zlarini tinglash.
- » Ular uchun Allohga duo qilish.
- » Ularga ishlarida yordamchi bo'lish.
- » Gap va amallarimiz bilan ularni xafa qilmaslik.
- » Ularga nisbatan doim to'g'riso'z bo'lish.
- » Kerak payti ulardan ruxsat olish.
- » Majburiyatlarimizni bajarish.



Kattalar bizga yaxshilikni ravo ko'radi

Kattalarimiz har doim bizning saodatimizni va baxtli bo'lishimizni orzu qiladilar. Hayot tajribalari biznikidan ko'p bo'lgani uchun ba'zi masalalarda bizga tavsiyalar berishadi va bizga to'g'ri yo'lni ko'rsatishadi. Bu holat ba'zan bizga yoqmasligi mumkin, faqat vaqt o'tgan sari ularning haq ekanligini tushunib yetamiz. Masalan, bahorda havolar isib ketdi deb o'ylab, yozgi kiyimlarda ko'chaga chiqib o'ynashni xohlaymiz. Onamiz, dadamiz ustimizga qalinqroq kiyim kiyishimizni istashadi, biz esa kiymaymiz. Keyinchalik, sezmagan holda sovqotib, kasal bo'lganimizda ularning qanchalik haqli ekanliklarini anglab yetamiz.



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!


- "Jannat onalar oyog'i ostidadir" hadisidan tushunganlaringizni do'stlaringiz bilan baham ko'ring.

Biz – katta oilamiz!



Aziz do'stlar!

Quyidagi oila daraxtidagi olmalarga oila a'zolarimiz va qarindoshlarimizning ismlarini yozaylik. Keyin esa rasmimizni bo'yaylik.



- Oilada bizning vazifalarimiz nimalar iborat?

1. _____
2. _____

- Kattalarning gapiga qulq solish nima uchun muhim?

1. _____
2. _____

- Birorta ham qarindoshimiz bo'lмаганда нима qillardik? Qarindoshlarimizga nisbatan majburiyatlarimiz nimalar, yoz-chi?

Mehmon kutyapmiz



Do'stlar,

bilasizki, mehmonlarimizni chiroyli mehmon qilish dinimiz bizdan istagan xatti-harakatlardan biridir. Aytaylik, bugun kechga yaqin qarindoshingiz oиласи bilan siznikiga mehmonga borishini aytdi. Mehmonlaringiz uchun qanday tayyorgarlik ko'rasiz?

1. Tayyorgarlik payti senga qanday vazifalar berilishi mumkin? Kattalar sening nimalarga e'tibor berishingni xohlashadi?

2. Agar sen mehmon bo'lsang, seni qanday mehmon qilishlarini xohlarding?

3. Nima deb o'ylaysan, nima uchun dinimizda mehmondorchilik ulkan yaxshilik hisoblanadi?

4. Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) mehmonning qilgan duosi qabul bo'lishini aytganlar. Yana kimning duosi qabul bo'ladi, o'rganib ko'raylik.

Men bo'lganimda...

1. Bekorga yonayotgan chiroq bo'lganimda o'zimni
baxtsiz _____ his qilardim.

Chunki _____



2. Bekorga oqayotgan suv bo'lganimda, o'zimni
_____ his qilardim.



Chunki _____

3. Yangi bo'limganligi uchun endi kiyilmayotgan bir kiyim
bo'lganimda o'zimni _____ his qilardim.

Chunki _____



4. Bekorga uchi o'tkirlangan qalam bo'lganimda,



o'zimni _____ his qilardim.

Chunki . _____

5. Likopchada yarim qolgan ovqat bo'lganimda,
o'zimni _____ his qilardim.

Chunki _____



Topdim!



Do'stlarim,

yondagi jadvalda harflarni va ularning alifbodagi tartibini ko'rib turibsiz. Raqamlarning qarshisidagi harflarni katakchalarga to'g'ri yozsak, Qur'oni karimdan bir oyat o'rtaga chiqadi. Qani, boshladik, unda!

A	B	D	E	F	G	H	I	J	K	L	M	N	O	P
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
Q	R	S	T	U	V	X	Y	Z	O'	G'	Sh	Ch	ng	'
16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30



- Tejamkor bo'lish nima uchun muhim?

Toza va himmatli bo'lish



Tozalikni sevaman

Suyukli Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Alloh pokdir, pok bo'lganlarni sevadir", – deganlar. Shuning uchun ham ibodatlarimizni bajarishda, ham kunlik hayotimizda tozalikka e'tibor berib, Allohnning sevgisiga erishamiz. Ibodatlarimiz bilan tozalik o'rtasida aloqa bordir. Masalan, namoz o'qish uchun tahorat olamiz. Namoz o'qiyotgan kiyimimiz va joyimiz toza bo'lishiga e'tiborli bo'lamiz.

Toza bo'lish insonning o'ziga bo'lgan hurmatini va ishonchini oshiradi. Birinchi navbatda badan, kiyim va atrof tozaligiga diqqat qilamiz. Misol uchun, cho'milamiz, tirnoqlarimizni olamiz, bir kunda kamida ikki marta tishlarimizni yuvamiz. Uyimizni va ko'chamizni toza tutamiz, liboslarimizni kir qilmaslikka harakat qilamiz. Bilamizki, biz uchun kiyimlarimizning yangi bo'lishi emas, toza bo'lishi muhim.

Top-toza muhit uni himoya qilayotgan insonga huzur bag'ishlaydi, qadrini oshiradi. Atrof-muhitga tashlangan har bir chiqindi faqatgina ko'chani emas, balki ko'zimizni va qalbimizni ham kir qiladi. Bundan tashqari, yeydigan va ichadigan narsalarimizning tozaligiga ham e'tiborli bo'lamiz. Chunki sog'gom yashashning birinchi sharti toza bo'lishdir.

Bir hadis o'rghanaman

"Inson ikki ne'matning qadriga ko'pincha yetmaydi. Bular: sog'lik va bo'sh vaqt".

Barchamiz Allohning biz uchun yaratgan va ulg‘ayishimizni xohlagan sabzavotlarini, rang-barang mevalarni iste’mol qilishdan baxtiyor bo’lamiz. Ammo, iste’mol qilayotgan mahsulotlarning toza bo’lishi juda muhim. Ularni yuvmasdan yeb, kasal bo’lishni hech birimiz xohlamaymiz. Bundan tashqari, ovqat yeyishdan oldin va yeb bo’lgandan keyin xuddi Payg‘ambarimizdek, qo’llarimizni yuvamiz. Payg‘ambarimizni (sollallohu alayhi va sallam) o’rnak olib, xojatxonani toza saqlaymiz, cho’milishimizni kechiktirmaymiz. Shirin hid kelib turadigan, top-toza bolalar bo’lamiz.



Xato qilganimda kechirim so’rayman

Yaxshi amallardan yana biri kerak payti uzr so’ray olishdir. Hech birimiz insonlarni xafa qilish va ko’nglini og’ritishni istamaymiz. Lekin xohlamay xato qilgan paytimiz bo’lgan. Sezmasdan do’stimizni xafa qilgan, yo’lda shoshib ketayotganda yonimizdagini turtib ketgan bo’lishimiz mumkin. Qilgan xatomizdan pushaymon bo’lib, “Qaniydi, bunday bo’limganda”, deb o’ylaymiz. Ana shunday holatlarda uzr so’rash qilinishi kerak bo’lgan eng go’zal amaldir.

Chunki uzr so’raganimizda qayg‘umizni bildiramiz, tuyg‘ularimizni baham ko’ramiz va qarshimizdagи insondan bizni tushunishi kutamiz.

Aytaylik, maktabda zinalardan chiqayotganda, bir bola sizni juda qattiq turtib ketdi. Ham og’ridi, ham qo’lingizdagi daftar-kitoblarining yerga sochilib ketdi. Sizni turtib ketgan bola esa hech narsa bo’limgandek, yo’lida davom etdi. Bunday holatga tushganingizda nima qilardingiz? O’zingizni yomon his qilmasmidingiz?

Holbuki, u bola buning uchun sizdan uzr so’rasa, yerga tushgan narsalariningizni olishda yordam bersa, jaxlingiz va og’rig‘ingizning o’rnini bir onda bag’rikenglik egallardi. Ko’rdingizmi, uzr so’rashning ana shunday mo’jizali ta’siri bor.

Ba’zan insonlar xato qilmadim, deb o’ylaydi va o’zlarini haqli, deb hisoblaydi. Chunki uzr so’rasa, haqsiz bo’lib qolishlaridan qo’rqadi. Holbuki, har bir inson xato qilishi mumkin. Muhimi, hech xato qilmaslik emas, ayni xatoni takrorlamaslik.



Yaxshiliklarga tashakkur aytaman

Komil insonning xususiyatlaridan yana biri yaxshiliklarga rahmat aytishidir. Xasta bo'lganimizda, do'stimiz kitoblarimizni ko'tarsa, yoki tushunmagan darsimizni tushuntirib bersa, o'zimizni juda baxtli his qilamiz. Chunki insonlar, qadrli insonlariga yordam beradilar. Ana shunday insonlarga sevgilarini namoyon qilganlari uchun minnatdorchilik bildiramiz. Chunki rahmat aytish qarshimizdagи insonga bu xattiharakatidan qanchalar mamnun ekanligimizni bildirish va bu harakati biz uchun o'ta qadrli ekanligini bildiradi.

Tashakkur aytish, qilingan yaxshilikni his qilishdir. Tashakkur aytish, bir majburiyat emas, samimiy tuyg'ularimiz bilan aytgan go'zal va nazokatli xattiharakatimizdir.

Masalan, bizga sovg'a berilganda juda xursand bo'lamiz va uni bergen kishiga rahmat aytamiz. Qalamimizning uchi sinib qolganda ortiqcha qalamini bergen do'stimizga, pishirgan ovqatidan bir likopcha bizga ham olib kelgan qo'shnimizga tashakkur aytamiz. Ehtiyojlarimizni qondirgan onamiz va otamizga rahmat aytamiz. Yaxshi o'qiganligimiz uchun bizni tabriklagan o'qituvchimizga rahmat aytamiz.

Insonlarning eng kichik yaxshiliги uchun rahmat aytganimizdek, Allohga ham tashakkur aytishni unutmaymiz. Bu koinotni, undagi mayjudotlarni; oilamizni, do'stlarimizni, badanimizni, sog'lik va hayot kabi turli-tuman ne'matlarni biz uchun yaratgan Allohdир. Shuning uchun, masalan, ovqat yeiotganda ham uni pishirgan insonga tashakkur aytamiz, ham Allohga shukr keltiramiz. Bu esa, dasturxonimizdagи ne'matlarni Alloh yaratganligini unutmaganligimizni bildiradi. Ovqatdan oldin "Bismillah", ovqatdan keyin esa "Alhamdulillah" deb Robbimizga shukr qilamiz.



Bir oyat o'rganaman

"Qasamki, agar shukr qilsangiz,
albatta, sizga ziyoda qilurman".

(Ibrohim surasi, 7-oyat)

Bir hadis o'rganaman

"Insonlarga tashakkur aytmagan
kishi, Allohga shukr qilmagan
bo'ladı".

Avval o'rgangan duomizni
takrorlaylik.

BISMİLLAHİR ROHMANİR ROHİYM

"Alhamdulillahil-laziy at'amana va saqona va ja'alna
minal muslimiyn".

MA'NOSI:

"Bizni yedirib-ichirgan va
musulmon o'laroq yaratgan
Allohga hamd bo'lsin".

(Omin)

0'ylaylik, 0'rganaylik, 0'rgataylik



- Tozalikka e'tibor berilmaganda nimalar bo'lishi
mumkinligini tasavvur qiling.
- Toza qalbli bo'lish nima degani? Bunday insonlarning
xatti-harakatlaridan misollar keltirolasizmi?

Bir Düşünelim Bakalım!



Aziz do'stlar,

quyidagi savollarga javob bering.

1. Eng oxirgi marta kimdan kechirim so'radingiz?
.....
2. Kechirim so'rashning qanday foydalarini ko'rdingiz?
.....
3. Kechirim so'ragan paytingiz nimalarni his qildingiz?
.....
4. Sizni xafa qilgan do'stingiz kechirim so'ramasa, nima his qilasiz?
.....
5. Kechirim so'rashda qiynalasizmi? Kerak payti o'z xatoingizni tushunib, kechirim so'raysizmi?
.....
6. Eng oxirgi marta kimga rahmat aytdingiz?
.....
7. Rahmat aytishning qanday foydalarini ko'rdingiz?
.....
8. Tashakkur aytganingizda nimalarni his qilasiz?
.....
9. Bir do'stingizga yaxshilik qilganingizda rahmat aytmasa, nima his qilasiz?
.....
10. Rahmat aytishda qiynalasizmi? Kerak bo'lganda tashakkur aytasizmi?
.....

Yaxshilik qilish

Yodimizda bo'lsin!

Yaxshilikning ko'pi-kami bo'lmaydi. Barcha yaxshiliklar qadrlidir.



Yaxshilikdan voz kechmayman

Yaxshilik – bu Allohga ma'qul keladigan har qanday xatti-harakat. Yaxshi odam deganda yaxshilik qiladigan odam tushuniladi. Namoz o'qish, ro'za tutish va zakot berish, shuningdek, kattalarga, yoshi ulug‘ insonlarga hurmat ko'rsatish, muhtojlarga yordam berish va odamlarga zarar yetkazadigan narsalarni bartaraf qilish ham yaxshilikdir. Yaxshilik – bu ba'zida yangi narsa o'rganish, ba'zida o'rganganimizni boshqalarga o'rgatishdir.

Alloh odamlarni bir-biriga muhtoj qilib yaratgan. Hech qaysi birimiz bu hayotda yolg‘iz yashay olmaymiz. Ichida yashayotganimiz muhitimiz bor. Barchamizning oilamiz, qarindoshlarimiz, qo'shnilarimiz va do'stlarimiz bor. Shu sababli, bu birdamlik bizga atrof-muhit va odamlar oldida yangi vazifalar va mas'uliyatlar yuklaydi.

Yashashimiz mumkin bo'lgan boshqa dunyo, nafas olishimiz mumkin bo'lgan boshqa osmon, qadam bosishimiz mumkin bo'lgan boshqa bir yer yuzi yo'qligini bilamiz. Shuning uchun, biz birgalikda yashashishimiz va dunyoni baham ko'rishimiz kerak.

Atrofimizdagи odamlar doimo bizga yaxshi va chiroyli munosabatda bo'lishlarini istaymiz. Achchiq so'zlarni eshitsak, xafa bo'lamiz. Shuni unutmasligimiz kerakki, agar biz qarshimizdagи insonda yaxshi xulq-atvorni ko'rishni istasak, o'zimiz ham yaxshi xulq-atvorli bo'lishimiz kerak. Chunki, bizga qanday munosabatda bo'lishlarini xohlasak, boshqalarga shunday muomalada bo'lishimiz kerak. Hamma bizga yaxshi muomala qilsin, ochiq chehra bilan boqsin, bizga nisbatan to'g'riso'z bo'lsin, bizni sevsin, bizni hurmat qilsin desak, bularning barchasini qarshimizdagи insonlarga avval o'zimiz ko'rsatishimiz

kerak.

Yaxshilikning ozi-ko'pi bo'lmaydi. Har qanday yaxshilik qadrlidir. Qalbi pok insonlar yaxshilik qilishda bir-birlariga yordam berishadi. Chunki, Alloh yaxshilik qilgan insonlarni sevar, har bir yaxshilikka eng kamida o'nta savob beradi.

Bu dunyoda qilgan har bir yaxshi va solih amallarimiz oxiratda savob va go'zallik ko'rinishida qarshimizga chiqishini bilamiz. Qilgan hech qaysi yaxshiligidan bekorga ketmaydi. Alloh biz qilgan yaxshiliklarning mukofotini yo bu dunyoda, yoki oxiratda, albatta, beradi.

Bu dunyoda tinch-totuv yashashimiz, bir-birimizga yaxshiliklar qilishimizga bog'liq.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) dedilar:

"Bir inson yo'lda ketayotganda, juda chanqabdi. Biroz yurib, suv topib, ichibdi. Suvni ichgandan keyin, bir kuchukning ham juda chanqaganini, suv izlayotganini ko'ribdi. O'ziga-o'zi "bu it ham xuddi mendek chanqab ketibdi!" deb darhol oyoq kiyimiga suv to'ldirib, itga ichiribdi".

Payg'abrimiz (sollallohu alayhi va sallam) insonning qilgan bu yaxshiligidan Alloh taolo juda manzur bo'lganini aytdilar.

Bir oyat o'rganaman

"Erkag-u ayol – kim mo'min holida yaxshi amal qilsa, Biz unga yaxshi hayot kechirtiramiz va, albatta, ularni amal qilib yurgan amallarining eng go'zaliga beriladigan ajr ila mukofotlarmiz".

(Nahl surasi, 97-oyat)

Bir hadis o'rganaman

"Hech bir yaxshilikni past sanama!"

Ifodalar bilan o'zingni ta'rifla!



Do'stlar!

Jumlalarni o'qib, yonlaridagi yuz ifodalaridan sizni ta'riflaganini belgilang.



Do'stlarimning sirlarini hech kimga aytmayman.



Ovqatdan oldin va keyin qo'llarimni yuvaman.



Suhbat davomida hech kimning gapini bo'lmayman.



Uydan chiqishdan oldin oilamdan ruxsat so'rayman.



Ovqatimni isrof qilmayman.



Sinfda barchaga yaxshi muomalada bo'laman.



Maktab kiyimimni yechganidan keyin, taxlab qo'yaman.



Qur'on va azon o'qilganda, hurmat bilan eshitaman.



Xafa qiladigan so'zlar aytmayman.



Kattalarga hurmat bilan, kichiklarga shafqat bilan munosabatda bo'laman.



Narsalarimni ehtiyoj qilib ishlataman.



Baham ko'rishni yoqtiraman.

Katakchali topishmoq



Aziz do'stlar,

rasmlarga qarab, sizdan istalgan harfni toping va bo'sh qutiga yozing. Harflardan qanday jumla chiqishini toping. Qani unda, "Bismillah!" deb boshlang!



2. Harf



2. Harf



4. Harf



1. Harf



5. Harf



1. Harf



1. Harf



1. Harf



2. Harf



3. Harf



2. Harf



1. Harf



2. Harf



3. Harf



1. Harf



5. Harf



1. Harf



3. Harf



4. Harf



4. Harf



2. Harf

Şekillerin Türkçe isimleri sırasıyla yazılsısa ona göre düzenlenecek.

Kim qayerga ketmoqda?



Aziz do'stlar,

quyida tabiat qo'ynida hordiqqa, bemor do'stining ziyoratiga, masjidga va qarindoshinikiga mehmonga bormoqchi bo'lganlarni ko'rishingiz mumkin. Faqat kichik muammomiz bor. Kimning qayerga borishi ma'lum emas. Berilgan yordam jumlalaridan foydalanib, kimning qayerga ketayotganligini topaylik.



Yordamchi jumlalar

1. Qarindoshinikiga mehmonga ketayotgan bola yolg'iz emas.
 2. Tabiat qo'ynida dam olishga ketayotgan bolaning sochi – sariq rangda.
 3. Bemor ziyoratiga ketayotgan bolaning kiyimi moviy rangda emas va qo'lida hadya bor.
 4. Masjidga ketayotgan bolaning sochlari sariq emas, kiyimi qizil emas.
-
1. Qarindoshingiznikiga mehmonga borib turasizmi? Sizningcha, qarindoshni ziyorat qilish nima uchun muhim?
 2. Sizningcha, kasal insonni parvarishlash nega muhim?
 3. Kasal insonni ziyorat qilganimizda nimalarga e'tibor berishimiz kerak?
-
4. Birdamlik va hamjihatligimizni kuchaytiradigan xatti-harakatlarga misol keltiring.

To'g'ri va ishonchli bo'lish



To'go'rilikdan voz kechmayman

To'g'rilik har bir so'zimizda va har bir ishimizda rostgo'y bo'lishni anglatadi. Bizga yarashadigani, nima bo'lisdan qat'i nazar, har doim to'g'ri bo'lganini qilish va haqiqatparvar bo'lisdir. To'g'riso'z bo'lish bizni hech qachon qiyin vaziyatda qoldirmaydi. To'g'ri ish tutsak va rostgo'y bo'lsak, Allohning ham, odamlarning ham sevgisi va ishonchiga erishamiz. Haqiqiy do'stlar qozonamiz.

Ota-bobolarimiz: "Yolg'on gap yoqadan chiqar", – deyishgan. Ushbu maqolning ma'nosi "Yolg'on gapirgan odamning yolg'oni bir kun kelib oshkor bo'ladi", deganidir. Rost gapirmagani oshkor bo'lib qolgan kishi xijolat bo'ladi va atrofdagi odamlarning ishonchini yo'qotadi. Biz ham rost gapirmaydigan kishi do'stimiz bo'lishini istamaymiz, unga ishonmaganligimiz uchun sirlarimizni aytmaymiz va birga o'yin o'ynashdan zavqlanmaymiz.

To'g'ri va ishonchli bo'lish bizni hayotga nisbatan yanada jasoratlari qiladi va muammolarni osonlikcha hal qilishga imkon beradi. Rostgo'y bo'lish nafaqat yaxshi xulq-atvor, balki ko'plab yaxshiliklarga sababchi bo'ladi.

Bir oyat o'rganaman

"Bas, sen va sen
bilan tavba qilganlar
mustaqiyim turinglar!"

(Hud surasi, 112-oyat)

Bir oyat o'rganaman

"Albatta "Robbimiz Allohdir"
degan, so'ngra bunda mustaqim
turganlarga xavf yo'qdir va ular xafa
ham bo'lmaslar. Ana o'shalar jannat
egalaridir, qilgan amallari mukofotiga
unda abadiy qolurlar".

(Ahqof surasi, 13 – 14-oyatlar)



Menga ishonsangiz bo'ladi

Tug'ilganimizdan e'tiboran bizni sevadigan, bizni qadrlaydigan insonlar doim yonimizda bo'lib kelgan. Dunyoga ko'zimizni ochganimizda ilk ota-onamizni va oila a'zolarimizni taniymiz va sevamiz. Keyin esa hayotimizda birgalikda vaqt o'tkazishdan zavq olgan, birgalikda qiziqarli o'yinlar o'ynaydigan, sirlarimizni aytadigan do'stlarimiz bo'ladi. Hayot ular bilan yanada go'zal.

Hayotimizda o'rnak bo'lgan Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ham hamma uchun sevimli, juda yaxshi do'st edilar. To'g'rilikdan voz kechmasdilar. Eng ishonchli inson edilar. Nabiyimiz (sollallohu alayhi va sallam) do'stlarini xafa qilmas, ularga ozor beradigan hazillar qilmas, yolg'on gapirmas, qiyin kunlarida do'stlarini aslo yolg'iz qo'ymasdilar.

Bizlar ham rostgo'y va ishonchli bir do'stga yarashadigan xatti-harakatlar qilamiz. Bir-birimizning haqlarimizni hurmat qilamiz. Do'stimiz yoqtirmaydigan so'zlarni uning yonida ishlatmaymiz. So'z va harakatlarimiz qarshimizdag'i insonga qanday ta'sir ko'rsatishini anglash uchun o'zimizni uning o'rniiga qo'yib ko'ramiz.

Insonlar o'rtasida ayirmakashlik qilmaymiz. Biz uchun muhimi, qilingan ishning yaxshi va to'g'ri bo'lishidir. Yaxshi amal, kim qilganligidan qat'iy nazar, yaxshi amaldir. Yomon va noto'g'ri amal, kim qilsa qilsin, yomondir.

Bizga qarshi qilinishini xohlamagan xatti-harakatni boshqasiga qilmaymiz. Masalan, biz navbatda turgan odamlar orasidan oldinga o'tishga intilmaymiz. Birovning haqi bo'lgan narsani olmaymiz. Xatoga yo'l qo'yganimizda, uni birovga to'nkamaymiz, o'z ishimizni boshqasiga buyurmaymiz. Bir shaxs yoki voqeа bilan bog'liq masalani chuqur o'rganmasdan qaror qabul qilmaymiz.

Bularning barchasiga diqqatli bo'lamiz.

Chunki bilamizki, bular rostgo'y va adolatli bo'lishning shartlaridir.

Va bilamizki, Alloh adolatni va adolat qilganlarni sevadi.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) ham doimo odamlarga nisbatan adolatli munosabatda bo'lishgan. Shuning uchun, sahabalar, ya'ni Payg'ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) do'stlari uni juda yaxshi ko'rishar va unga to'liq ishonar edilar.

Masalan, Payg'ambaimizning (sollallohu alayhi va sallam) eng yaqin do'sti Abu Bakr (roziyallohu anhu) Payg'ambarimizdan (sollallohu alayhi va sallam) bir so'z yoki voqeа yetkazilganda, hech qanday shubhasiz: "Agar u aytgan bo'lsa, bu haqiqat!" – deya olardi.

Odamlar orasida ishonch juda muhimdir. Agar biz ushbu ishonchni buzadigan harakatlar qilsak, omonatga xiyonat qilsak, boshqa hech

Bir oyat o'rganaman

"Ular (mo'minlar) omonatlariga va ahdlariga
rioya qiladiganlardir. Va ular guvohliklarini
to'g'ri beradiganlardir. Ular namozlarini
muhofaza qiladiganlardir. O'shalar
jannatlarda hurmatlanadiganlardir".

(Ma'onij surasi, 32 – 35-oyatlar)

qachon do'stligimiz oldingiday bo'lmasligi mumkin.

Bergan va'damizni bajarganimizda, ham insonlar orasida ishonch qozongan bo'lamiz, ham Allohning sevgan bandasi bo'lamiz. Ana shunday qilib, dunyoda bir-birimizga ishonib, huzur ichida yashar ekanmiz, oxiratda ham Allohning jannat bashoratini qo'lgan kiritganlardan bo'lamiz, inshaAlloh.

Bilasizmi?

Suyukli Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Bir insonning do'sti uchun qilgan duosi qabul bo'lur", – deganlar. Do'stlarimiz uchun duo qilsak, bizga juda ko'p savob yoziladi.

Bir hadis o'rghanaman

Odamlar Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam)dan: "Insonlarning yaxshisi kim?" – deb so'rashdi. Payg'ambar (sollallohu alayhi va sallam): "Hasad qilmaydigan yurakka va rost gapiradigan tilga ega bo'lgan kishidir", –



0'ylaylik! 0'rganaylik! 0'rgataylik!



- Nima uchun har doim to'g'riso'z bo'lish muhim?
To'g'rilik bizlarga qanday foydalar keltiradi?

Savol – mendan, javob – sizdan



Salom do'stlar,

Men – Fotimaman. Men ham sizlar kabi dinimni o'rganyapman va judayam baxtliman. Hayotimdag'i ba'zi voqealarini sizlarga aytib berishni xohladim. Voqealarimda mening o'mimda bo'lganiningizda nima qilgan bo'lardingiz? Men bilan suhbat qilishingizni so'rab qolaman.


1. Men yugurishni yaxshi ko'raman. Bir kuni ko'chada yugurayotganimda bir bolaga urilib ketdim va ikkalamiz ham yerga yiqildik. Siz mening o'rnimda bo'lganiningizda bu holatda nima qilgan bo'lardingiz?
2. Kecha non olish uchun nonvoyxonaga bordim. Uyga qaytayotib pulni sanab ko'rsam, nonvoy Ahmad amaki qaytimini ko'p berib yuboribdi. O'zi ham biroz charchagan ko'ringandi. O'rnimda bo'lsangiz nima qilardingiz?
3. O'tgan hafta Marjonalarnikiga mehmonga bordik. O'yin o'ynayotib, Marjona qaramay turganida uning o'yinchog'ini bilmasdan sindirib qo'ydim. Siz mening o'rnimda bo'lganiningizda nima qilardingiz?
4. Bugun maktabdan uyga yugurib keldim. Juda ochqab ketgandim. Onamga yordam berish uchun oshxonaga kirsam, bilasizmi, nima ko'rdim? Men bugun onamning do'lma pishirishini xohlagandim, ammo onam boshqa ovqat qilibdi. O'rnimda bo'lsangiz nima qilardingiz?
5. Endi esa siz o'z hayotingizdan bir voqean, va u voqeada nima qilganiningizni aytib bering.

Doimiy yutuqning siri

Payg‘ambarimizning (sollallohu alayhi va sallam) sahabalaridan biri bo‘lgan Abu Hurayra (roziyallohu anhu) shunday deganlar:

“Allohning Rasuli (sollallohu alayhi va sallam) bir kuni bozorda ketayotib, bug‘doy sotuvchisining yonida to‘xtadilar. Qo‘llarini bug‘doy qopining ichiga solganlarida, barmoqlari ho‘l bo‘ldi. Sotuvchidan: “Bu nima?” – deb so‘radilar.

U odam esa: “Yomg‘irda ho‘l bo‘ldi, ey Allohning Rasuli”, – deb javob berdi. Shunda Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): “Insonlar ko‘rishi uchun buni ustiga chiqarib qo‘ysang bo‘lmasmidi?”, – dedilar va: “Bizni aldagan bizdan emas”, – deb qo‘sib qo‘ydilar”.



0‘ylab ko‘ring

1. Sizningcha, bu hadisdan nima tushunamiz?
2. Sotib olgan narsangiz buzuq yoki chirigan chiqsa, nimani his qilasiz? Nima qilasiz?
3. Sizningcha, doimiy yutuqning siri nimada?
4. Sizningcha, to‘g‘rilik nima? To‘g‘ri insonning xatti-harakatlariga misol keltiring.


Baham ko'rish va yordam berish



Baham ko'rish – go'zaldir

Baham ko'rish va yordam berish – bizga tegishli bo'lgan narsani ehtiyoji bo'lgan insonga bera olishdir. Baham ko'rish – faqatgina narsa, pul, o'yinchoq yoki kitobni boshqasiga berish emas. Shu bilan birga, yaqinlarimizning, do'stlarimizning quvonch va g'amlariga sherik bo'lish ham baham ko'rishdir.

Baham ko'rish qanchalik olijanob bir xatti-harakat ekanligini bilganimiz uchun, do'stlarimiz bilan qo'limizdagi ne'mat va imkonlarni bo'lismiz. Masalan, magazindan olgan shokoladimizni ikki bo'lamiz – yeydigan narsamizni bo'lismiz. Hayit kunlarida qo'shnilarimizni ziyyarat qilamiz – xursandchiligidimizni bo'lismiz. Bemor ko'rishga boramiz – qiyinchiligidini bo'lismiz.



Bir hadis o'rganaman

"Banda birodarining yordamida ekan, Alloh ham uning yordamida bo'ladi".

Quvonchlarimizni baham ko'rish bilan bir qatorda, g'am-tashvishlarni ham bo'lishishni bilishimiz kerak. Bu – bizni ham, qarshimizdag'i insonni ham baxtiyor qiladigan xatti-harakatdir.

Yordam berish – Alloh o'ta sevgan yaxshilikdir. Suyukli payg'ambarimiz Muhammad (sollallohu alayhi va sallam) hazratlarining ham o'ta saxiy bo'lganliklarini va baham ko'rishni yaxshi ko'rganliklarini bilamiz.

Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam) kerak bo'lsa, ovqatlarini, kiyimlarini, pullarini, sevgilarini, vaqtlarini, mehnatlarini insonlarga baxshida qilganlar va: "Sizlardan biringiz o'zi uchun yaxshi ko'rgan narsani birodariga ham yaxshi ko'rmagunicha mo'min bo'lolmaydi", – deb aytganlar.

Birgalikda yashayotgan insonlarning ehtiyojlarini har doim ko'rib, kuzatishimiz kerak. Atrofimizdagi ba'zi insonlar ehtiyojlari bo'la turib, buni bizga aytolmasliklari mumkin. Biz uning ehtiyojini bilgan ondayoq, yordam qilishimiz kerak. Bu ishimiz bilan nafaqat u insonni baxtli qilamiz, balki Allohning sevgisiga ham erishgan bo'lamiz.

Yordam berish va baham ko'rishning kishiga va jamiyatga bir qancha foydalari bor. Yordam berish jamiyatda birodarlikni ta'minlaydi. Do'stlikni kuchaytiradi. Birdamlik va hamjihatlikni orttiradi. Bizlarga muammolarni yengish va yolg'izlikdan qutulish imkonini beradi.




Fargini topish



Aziz do'stlar!

Ikki rasmni solishtirib, 9 ta fargni toping.



- Yordam berish nima uchun muhim?
- Payg‘ambarimiz: “Qo‘schnisi och ekan, to‘q uxlagan bizdan emas!”
– deganlarida nimani nazarda tutganlar?

So'z ovi



Aziz do'stlar!

Topishmoqdagi yashiringan so'zlarni topib, yaxshi xislatlarni yurakcha belgisi yoniga, yomon xislatlarni esa "To'xta" belgisining yoniga yozing.

H	U	R	M	(A) ¹⁰	T	S	I	Z	L	(I) ⁴	K
J	(B) ¹	A	Q	F	S	H	N	V	Z	L	(I) ¹³
A	P	P	Q	Q	A	A	D	F	G	X	L
(H) ¹¹	V	B	N	M	Sh	V	B	O'	(Y) ⁹	Z	L
L	Q	E	(O') ²	R	T	(O) ⁷	Y	U	O	I	O
D	Ch	ng	Q	A	N	Ch	A	L	A	R	P
O	P	A	L	A	R	A	Z	(L) ³	A	(Sh) ⁵	O'
R	I	Y	J	A	V	O	B	N	I	O'	(Q) ⁸
S	I	(I) ¹⁵	G	V	E	S	(D) ¹⁴	A	R	A	K
A	L	O	M	A	T	E	M	A	T	I	K
O	T	A	(M) ⁶	A	H	(R) ¹⁶	A	M	T	I	(Sh) ¹²

O	
M	
S	
S	
J	
Q	
A	
H	

- Yuqoridagi topishmoqda ba'zi harflarning ustiga raqamlar qo'yilgan. Bu harflarni raqamlariga ko'ra tartib bilan yozsak, yuqoridagi katakchalarda so'z paydo bo'ladi. Qani, bu so'zni kim topadi?

Hikoyani tugating



Aziz do'stlar!

Siz uchun bir hikoya tayyorladik. Faqat hikoyamiz oxirigacha bitmadi. Xasta nega ziyorat qilinishini, xasta insonga nima deyish kerakligini o'ylab, bu hikoyani tugatishda bizga yordam bering.

Madina, odatdagidek, maktabdan kelib, hayajon bilan uyining zinapoyalaridan chiqa boshladi. Uyining eshigi oldiga kelganida, yon qo'shnilarini Mahmud amakining uyidan chiqqan notanish insonga duch keldi. Ustidagi oq xalatiga qaraganda, bu shifokor edi. Shifokor:

- Qizim, qo'shningiz Mahmud amaki zinadan yiqilib, oyog'i sinibdi, sen zinadan ehtiyotkorlik bilan chiqqin, maylimi? – dedi. Madina ajablanib:
- Rostdanmi? Mahmud amaki uchun juda afsusdaman, inshaalloh, u tez orada sog'ayib ketadi. Xayrli kun! – dedi va eshikning qo'ng'irog'ini chaldi. Onasi eshikni ochdi, Madina darrov kirib, qo'llarini yuvdi va onasi unga tayyorlab qo'ygan dasturxonga o'tirdi. Onasi Madinaning biroz xafa ekanligini payqadi:
- Qizim, bugun seni xafa qiladigan biror narsa bo'ldimi? – dedi. Madina esa hayajonlanib onasidan:
- Onajon, sho'rva har doimgidek juda mazali chiqibdi, bir kosa ortiqcha sho'rvamiz bormi? – deb so'radi u...

Hikoyani tugating

- Do'stlar, sarlavhasiz hikoya bo'ladimi?

Hikoyani tugatgan bo'lsangiz, endi unga mos bir sarlavha qo'ying-chi.

Fargini topish



Aziz do'stlar,

quyida bir-biriga juda o'xshash ikki rasmni ko'rib turibsiz.
Ammo, bu ikki rasm orasida naqd 9 ta farq bor. Qani, bu
farqlarni topib, savollarga javob beraylik-chi!



0'ylab ko'raylik...

1. Rasmda nima ko'rganligingizni tushuntirib bering.
2. Bu rasmga nom qo'yish kerak bo'lsa, nima deb nomlardingiz?
3. Qiyn ahvolda qolganingizda atrofingizdagi insonlar nima qilishlarini xohlaysiz?
4. Sizda ham shunday voqeа bo'ldimi? Sizga kim yordam berdi? Nima his qildingiz?

Mehnat qilish



Mehnat! Mehnatning tagi – rohat

O'qituvchimizdan, onamizdan, otamizdan: "Bolam, dars qil!" – degan gapni ko'p eshitamiz. Bu so'z ba'zan bizni qiziqarli bir o'yindan yoki kompyuterdagi mashg"ulotimizdan uzoqlashtirishi mumkin. Kattalar bizga yaxshilik xohlashini unutmaylik. Chunki, hayotimizda o'qimishli bo'lishimiz, xayollarimiz ro'yobga chiqishi dars qilishimizga, mehnat qilishimizga bog'liq.

Hech qanday harakat qilmasdan velosipedni yaxshi haydab bo'lмаганидек, hech tayyorgarlik ko'rmasdan imtihondan ham yaxshi baho ololmaymiz. Ota-bobolarimiz: "Mehnatsiz rohat bo'lmas!" – deganlar.

Musulmon kishi mehnatkash bo'ladi. Qur'oni karimdag'i Najm surasining 39-oyatida shunday buyurilgan: "Har bir insonga o'z qilganidan boshqa narsa yo'q!"

Mehnat qilish – ibodatdir. Bizlarga ko'p mehnat qilish, majburiyatlarimizni bilish, oilamizga, vatanimizga va insonlarga foydali inson bo'lish yarashadi.

Hayotda har birimizning xayollari va erishmoqchi bo'lgan maqsadlari bor. Kimdir darslarida a'luchi bo'lishni istaydi. Kimdir yozuvchi, kimdir esa hofiz bo'lishni istaydi. Kimdir ko'p kitob o'qishni xohlasa, kimdir mashhur sportchi bo'lishni xohlaydi. Bularning bariga mehnat qilish bilan erishiladi!



Biz mehnat qilamiz, natijasini Allohdan kutamiz

Hayotimizda ba'zan ishlarimiz yurishmasligi mumkin. Juda xohlagan narsalarimizga erisholmasligimiz bizni juda xafa qiladi. Sevgan do'stimiz bilan o'rtamizdagi xafagarchilik bizni baxtsiz qiladi. Kayfiyatimiz buziladi; xuddi bir umr shunday qoladiganday his qilamiz, bularning bari hech tugamaydi deb o'ylaymiz.

Alloh biz qilgan hamma narsani biladi va bizga barcha narsaning eng yaxshisini xohlaydi. Buni bilishimiz bizni xotirjam qiladi, qo'rquvlardan uzoq tutadi. Allohga ishonadigan insonlar sifatida o'zimizni doim himoya ostidagidek his qilamiz. Shuning uchun, qo'rquvga, yomon fikrlarga berilmaymiz. Biror muammo bilan to'qnash kelganimizda qo'limizdan kelganini bajarib, aqlimizni ishlatischga harakat qilamiz. Kattalarimizdan yordam so'raymiz va aslo umidsizlikka tushmaymiz. G'ayrat qilamiz va aslo bo'sh kelmaymiz. Alloh natijada bizni mukofotlashiga va muammoni bizdan olishiga ko'ngildan ishonamiz.

Bir oyat o'rganaman

"Har bir insonga o'z qilganidan boshqa narsa yo'qdir. Va albatta, uning qilmishi tezda ko'rinur. So'ngra jazo yoki mukofoti to'liq berilur".

(Najm surasi, 39 – 41- oyatlar)

Bir hadis o'rganaman

"Bir odam: "Ey Allohnинг Rasuli! Tuyamni bog'lab, Allohga tavakkal qilaymi, bog'lamasdanmi?" – deb so'radi. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Avval tuyani bog'lab, keyin Allohga tavakkal qil!" – dedilar".

Bo'g'in bo'g'in topishmoq



Aziz do'stlar!

Quyidagi bo'g'lnami to'g'ri tartibga joylashtirsangiz, so'zlar paydo bo'ladi. So'zlardan gaplar tuzing.

moq

dam

yor

lash

moq

nat

qil

meh

lik

ro

dar

bi

lik

za

to

lik

chi

ni

qo'sh

moq

lish

bo'

Nazorat savollari

1. Payg'ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam): "Inson ikki ne'matning qadriga ko'pincha yetmaydi. Bular: sog'lik va bo'sh vaqt", – deganlar. Quyidagilardan qaysi birida sog'lik va bo'sh vaqtining qadrini bilgan insonning xatti-harakati ko'rsatilmagan?

- (a) Ta'tillarda kitob o'qishni sevadi.
- (b) Sog'ligi uchun zararli narsalardan uzoq turadi.
- (c) Darslarini vaqtida qilmaydi.
- (d) Vaqtini unumli o'tkazadi.

2. Qur'oni karimda bir-biriga yordam bergen, yaxshilik qilgan, tozalikka rioya qilgan, adolatli bo'lган, va'dasida turadigan, qisqasi, solih amallarni qiladigan insonlarni Alloh sevishi aytilgan. Bunga ko'ra, quyidagilardan qaysi biri Alloh sevgan insonlarning xatti-harakatlardan biri emas?

- (a) Yaxshilik yo'lida mehnat qilish
- (b) To'g'riso'z bo'lish
- (c) Xatosidan saboq olmaslik
- (d) Inson haqlarini hurmat qilish

3. Quyidagilardan qaysi biri go'zal axloqli insonlarning ishlardan biri emas?

- (a) samimiyl va tabiiy bo'lish
- (b) saxiy va mehmondo'st bo'lish
- (c) g'ayratli va mehnatkash bo'lish
- (d) isrof qiladigan va baxil bo'lish

4. Quyidagilardan qaysi biri yaxshi ishdir?

- (a) doim arazlamoq
- (b) insonlarga qo'pol muomala qilish
- (c) to'g'ri ish qilishda jasur bo'lish
- (d) yolg'on va g'iybat gaplar tarqatish

5. Hurmat – ro'paramizdagini eshitishdir. Uning fikrlarini va hislarini qadrlashdir. Hurmat – insonlarning haqlariga ryoja qilishdir. Hurmat – qarshimizdagini tushunishdir. Bularga binoan, quyidagi xatti-harakatlardan qaysi biri hurmat qiladigan kishiga oid emas?

- (a) Gapiroyotgan insonning so'zini bo'lmaydi.
- (b) Birovlarning tuyg'ularini masxara qiladi.
- (c) Hech kimni past ko'rmaydi.
- (d) Umumiy qoidalarga ryoja qiladi.

6. Quyidagi ishlardan qaysi biri rostgo'y inson uchun mos emas?

- (a) To'g'ri gapiradi.
- (b) Birovning haqini himoya qiladi.
- (c) O'ziga qilinishini xohlamagan ishni boshqa birovga ham qilmaydi.
- (d) O'ziga boshqa muomala qilishlarini xohlaydi.

7. Quyidagilardan qaysi biri ukalarimizga nisbatan vazifalarimizga kirmaydi?

- (a) Bo'lishmoq
- (b) Yordamlashmoq
- (c) Birga o'ynamoq
- (d) Arazlamоq

8. "Mehnatning tagi rohat" maqolidan olingan ma'no qaysi javobga to'g'ri berilgan?

- (a) Bo'lishish insonni baxtli qiladi.
- (b) Qo'shnimiz och bo'lsa, to'q yotolmaymiz.
- (c) Insonga yarashadigan ish – adolatli bo'lishdir.
- (d) Maqsadga erishish uchun harakat qilish shart.

9. Quyidagilardan qaysi biri ota-onamizga nisbatan ko'rsatadigan go'zal xatti-harakatlarimizdan biri emas?

- (a) duo qilish
- (b) maslahatlashish
- (c) sevgimizni ko'rsatish
- (d) xafa qiladigan gaplar aytish

10. "Bizga qarshi qilinishini xohlamagan xatti-harakatni boshqasiga qilmaymiz. Masalan, biz navbatda turgan odamlar orasidan oldinga o'tishga intilmaymiz. Birovning haqi bo'lgan narsani olmaymiz. Xatoga yo'l qo'yganimizda, birovga to'nkamaymiz. Insofli va vijdonli bo'lamiz". Sizningcha, matn uchun eng mos sarlavha qanday bo'lishi kerak?

- (a) marhamat
- (b) rostgo'ylik va adolat
- (c) mehnatkashlik
- (d) yordam berish

11. Quyidagilardan qaysi biri ovqat yeyish odobi bilan bog'liq go'zal ishlardan biri emas?

- (a) o'ng qo'l bilan yeyish
- (b) oldidan yeyish
- (c) likopchadagi taom bitmasdan, o'midan turish
- (d) ovqatdan oldin va keyin qo'llarni yuvish

12. Quyidagilardan qaysi biri ota-onamiz oldidagi majburiyatlarimizdan biri emas?

- (a) ishlarida yordam berish
- (b) nasihatlarini tinglash
- (c) ovozimizni ko'tarish
- (d) bir joyga ketmoqchi bo'lganimizda, ruxsat so'rash

13. Quyidagilardan qaysi biri yaxshi xatti-harakat hisoblanmaydi?

- a xato qilganda uzr so'rash
- b yaxshilik qilganga rahmat aytish
- c birovning narsasidan foydalanishdan oldin, ruxsat so'rash
- d xohlayotgan narsalarimizda sabrsizlik namoyish qilish

14. Quyidagi hadisda bo'sh joylarga yoziladigan so'zlar qaysi javobda berilgan?

"Besh narsa kelmasdan oldin besh narsaning qadrini bil:

- * o'lim kelmasidan avval hayotning,
- * kasallikdan oldin,
- * mashg'ullikdan oldin bo'sh vaqtning,
- * oldin yoshlikning,
- * faqirlikdan oldin boylikning".

- a sog'likning – boylikning
- b hayotning – qarilikdan
- c sog'likning – qarilikdan
- d o'lim kelmasidan – bo'sh vaqtning

Dinim – Islom, men – musulmonman!

Marhamatliman
– hech kimni xafa
qilmayman.

Hurmat qilaman
– butun mavjudotlarni
hurmat qilaman.

Sabrliman
– sabr qilishni
bilaman, darrov voz
kechmayman.

Kechirimliman
– xatolarni kechira
olaman.

Sevgi to'la insonman
– Allohni, Payg'ambarimni
(sollallohu alayhi va sallam),
oilamni, Vatanimni, butun
mavjudotlarni sevaman.

Ishonchli va rostgo'yman
– bir narsa omonat
qilinganda, uni
asrayman.

Jasurman
– to'g'ri ishlar qilishda jasur
va mardlik ko'rsataman.

Mehnatkashman
– qilgan har bir
ishimni eng go'zal
shaklda qilishga
harakat qilaman.

Saxiyman
– baham ko'rishni
yaxshi ko'raman.

Tozaman
– poklikni sevaman.

Tinchlikparvarman
– muammolarni tortishish
va urush bilan emas, o'zaro
suhbat bilan hal qilishga
harakat qilaman.

To'g'riso'zman
– har so'zimda, har ishimda
to'g'rilik va rostgo'ylikdan voz
kechmayman.



KAYNAKÇA

- 1** Kur'an Yolu, Komisyon, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 2** Hadislerle İslam, Komisyon, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 3** Dinim İslam, EDAM, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 4** İlmihal I-II, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 5** İslam İlmihali, Komisyon, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 6** Hz. Peygamber ve Evrensel Mesajı, İbrahim Sarıçam, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 7** Diyanet Çocuk Dergisi, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 8** İbadetlerimi Öğreniyorum, Ayşe Öztürk, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 9** Dualarımı Öğreniyorum, Rabia Gülcen, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 10** Dinimi Öğreniyorum, Alpaslan Durmuş, Hatice Işılak, İlyas Aslan, Neriman Karatekin, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 11** Peygamberimi Öğreniyorum, Komisyon, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 12** Kitabımı Öğreniyorum, Osman Özbağçe, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 13** Ahlakımı Öğreniyorum, Bilgenur Çorlu, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 14** Dinimizi Öğreniyoruz: Yaz Kur'an Kursları Öğrenci Kitabı, Türkiye Diyanet Vakfı Yayınları
- 15** Hikâyelerle Çocuklara 40 Hadis, M. Yaşar Kandemir, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 16** Peygamber Hikâyeleri, Bilgenur Çorlu, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları
- 17** Dini Değerler Serisi, Komisyon, Diyanet İşleri Başkanlığı Yayınları